Axborotli muhitning kelajakda inson hayotida o'zni va ahamiyati, bugungi holatdan ancha yuqori bo'lishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar ko'lamini keqaytirish talab etiladi. Respublikamizda axborotlashtirish keng yo'lga qo'yilishi bilan undagi har bir fuqoroga kerakli paytda, kerakli miqdorda, kerakli sifatda olish imkoniyatlari ochilmoqda. Respublikamizdagi viloyatlar, shaharlar, tumanlarga qarashli korxonalar, tashkilotlar va muassasalar zamonaviy kompyuter texnikalari bilan jihozlanib, ular maxsus qurilmalar (telefon tarmog'i, modem va boshqalar) yordamida axborotlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatiga yega bo'lmoqda.

Insonning iqtisodiy, ekologik, siyosiy va boshqa sohalarda fikirlash doirasining kengayishi axborotli muhitning sifat va miqdor jihatdan, yangi xususiyatiga ega bo'lgan axborotli muhitning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Demak axborotlashtirish vaqtinchalik tadbir'i emas, rivojlanishning zarur vositasidir va axborotli muhitning hozirgi rivojlanish darajasidagi holatini informatikasiz qo'llab bo'lmaydi. Axborotlarni tez, sifatli yig'ish saqlash, qayta ishlash va uzatish kabi vazifalarni bajarishda hisoblash texnikasining xizmati beqiyos ekaniga ishonch hosil qilmoqda.

Iqtisodiyotning boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munosabatlarga o'tish buxgalteriya hisobini tashkil qilish va olib berishga katta ta'sir ko'rsatadi. Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

- Ichki omillar.
- Tashqi omillar.

Ichki omillar- bu axborotni poydo bo'lish turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, uni jamlash uzatish, saqlash va h.k.

Tashqi omillar – bu axborot texnologiyasining texnika – uskunaviy vositalari orqali axborot bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi. Axborot texnologiyalari jamiyat axborot resurslaridan oqilona foydalanishning yangi muhim omillaridan biri bo'lib, hozirgi vaqtga qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tdi.

1 – bosqich. XIX asirning 2 – yarmigacha davom etgan. Bu bosqichda axborot texnologiyalari taraqqiy yetgan. Uning vositasi pero, siyohdon, kitob. Kommunikatsiya ya'ni aloqa odamdan – odamga yoki pochta orqali xat vositasida amalga oshirilgan.

2 - bosqich. XIX asrning oxiri, unda «mexanik» texnologiya rivoj topgan. Uning asosiy vositasi yozuv mashinkasi, arifmometr kabilardan iborat.

3 - bosqich. XX asrning boshlariga mansub bo'lib, «yelektromexanik» texnologiyalar bilan farq qiladi. Uning asosiy vositasi sifatida telegraf va telefonlardan foydalanilgan. Bu bosqichda axborot texnologiyasining maqsadi ham o'zgardi. Unda asosiy urg'u axborotni tasvirlash shaklidan uning mazmunini shakllantirishga ko'chiriladi.

4 - bosqich. XX asr o'rtalariga to'g'ri kelib, «elektron» texnologiyalar qo'llanilishi bilan belgilanadi. Bu texnologiyaning asosiy vositasi YEXMlar va ularning asosida tashkil etiladigan avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari va axborot izlash tizimlaridir.

5 - bosqich. XX asrning oxiriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda kompyuter texnologiyalari taraqqiy etdi. Ularning asosiy vositasi turli maqsadlarga mo'ljallangan turli dasturiy vositalarga ega bo'lgan shaxsiy kompyuterlardir. Bu bosqichda kundalik turmush, madaniyat va boshqa sohalarga mo'ljallangan texnik vositalarning o'zgarishi ro'y berdi. Lokal va global kompyuter tarmoqlari ishlatila boshlandi.

Zamonaviy OAV turi hisoblangan internet jurnalistikasi OAV taraqqiyoti, uning vazifalarining kengayishi, ishlab chiqarish va texnika sohasidagi keskin o'zgarishlar, jurnalistika va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashuvi jurnalistlar oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bir vaqtning o'zida yangiliklar yoza oladigan, intervyu olish, rasm va videoga tushirish mahoratini egallay olgan, internet uchun materiallar tayyorlay oladigan universal jurnalistlarni yetishtirish hozirgi kunda muhim. Shu bilan birga ushbu an'anaviy jurnalistik malakaga endilikda yana texnik xarakterdagi matematik va muhandislik kabi sohalar bo'yicha ham malaka hamda ko'nikmalarni hosil qilishga to'g'ri kelyapti. Bu, ayniqsa, internetdan foydalanuvchi jurnalistlar uchun juda zarurdir.

Shunday qilib, turli sohalarning konvergentsiyasi jurnalistlardan ham universallashtirish, ham ixtisoslashuvni talab etadi. Shu bilan birga universallashtirish, to'g'rirog'i, transprofessionallashtirish, avvalambor, aynan bir sohani to'liq o'zlashtirib olishni taqozo etadi. Universal jurnalist bu muayyan bir sohani to'liq egallagan

mutaxassis ham demakdir. Aynan mana shu narsa bir-biriga yaqin bo‘lgan ixtisosliklarni tezlikda o‘zlashtirib olish imkonini beradi.

Yuzaki yondashuv, barcha narsani shunchaki bajarish professional vazifani amalga oshirish uchun yetarli emas. Medialarning birlashuvi, ya’ni konvergensiya sharoitida jurnalist ijodi o‘zining ko‘p qirraligi, axborotni qisqa, faktlarga asoslangan holda, zamonaviy talablarga mos ravishda tezkor uzatishi bilan ajralib turadi. Raqamli texnologiyalar konvergensiya sharoitida media va axborot savodxonligiga ega bo‘lgan jurnalistlarning ijodiy faoliyati sifat bosqichiga ko‘tariladi.

Shuningdek, universallashtirish jarayoni jurnalistlarni quyidagilarni bajara olishlariga sharoit yaratdi:

- dolzarb, ijtimoiy axborotni yaratish;
- mavjud ijtimoiy jarayonlarni tankidiy jihatdan tahlil eta olish;
- medianing ijtimoiy jarayonlarga ta’sir etish ko‘lami va darajasini, unda axborotni namoyish etish shakllarini tushunish;
- ularning o‘zlarining faol fuqarolik pozitsiyasini namoyish etishda undan foydalanish va ijodiy jihatdan tushunish;
- har taraflama puxta va mustaqil qarorlar qabul qilish;
- atrof-muhit haqida yangi axborot olish;
- umumiylik hissiyatini shakllantirishga ko‘maklashish;
- jamiyat rivojining dolzarb masalalari bo‘yicha ommaviy debatlar va dialoglarni ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash;
- hayoti davomida uzluksiz ta’limni qo‘llab-quvvatlash;
- o‘z xavfsizligini ta’minlagan va ijtimoiy mas’uliyatni his qilgan holda mediadan foydalanish;
- fuqarolik jamiyati va global axborot tarmog‘ini shakllanishi va rivojini qo‘llab-quvvatlash.

Yuqorida sanab o‘tilganlarning barchasi internet tizimida faoliyat yurituvchi jurnalist radio, televideniye, matbuotda faoliyat yurituvchi jurnalistdan albatta farq qiladi. Internet jurnalisti yuqorida tilga olingan jurnalistlarning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan holda o‘z faoliyatini bajarishi lozim. Internet jurnalistining

mahorati yangiliklarni baholay olishida bilinadi. Bu jurnalistdan talab qilinadigan asosiy narsalardan biri hisoblanadi.

Yangiliklarni tanlash va ularni baholash internet jurnalisti kundalik faoliyatidagi eng qiyin yumushlardan biri hisoblanadi. Bu jurnalistning tajribasini ham ko'rsatib beradi. Internet jurnalistining mahorat qirralaridan yana biri uning tezkorligidir. Agarda 2-3 yil oldin respublikamizda faoliyat yuritayotgan saytlarning salkam 50 foizi muntazam yangilanmagan bo'lsa, bugungi kunda sifatli axborotga bo'lgan talabning oshishi, saytlarning ko'payishi va axborot bozori uchun kurash OAV maqomiga ega saytlarning har kuni yangilanib turishini taqozo etmoqda.

Aslida jurnalistlar, o'z kasbiy vazifalariga muvofiq, axborot vakuumida yashashlari mumkin emas. Bloggerlardan olingan ma'lumotlar jurnalistlar tomonidan rasman e'lon qilinmasa-da, baribir ularni kundalik faoliyatlarida nazardan qochirmaydilar. Zero, an'anaviy OAVning axborotni yashirish odati ularga bo'lgan ishonchga putur yetkazadi. Natijada odamlar bloglarga o'xshagan axborot manbalariga murojaat etishga majbur bo'ladilar. Bunda auditoriyaning professional jurnalistlarga bo'lgan ishonchi pasayadi, bloggerlar mavqei esa oshib boraveradi. Natijada an'anaviy jurnalistikaning reytingi biroz tushib ketishi mumkin.

Internet jurnalistining mahorati avvalo jurnalistika konvergentsiyasi jarayonida o'quvchi uchun qiziq bo'lgan faktlarni zudlik bilan har tomonlama, ya'ni matn, video va audio jamlanmasi ko'rinishida yetkazishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiya agentligi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assosiatitsiyasi, Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyat ko'rsatayotgani axborot sohasini rivojlantirish uchun zarur barcha sharoitlar yaratilganidan yana bir dalolatdir.

Soha xodimlarini rag'batlantirish, yangidan-yangi ijodiy parvozlari sari da'vat etish, kasb malakasi va mahoratini yuksaltirish, zamon talabiga uyg'un mutaxassis kadrlar tayyorlash borasidagi ishlar ko'lami tobora kengaymoqda. Bu jihatlarda jurnalistikamiz rivojiga xizmat qilayotgan turli ko'rik-tanlovlar, ijodiy bellashuvlar, grant-loyihalari, ijtimoiy dasturlarda ham o'z ifodasini topmoqda.

OAV uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy tizimining takomillashtirilishiga ham katta e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining xalqaro jurnalistika fakultetlarida, shuningdek, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universitetida soha uchun kadrlar tayyorlanmoqda va hozirgi tez o'zgarayotgan globallashuv davrida jurnalistikaning o'ziga xos xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy- tadqiqot va ijodiy ishlar samaradorligini ta'minlash hamda ushbu soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish yo'lida ish olib borilmoqda.

Milliy ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirish, sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, jahon andozalari talablari darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, ijodkorlar mehnatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish borasida doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatilib kelinmoqda. "Bugun biz yashayotgan shiddatli XXI-asrda zamonning o'zi hayotimizga keskin sur'atlar bilan kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari O'zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz bo'lgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lida g'oyat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qo'yimoqda. Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o'z so'zi uchun ma'suliyati hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma'naviy jasorat ham talab etiladi", — degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida.

Axborot (Informatsiya) termini "information" lotincha so'zdan olingan bo'lib, ma'lumot berish, tushuntirish ma'nosini anglatadi.

Qadimdan bu tushuncha orqali odamlar o'rtasida og'zaki, yozma va boshqa usullar vositasida ma'lumot almashinish tushunilgan. "Informasiya" tushunchasiga keng, har tomonlama izohni kibernetika beradi. Uning asoschisi Nobert Viner shunday yozadi: "Informasiya bu tashqi olamdan olingan ma'lumot mohiyatiga bizning moslashuvimiz va bizning his-tuyg'ularimiz moslashuvi jarayoni bilan izohlanadi". Ikkinchi tomondan "informasiya" tushunchasi "ma'lumot bilan ta'minlangan, ya'ni

axborot uzatish va uni ommaviylashtirish” ma’nosini ham anglatadi. Axborot - inson va jamiyat hayotidagi o‘ziga xos hodisadir. Bir tomondan, axborot bu inson va jamiyatning mavjudlik sharoitlariga moslashuv imkoniyatini ta’minlovchi, atrofimizdagi dunyo haqidagi bilimlarni yig‘ish vositasi bo‘lib, ular asosida inson va jamiyat o‘z ehtiyojlarini qondirish va manfaatlarini amalga oshirish maqsadlarida to‘g‘ri keladigan harakat yo‘nalishini tanlashadi.

Masalan, “ko‘chada yomg‘ir yog‘yapti” degan axborot sayrga otlangan kishi uchun soyabon olish zarurligi haqida qaror qabul qilishga yordam beradi. Boshqa tomondan, axborot bu - insonni, uning harakatlarini, jamoat tashkilotlari faoliyatini, davlat hokimiyati organlarini, texnik tizimlarni boshqarish vositasidir. Axborot muloqoti shaxsni tarbiyalash, ta’lim berish va shakllantirishning asosini hosil qiladi. Axborot insonga ijtimoiy va texnik me’yorlarning mazmunini yetkazish, uni ushbu me’yorlarga amal qilmaslikning bo‘lg‘usi salbiy oqibatlari haqida ogohlantirishning yagona vositasi hisoblanadi. Bugungi kun insonlari kundalik hayotini axborot yoki yangiliklarsiz tasavvur eta olmaydi. Zamonaviy media makonda juda katta hajmdagi axborotlarni auditoriya har kuni qabul qilyapti.

“Buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o‘z so‘zi uchun ma’sulyati hissi, ayni vaqtda yuksak fuqarolik pozitsiyasi, ma’naviy jasorat ham talab etiladi”. Bugun biz yashayotgan shiddatli XXI asrda zamonning o‘zi, hayotimizga keskin sur’atlar bilan kirib kelayotgan globallasuv jarayonlari O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar ahli oldiga bizning ezgu maqsadimiz bo‘lgan demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat barpo etish yo‘lida go‘yat muhim, dolzarb vazifa va talablarni qo‘ymoqda”. Darhaqiqat, jahonda sodir bo‘layotgan dolzarb mavzular, hodisalar, voqealarni eng birinchi OAV orqali kuzatamiz. Bu borada auditoriyaga tezkorlik, xolislik, aniqlik kabi tamoyillar birlamchi ahamiyatga ega.

Tayanch iboralar: Inson, evolyutsiya, ibtido, til, yozuv, yozuv turlari, muloqot turlari, axborot, maktub, noma, pergament, g'or, makon, ommaviy, munosabat, shakl, dunyoqarash, ong, hayot, zamon, davr, insoniyat, jamiyat, millat, muloqot, fikr almashish, yozuv, she'r, kitob, siyoh, maqol, topishmoq.

Nazorat savollari:

1. Ibtidoiy davrga oid yozuvlar va turli tasvirlar ma'lumotmi?
2. Qadimgi bitiklar va manbalarning mazmuni va mohiyati nimadan iborat?
3. Sharq va G'arb xalqlari hayotida yozuvning ahamiyati nimada?
4. Axborot tushunchasining mazmuni va mohiyati nimadan iborat?
5. Axborot va ma'lumotlarni uzatishning eng qadimgi usullari haqida gapirib bering.
6. Axborot manbalari sifatidagi ilmiy va badiiy adabiyotlar darajasini solishtiring.
7. Sharq va G'arb Uyg'onish davrida o'rta asrlarda axborotga munosabat qanday bo'lgan?
8. Yevropadagi zamonaviy OAV haqida nimalarni bilasiz?
9. Ilmiy va axborot vositalarining qiyosiy tahlilini o'tkazing.
10. Iqtisodiyot, siyosat, ma'naviyat va madaniyat haqidagi ma'lumotlar, bunday ma'lumotlarning uzviyligi va o'ziga xosligi.
11. Axloqiy tashviqot va axloqiy tahdidlarning ijobiy va salbiy xususiyatlari qanday?
12. Globallashuv davrida milliy axborot sohasining muammolari va echimlarini aniqlang.

II. BOB. AXBOROTNING JAMIYAT RIVOJIDAGI O‘RNIVA AHAMIYATI.

2.1. Axborot va ma’lumot tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘ziga xos jihatlari.

XXI-asr –axborot asri, deya e’tirof etildi. Bunga asosiy sabab–ushbu asrga kelib, misli ko‘rilmagan ulkan hajmdagi axborotni katta tezlikda uzatish texnologiyalari paydo bo‘ldi. Boshqacha aytganda, axborot texnologiyalari sohasida chinakam inqilob sodir bo‘ldi. 1986-yilda Internetning dunyoda barqaror o‘ringa ega bo‘lishi axborot va axborotlashtirish borasidagi, qolaversa, butun insoniyat hayotida olamshumul voqeaga aylandi. Garchi amerikalik olim R.Xartli «axborot» tushunchasini texnik aloqa kanallari bo‘ylab tarqatiluvchi ma’lumotlarning miqdoriy mezonini belgilash uchun 1928-yilda birinchi marta ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lsa-da, bu atamaga jiddiy e’tibor 1948-yildangina qaratila boshlagan edi. XX-asrning 60-yillaridagi ko‘p tadqiqotlar axborotni qidirish muammolari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ayni shu davrda axborotni qidirish tizimi va usullari yaratildi. Kibernetikaning rivojlanishi va axborot nazariyasi fanining maydonga kelishi bu sohaning keng miqyosda taraqqiy etishiga olib keldi.

«Axborot» tushunchasi uzoq tarixi va ko‘p qirrali ma’nosiga ega. Ijtimoiy hayotda axborot – insonlar, faktlar, hodisalar va boshqa jarayonlar haqidagi ma’lumotni anglatadi. «Axborot» tushunchasiga oid tahlillardan kelib chiqib, axborot jamiyat uchun faqat muloqot predmeti emas, balki insonlar orasida muloqotda axborot almashinuviga ta’sir ko‘rsatadigan omil, deya xulosa qilish mumkin.

«Axborot almashinuvi» tushunchasi, uning «muloqot» va «kommunikatsiya» kabi kategoriyalar bilan aloqadorligining tahlilga ko‘ra axborot bu – xabar, ma’lumot. Ammo jamiyatda axborot almashinuvining butun mexanizmini ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazaridan tushunish uchun «axborot»ning bunday talqini yetarli emas. Shu bois, axborotning barcha umumiy xususiyatari, axborot almashinuvi jarayonining hodisa sifatidagi mohiyatini tadqiq etish maqsadida har qanday jarayon uchun tipik bo‘lgan jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

«Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasining qonuning 3-moddasida axborot bu – manbalari va taqdim etilish

shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar deya ta'rif berilgan.

Bundan tashqari, axborotning mohiyati – xabar belgilarida emas, balki axborot almashinuvi ishtirokchilarining tashkiliy tayyorgarligi darajasiga ham bog'liq. Axborot almashinuvi esa ishtirokchilarning tashkiliy jihatdan hilma-hiligi, tuzilmalarning faoliyat turlari o'rtasidagi farqlardan kelib chiqadi. Albatta, bu hol axborot almashinuvi jarayoni ishtirokchilarini maksimal darajada uyg'unlashgan tizimlar sifatida qarash asosida yuzaga keladi. Matematika, kibernetika, falsafa sohasida o'tkazilgan tadqiqotlar axborot sig'imi bilan tizimning tartibga solinganlik holati o'rtasida muayyan bog'liqlik shakllanishini isbotlagan.

Axborotlashgan jamiyat to'g'risidagi zamonaviy nazariyalarda axborot va axborot almashinuvi jarayoni muhimligi ta'kidlanib, bu ijtimoiy o'zaro bog'liqlikning bir bo'laki sifatida talqin qilinadi. Axborot almashinuvi va uning boshqa fundamental jarayonlar bilan aloqalari modeli tizim yasovchi elementlarni o'zida mujassamlashtiradi. Shunday qilib, axborot almashinuvda ishtirok etuvchi tizimlardan har birining tartibi o'zgarishi o'zaro aloqadorlik asosida, ya'ni ularning birgalikda tashkil etilishi bilan o'ziga xos noyob jarayon sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro ta'sir jarayonida tizimlarning har biri boshqa tizimlarning ichki mutanosibligi va intensivligiga bevosita bog'liq ravishda o'zgaradi. Natijada, bir axborot almashinuvi o'rniga materiya harakatlanishining (birinchi navbatda ijtimoiy) oliy shakllariga xos 4 ta fundamental komponent:

- 1) axborot almashish;
- 2) tashkil etish;
- 3) aks ettirish;
- 4) o'zaro ta'sir bilan ish tutishga to'g'ri keladi.

Axborot almashinuvi jarayonining xususiyatlari haqida belorusiyalik mutaxassislar: G.Bulaskiy va Yu.Prilyuklarning bu haqda bergan tasniflari o'zining qamrovi va teranligi bilan alohida ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Axborot almashinuvi qanchalik muhim va o'zicha mustaqil hodisa bo'lib tuyulmasin, bari bir u hamisha o'zaro ta'sir ko'rsatish mexanizmi bo'lib qolaveradi.

Buni ijtimoiy o‘zaro ta’sirga nisbatan oladigan bo‘lsak, har qanday axborot almashinuvi kishilar, jamoalar yoki ijtimoiy guruhlarni ma’naviy va intellektual takomillashtirish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi, xolos.

2. Axborot almashinuvi mexanizmi amal qilishining eng muhim natijasi sifatida shuni keltirish mumkinki, muloqotda ishtirok etuvchilarning tuzilmaviy hamda kontent (mazmuniy) parametrlari bir-biriga mos ravishda o‘zgaradi, ular o‘zaro muvofiqlashib turadi.

3. Axborot almashinuvining regulyativ (tartibga solish) funksiyasi mavjudligini uning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ko‘rsatish mumkin. Buning natijasida muloqotga kirishuvchilar o‘rtasida ma’rifiy funktsiya ishga tushsa, ong, bilim va dunyoqarashni maqsadga muvofiq tarzda shakllantirib borish jarayoni tartibga solinadi.

4. Axborot almashinuvining o‘zaro munosabatni dolzarblashtirish xususiyati ham mavjud. Ma’lumki, munosabat o‘zaro ta’sirning sharti, alomatidir. Muloqot vaqtida ishtirokchilar almashinayotgan axborot, ularning o‘ziga xos ifodalanishi oqibatida individlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida munosabatlar o‘zgarishi, ya’ni rivojlanishi yoki susayishi mumkin.

5. Axborot almashinuvida indikativlik xususiyati ham bor. Bu degani o‘zaro ta’sirning, hech bo‘lmaganda, bir komponenti haqida ma’lumotlarga ega bo‘linsa, boshqalari haqida ham ishonch bilan fikr yuritish, ularni qaerda va qanday qilib izlash kerakligini hisoblab chiqishga imkon beradi. Jumladan, ijtimoiy tashkillashtirish va boshqarishning har qanday hodisasining shakli qanchalik noodatiy bo‘lishiga qaramay, axborot almashinuvi haqida fikr yuritishga asos bo‘ladi.

Amerikalik olim E. Toffler «Uchinchi to‘lqin» asarida: «Insoniyat ortda qoldirgan yo‘l uch bosqichdan iborat», degan fikrni ilgari suradi. Axborot jamiyati paydo bo‘lishi bilan odamlar hayotiga yangi atamalar va tushunchalar tezda kirib keldi. Axborot jamiyati aholining axborot ehtiyojlari to‘liq qondirilishi bilan tavsiflanadi. Y. Ocheret: «Jamiyatdagi birorta rivojlanishni axborot madaniyatisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, axborot vositalari texnik-ta’minot imkoniyatlarining kengayishi bilan hayotning har bir sohasida axborot madaniyatining roli va o‘rni oshdi», deb ta’kidlagan. Professor A. Umarovning yozishicha, axborotning jamiyat va inson hayotidagi o‘rni

oshgani sari axborot madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning, uchun, eng avvalo, shaxsning axborot madaniyatini tarkib toptirish lozim. Shuningdek, axborotning jamiyat va inson hayotidagi o‘rni oshgani sari axborot madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning, uchun, eng avvalo, shaxsning axborot madaniyatini tarkib toptirish lozim.

Mamlakatimizda qator yillardan beri axborotlashgan jamiyatning ijtimoiy-huquqiy asoslarini yaratish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1997-yil 24-aprelda O‘zbekiston Respublikasining «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinib, har kimning axborotni erkin va moneliksiz izlash, olish, tadqiq etish, uzatish hamda tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish kafolatlari ta‘minlandi. Axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2003-yil 11-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi. Shuningdek, quyidagi farmon va qarorlar ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va rivojlantirishga qaratildi.

Shaxsni axborot jamiyatida yashashga axborot orqali tayyorlash muammosi an’anaviy ravishda xalqaro hamjamiyat va eng avvalo, xalqaro tashkilotlar diqqat markazida turadi. YUNESKO media va axborot savodxonligining rivojlanishiga ko‘maklashadi va uni «inklyuziv, ochiq, ishtirokchi va plyuralistik bilimlar jamiyatini barpo etish uchun zamin», deb hisoblaydi. Mass-media va axborot texnologiyalarining insonlar hayotiga ta’sirining o‘sib borishi munosabati bilan xalqaro hamjamiyat oldida insonni axborot jamiyatida yashashga tayyorlash dolzarb muammo sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu muammolar yechimi global darajada YUNESKO va IFLA (International Federation of Library Associations) hujjatlarida, jumladan, Mediata’lim bo‘yicha Gryunvald deklaratsiyasida (1982 y.), «Axborot savodxonligi va butun umr davomida ta’lim olish bo‘yicha Aleksandriya deklaratsiyasi»da (2005 y.), «Parij dasturi va mediata’lim bo‘yicha 12 tavsiya» (2007 y.) hujjatlarida o‘z ifodasini topgan¹⁰.

¹⁰ Судич Ю.В., Проказин В.В. Роль социальных сетей в жизни молодежи. М. 2019.

«Axborot savodxonligi» («Information literacy») iborasi, dastlab, 1974 yilda AQSH Dasturiy ta'minot va axborot sanoati assotsiatsiyasining Prezidenti Pol Zurkovskiy tomonidan kutubxonalar va informatika bo'yicha milliy komissiya nomidan yozilgan hisobotda qo'llanilgan. Zurkovski ushbu iborani axborot bo'yicha savodli, o'z muammolarini hal qilishda birlamchi manbalardan tashqari, keng ko'lamli axborot vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan kishilarga nisbatan, ularning muayyan texnikasi va ko'nikmalariga nisbatan ishlatgan.

Keyingi o'n yilliklar davomida «axborot savodxonligi» AQSHning kundalik hayoti, maktablar, ish joylarida eng faol tushunchaga aylandi. Ushbu tushuncha evolyusiyasiga rasmiy asos AQSH Prezidenti ma'muriyatining axborot savodxonligi to'g'risidagi hisoboti bo'ldi. Unga ko'ra, axborot savodxonligi: «Axborotga bo'lgan ehtiyojni his qilish, uni topish, unga baho berish va undan samarali foydalanish uchun kerak bo'ladigan malakalar to'plamidir». AQSH Kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga 1989 yildan buyon jiddiy e'tibor qaratib kelinadi. Bu yo'lda AQSH Prezidenti huzurida maxsus ishchi guruhi tuzilgan bo'lib, «Axborot savodxonligi» atamasi aynan mana shu ishchi guruh faoliyati natijasida ommalashgan.

“Axborot jamiyati” tushunchasi 1940-yillarda vujudga kelgan. Kibernetikaning paydo bo'lishi bilan, garchi bu atamaning o'zi keyinchalik, keng tarqalgan kompyuterlashtirish boshlangan va axborot va raqamli texnologiyalar faol rivojlana boshlagan paytda qo'llanila boshlandi. Bu tushuncha C. Shennon, N. Viener, D. fon Neymann, ingliz mantiqi va kriptografi A. Tyuring, A. N.Kolmogorov maktabining sovet matematiklari va amerikalik olimlarning nomlari bilan bog'liq.

XX-asr oxirida “Axborot jamiyati” va “axborotlashtirish” atamalari nafaqat axborot sohasi mutaxassisleri, balki siyosatchilar, iqtisodchilar, o'qituvchilar va olimlar leksikonidan ham mustahkam o'rin egalladi. Aksariyat hollarda ushbu kontseptsiya fuqarolik jamiyati platformasida (yoki hech bo'lmaganda uning e'lon qilingan tamoyillari) yangi evolyutsion sakrashni amalga oshirish va keyingi bosqichga munosib kirish imkonini beradigan axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalarini rivojlantirish bilan bog'liq edi. XXI-asr allaqachon axborot jamiyati yoki uning boshlang'ich bosqichida amalga oshirilgan.

Media manbalaridan va boshqa yetkazib beruvchilardan olingan axborotdan mos ravishda foydalanish insonning kasb nuqtai nazaridan axborot ehtiyojlarini tahlil qilishi, shuningdek, axborotni izlashi va uni baholashiga bog‘liq. «Axborot» atamasi ko‘plab tavsifga ega. U ma’lumotlar, tadqiqot jarayonida olingan bilimlar, tajriba yoki tahsil olish, shuningdek, signal yoki belgilarni anglatishi mumkin. Oddiy qilib aytganda, axborot – bu to‘plangan, qayta ishlangan va izohlangan, foydalanish uchun qulay bo‘lgan ko‘rinishda taqdim etiladigan ma’lumotlardir.

Axborotni yana bir boshqacha tavsifi - «tushunishga oson shaklda berilgan bilimlar»dir. Lotin tilida “informatio” – tushuntirish, bayon qilish demakdir. O‘tmishda mazkur tushuncha ortida odamlar tomonidan bir biriga og‘zaki, yozma va boshqa usulda beriladigan ma’lumotlar tushunilgan.

Keng ma’noda axborot ta’rifi kibernetika fanida keltirilgan. Uning asoschisi Norbert Vinerning yozishicha, “axborot – bu biz unga va uning bizning hissiyotlarimizga moslashuvchi, tashqi dunyodan olingan mazmun tavsifidir”. Boshqa tomondan, “axborot” istilohi shuningdek “axborot berish”, axborotni uzatish va uni tarqatish ma’nosida ham qo‘llaniladi. Ayrim tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, axborot deb oldindan ma’lum bo‘lmagan biror narsa haqidagi xabar yoki ma’lumotlar tushuniladi. Nima bo‘lgan taqdirda ham axborot muhim unsur bo‘lib, usiz nafaqat alohida insonni, balki jamiyatni ham tasavvur qilib bo‘lmaydi. Masala, uning sifati, mazmuni, ohangi va yo‘naltirilganligidadir. Shu bois axborot chegaralangan, qalbakilashtirilgan, tezkor, dolzarb va h.k. bo‘lishi mumkin.

Inson va jamiyat doimiy ravishda ma’lum bir axborot muhitida bo‘ladi. Buni hattoki “axborotning yo‘qligi ham, baribir axborot” degan ibora tasdiqlaydi. Axborotdan mahrum bo‘lish, dezinformatsiya har qanday jarayonni turg‘unlashuvga, shaxs va jamiyatni esa degradatsiya holatiga olib keladi. Sotsiologlarning ta’kidlashicha, axborot qanchalik ko‘p to‘plansa, jamiyat shuncha tez rivojlanar ekan. Albatta, bu fikr to‘g‘ri, ammo u izoh talab etadi. Bu yerda axborot mazmuni aniqlashtirilmaganligi bois, uning “mohiyati” - siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy holatlarda namoyon bo‘ladi.

Demokratiya sari taraqqiyotga yuz tutgan mamlakatlarga esa fuqarolarning turfa manfaatlarini qondirishga yo‘naltirilgan keng miqyosdagi va mazmundagi axborot

xosdir. Axborot hokimiyat demakdir. Axborotga egalik holatga egalik qilish demakdir. Shuning uchun ham qadimdan u qabila yetakchilari va kohinlar, shamanlar va siyosiy elita quroli bo'lib kelgan. Omma esa hokimiyat vakillari qo'lida to'plangan mazkur bilimlarning juda ham oz hajmiga ega bo'lgan. Faqatgina xalqlarning ma'rifatga va demokratiya sari intilishlari natijasida yuqoridagilar axborotga bo'lgan monopoliyadan chekinishga majbur bo'ldi. Ammo hozirgi kungacha ham axborot erkinligi ajralmas qismi bo'lgan fuqarolik erkinliklari va ularga davlat hokimiyatining munosabati o'z dolzarbligini yo'qotganicha yo'q.

Zero, ochiq jamiyatlarda ham fuqaro erkinliklari, ularning fikr va axborot erkinliklarini chegaralash holatlari kuzatilmoqda. Demak, axborotga u yoki bu tarzda egalik qilish uchun kurash davom etmoqda. Axborot - bu pul, aniqrog'i, xarid qilinadigan va sotiladigan mahsulot bo'lib, u orqali ba'zi bir insonlar katta kapitalga ega bo'ladi. Bugungi kunda insoniyat axborot sohasidagi "inqilob"ga tayanib, o'z evolyutsiyasining yangi bosqichiga ko'tarildi. Bugungi kunda media, turli axborot va kommunikatsion texnologiyalari turli xil shakllarining tez ommalashishi, ularning shaxsiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotga bo'lgan ta'siri, insonning yashashi uchun axborot muhitining "elektron kottej" nomini olgan sifat jihatidan yangi ko'rinishini taqozo etdi. Shu bois insonlarning axborot jamiyati hayotida faol va samarali ishtirok etishi uchun yangi bilim, ko'nikma va ko'rsatmalar zarur. Axborot taqdim etayotganlar unga bo'lgan egalikni rag'batlantiradi, ba'zi holatlarda esa insonlarga muayyan axborotni saqlab berish imkonini ham ta'minlaydi.

OAVdan tashqari boshqa axborot manbalari ham (masalan, tibbiy sharhlar, hukumat byulletenlari, hisobotlari va og'zaki xabarlari) mavjud. Axborot texnologiyalari yordamida yoki shaxsiy muloqot natijasida uzatilishi mumkin. Uni media va insonlar vositasida ham tarqatish mumkin. Bugungi kunda misli ko'rinmagan miqyosda axborot, kontent va resurlar, shu jumladan, Internet zahiralari mavjud bo'lib, ularning barchasi aniqligi, ishonchliligi va muhimligi jihatidan farqlanadi. Axborot turli shakl(masalan, statistika ma'lumotlari, elektron yoki qog'oz ko'rinishda) mavjud bo'lib, u onlayn fayl va portallarda, virtual va real kutubxonalarda, hujjatlar jamlanmasida, turli

ma'lumotlar bazasida, arxivlar, muzeylarda saqlanadi. Lekin bundan qat'iy nazar turli axborot manbalari taqdim etgan axborot ishonchli yoki ishonchsiz bo'lishi mumkin.

Demak, jurnalist axborotni izlay boshlar ekan, unga, eng avvalo qanday mazmundagi ma'lumot zarurligini anglashi lozim. Axborotga bo'lgan ehtiyoj – aynan ma'lum bir ijtimoiy rol va vazifalarni bajarish uchun lozim bo'lgan axborotni olishga bo'lgan ehtiyojdir. Aksariyat hollarda iste'molchi u yoki bu maqsadga erishish uchun nimani bilishi zarurligini angelaydi va o'z qidiruv ishini ma'lum bir natijaga qaratadi. Masalan, inflyatsiya sharoitida har bir fuqaroni narx-navoning o'sishi qiziqtiradi. Abiturient oliy ta'lim muassasasiga kirish qoidalariga oid barcha ma'lumotni o'rganadi. Tadbirkor va moliyachini birinchi navbatda birjadagi narx kotirovkasi qiziqtiradi. Insonga u yoki bu axborot kanaliga murojaat qilish maqsadi tushunarli.

Tanlov xabarining to'laligi, manbaning ishonchliligi yoki qiziqarliligi asosida qilinadi. Ammo bu yerda ham manbaning ishonchligini chuqur o'rganish lozim. Masalan, o'zini adabiy tanqidchi deb tanishtirgan shaxsning yangi adabiyot bo'yicha tavsiyalari avvalo muayyan maqsadda berilgan bo'lishi mumkin. Demak, axborotni saralash asosida uning iste'molchiga hatto, o'zi tushunmagan holatda ham qadrililigi yotadi. Axborot manbasini baholashda avvalo inson undan axborotni nima maqsadda olayotganini aniqlash zarur. Mazkur jarayon ishonchli axborot manbalarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, quyidagi savollarga javob topishga harakat qilish joiz: ushbu holatda qaysi manba axborot olish uchun eng ishonchlidir?

Qaysi manbalar haqqoniy, xolis bo'la oladi? Axborot manbalari. Axborot manbasi, odatda, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan (ya'ni, keng ommaga qiziq va kerak bo'lgan) axborotga ega bo'lgan shaxs yoki tashuvchidir. Jurnalistikada axborot manbalari an'anaviy (rasmiy manbalar, ya'ni hujjatlar, OAV materiallari, hukumat qarorlari, hayotning o'zi va h.k) va noan'anaviy ("ishonch telefonlari", ijtimoiy sog'lomlashtirish markazlari, axlatxonalar, makulatura, ikkilamchi xomashyo, shisha qabul qilish, mashina yuvish va yonilg'i quyish shahobchalariga ajratiladi.

Kontent (mazmun, tartib, shakl) sifatiga ko'ra manbalar uch toifaga bo'linadi. Birlamchi manbalar – bu original manbalar bo'lib, ular axborotni izohlamaydi. Bu tadqiqot hisobotlari, prays-varaqlar, nutq matnlari, elektron xabarlar, original san'at

asarlari, qo‘lyozmalar, fotosuratlar, kundaliklar, shaxsiy maktublar, og‘zaki hikoya intervyu yoki diplomatik hujjatlar bo‘lishi mumkin. Aksariyat holatlarda va muayyan vaziyatlarda imkon qadar birlamchi axborot manbalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ikkilamchi manbalar sifatida axborotni yetkazib beruvchilar maydonga chiqadi. Bu holatda axborot o‘zgarishi, tahlil qilinishi yoki umumlashtirilishi mumkin (masalan, ilmiy kitoblar, jurnallar, tanqidiy tahlil yoki ma’lumotlar talqini).

Foydalanishga tavsiya etiladigan birlamchi manbalar ikkilamchi manbalarga nisbatan har doim ham o‘zida nufuzli yoki xolis axborotni mujassam etmaydi. Axborotni sub’yektiv baholash holatlarini tekshirilgan ikkilamchi manbalardan foydalanib bartaraf etish mumkin. Ikkilamchi manba muayyan soha yoki muayyan vaziyatdan kelib chiqqan holda belgilanishi mumkin. Uchlamchi manbalar – bu tashkil etilgan va o‘zida birlamchi hamda ikkilamchi manbalardagi axborotni qayta ishlab, o‘zida mujassamlagan (masalan, referatlar, bibliografiya, turli qo‘llanmalar, ensiklopediyalar, ko‘rsatkichlar, xronologik jadvallar, ma’lumotlar bazasi manbalardir.

Jurnalistning axborot savodxonligi qaror qabul qilish va borliqning dolzarb muammolarini tahlil qilish maqsadida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni olish, tushunish, baholash, moslash, generatsiya qilish, saqlash va namoyish qilish uchun kerak bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va mahorat majmuasini bildiradi. Bunday bilimga ega bo‘lgan jurnalist quyidagi bazaviy ko‘nikmalarga ega bo‘ladi: – tanqidiy tafakkur, – axborotni tahlil qila bilish va undan keyingi bosqichda materialda ko‘tarilgan muammoni hal etishda foydalanish, – mustaqil ta’lim olish qobiliyati, – davlat faoliyati va demokratik jarayonlarda ishtirok etishga imkon beruvchi shaxsiy mediaresurslarni yaratish. Biz “Media savodxonlikning asosiy jihati sifatida mediamuhitga tahliliy yondashuv, ya’ni uni tanqidiy qabul qilish va media vositasida o‘zini ifoda etish”, degan ta’rifga tayanamiz. Bu ma’noda media savodxonlik o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

– utilitar, funksional va pragmatik ko‘nikmalar u yoki bu axborotning amaliy foydaliligini ko‘rish, eshitish, tasavvur etish, tushunish va namoyish etishni bildiradi;

– tanqidiy tahlil ko‘nikmalari turli tahliliy vositalardan foydalangan holda turfa mediakontentni adekvat tarzda talqin eta olish, mediamatni baholashni

bildiradi. Ushbu ko‘nikmalar rang-barang mediakontent va janrlar vositasida yaxshiroq rivojlanadi;

– estetik va kreativ ko‘nikmalar mediamatnni ijodiy jihatdan anglash, yaratish va talqin qilish qobiliyatini bildiradi. Talaba mazkur ko‘nikmalarni o‘zida media-resurslar yaratish orqali shakllantirishi mumkin.

– interfaollik ko‘nikmalari media orqali muloqot qilish va turli mediarollarni bajarib ko‘rish qobiliyatini ko‘rsatadi. Mazkur ko‘nikmalarni ta’lim va amaliyot doirasida rivojlantirish mumkin. Interfaollik ko‘nikmalari o‘z fikri va ko‘rsatmalarini ifoda etishga tayyorligini ko‘rsatadi.

– xavfsizlik ko‘nikmalari murakkab vaziyatlardan chiqish va ularga duch kelmaslik qobiliyatini namoyon etadi. Virtual makonda xavfsizlikka rioya qilishning muhim ko‘nikmalaridan xususiy makonni himoyalash hamda kerak bo‘lmagan kontent va muloqotdan voz kechishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat barpo etish zamonimizning konstitutsiyaviy oliy maqsadi qilib qo‘yilgan va bu mazkur yo‘nalishda jiddiy amaliy ishlar olib borilayotir. Ma’naviyat va huquqqa ham turli boshqa sohalar kabi dialektik xarakterga ega. Shu bois huquqiy davlat dialektikasini kichik bir jarayonlari haqida, so‘z yuritar ekanmiz, avvalo ma’naviyat va huquqqa dialektik yondashuvning xarakteri nima?

Dialektik yondashuvning xususiyati shundaki, u eski fikrlar, qarashlar, harakatlarni o‘zaro munosabatini aniqlab, ularga har tomonlama yondashuvni taqozo etadi deyish mumkin. Milliy g‘oyada mentalitet namoyon bo‘ladi. Mentalitetning fikrlash uslubi va qadriyatlar bilan bog‘liq elementlari mavjud. Mentalitet (lotincha “ichki tuyg‘u, aql-idrok”) gumanitar yo‘nalishdagi umumlashtiruvchi, xususan turli psixik va boshqa sifatlardan iborat alohidaliklar, o‘ziga xosliklar majmuasini va ularning ifodalanish holatlarini anglatuvchi ijtimoiy-siyosiy, publitsistik va metaforik tushuncha.

Asosan tafakkurdagi, o‘ylash va fikr yuritishdagi o‘ziga xoslikni aks ettirish uchun qo‘llanadi. Ilgarilari nisbatan kam ishlatilgan mentalitet keyingi paytlarda jamoaviy tafakkur shaklini, asosan milliy xarakterning jihatlarini anglatuvchi deyarli umumiste’mol so‘zlardan biriga aylangan. Birinchi marta 1691-yilda ingliz lug‘atlarida

paydo bo'lgan mentalitet so'zi XIX asr o'rtalariga kelib boshqa G'arbiy Yevropa tillarida ham tarqala boshladi.

O'sha asrning oxirlarida ilmiy adabiyotlarda ham qo'llana boshlaydi: fransuz sotsiologiya maktabining asoschisi Emil Dyurgheym uni individdan yuqori turuvchi (jamoaviy) ma'naviy o'ziga xosliklarni ifodalovchi sinonim sifatida ilmiy amaliyotga olib kiradi. Mentalitet o'z tabiyatiga ko'ra serqirra va bir-biriga zid voqe'liklardan xoli bo'lmagan o'ta murakkab ijtimoiy tushuncha. Ushbu tushunchaning mazmunida uning bir tomondan tafakkur, dunyoqarash va tasavvur, ikkinchi tomondan, xulq va harakatdan iborat ikki muhim jihati ko'zga tashlanadi.

2.2. Bosma shakldagi ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallarning o'ziga xos xususiyatlari.

Zamonaviy jamiyat uchun sifatli va o'z vaqtida axborot asosiy qadriyatlardan biridir. Uni yaratish va tarqatish ommaviy axborot vositalarining vazifasi bo'lib, ular orasida eng qadimiylaridan biri davriy matbuotdir. Gazeta - doimiy nom ostida va kamida oyda bir marta nashr etiladigan bosma davriy nashr. Gazeta prototipi qadimiy qo'lyozma xabar byulletenlari hisoblanadi. Hatto Yuliy Sezar ham Senat aktlarini, so'ngra "Xalqning kundalik ommaviy aktlarini" nashr eta boshladi.

Dunyodagi birinchi bosma gazeta 8-asrda Xitoyda chiqa boshlagan Capital Bulletin edi. Unda imperatorning farmonlari va eng muhim voqealar haqidagi xabarlar bor edi. Germaniyadagi birinchi gazeta 1605-yildan Strasburgda (o'sha paytda hali ham nemis) ilgari qo'lyozma gazetalarni tuzgan Iogann Karolus tomonidan nashr etilgan "munosabatlar" edi. Uzoq vaqt davomida Germaniyada birinchi gazeta kim va qayerda chop etilganligi, umuman olganda, nima gazeta deb qarash kerakligi haqida bahslar bor edi. Zamonaviy nemis tilida "Zeitung" so'zi "gazeta" degan ma'noni anglatadi. Bosma nashrning yangi turi bo'lgan "gazeta" tushunchasi uchun o'sha paytda «Avisen» va «Relationen», so'zlari ishlatilgan, keyinchalik ular zamonaviy "Zeitung" so'zi bilan almashtirilgan.

1913-yilda M.Behbudiy “Samarqand” gazetasini chiqara boshladi. Shaxs o‘z asarlarida “turkiy til” atamasini o‘zbek tilining sinonimi sifatida ishlatgan. Behbudiy boshqa jadidlar singari milliy san’at va adabiyotni rivojlantirish, ayollarning teng huquqliligi, qayta tashkil etish tarafdori edi. Jurnal (fransuzcha Journal - kundalik, kunlik eslatma, fransuzcha Jour - kun) - doimiy sarlavhaga ega bo‘lgan va turli xil ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ishlab chiqarish va boshqa masalalar bo‘yicha maqolalar yoki tezislari, adabiy - asarlarni o‘z ichiga olgan bosma yoki elektron davriy nashr san’at Jurnal ham gazeta kabi asosiy ommaviy axborot vositalari va targ‘ibot vositalaridan biri bo‘lib, u jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatadi, uni ma’lum mafkuraviy guruhlar, ijtimoiy tabaqalar, siyosiy partiyalar, tashkilotlar manfaatlaridan kelib chiqqan holda shakllantiradi.

Jurnallarning eng dastlabki namunasi 1663-yilda Germaniyada nashr etilgan *Erbauliche Monaths Unterredungen* adabiy va falsafiy jurnal edi. Birinchi marta 1731-yilda Londonda nashr etilgan *Gentleman's journal* birinchi ommaviy jurnal edi. 1842-yilda Gerbert Ingram tomonidan asos solingan *Illustrated London News* birinchi illyustratlangan jurnal edi. Jurnallar gazetalarga qaraganda kamroq nashr etilishi sababli, ular ma'lumot berishda past samaradorligi bilan ajralib turadi, lekin ularda voqealarni batafsil tahlil qilish, fikr yuritish, xulosa qilish va hokazolar uchun ko'proq imkoniyatlar mavjud¹¹.

O‘rta Osiyodagi eng qadimiy jurnal 1932-yil sentabrda “O‘rta Osiyo xalqlari sovet adabiyoti” nomi bilan tashkil etilgan. 1934-yilda bo‘lib o‘tgan Sovet yozuvchilarining I-Butunittifoq qurultoyidan so‘ng u o‘zgartirilib, 1935-yildan “Adabiy O‘zbekiston” nomi bilan nashr etilmoqda. Barcha bosma ommaviy axborot vositalarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:

1. Ommaviy - ijtimoiy-siyosiy nashrlar, ular panoramasi bilan ajralib turadi.
2. Maxsus - millatiga, kasbiy faoliyat sohasiga, ijtimoiy mavqeiga qarab, turli ijtimoiy guruhlarga bo‘linadi: yoshi, jinsi, dini kategoriyalari hisobga olinadi.

¹¹ Matibaev T. Matibaeva R. Jaholat xuruji. - Toshkent: Akademiya, 2013.

Bugungi kunda bosma ommaviy axborot vositalari o‘zining xilma-xilligi bilan o‘z o‘rnini elektron ommaviy axborot vositalariga bo‘shatib bermoqda va bosma OAVning vazifasi universallik, faktlar, axborotning mantiqiy ravshanligi va ishonchliligiga intilishdan iborat. Media manbalaridan va boshqa yetkazib beruvchilardan olingan axborotdan mos ravishda foydalanish insonning kasb nuqtai nazaridan axborot ehtiyojlarini tahlil qilishi, shuningdek, axborotni izlashi va uni baholashiga bog‘liq. «Axborot» atamasi ko‘plab tavsifga ega. U ma’lumotlar, tadqiqot jarayonida olingan bilimlar, tajriba yoki tahsil olish, shuningdek, signal yoki belgilarni anglatishi mumkin.

Oddiy qilib aytganda, axborot – bu to‘plangan, qayta ishlangan va izohlangan, foydalanish uchun qulay bo‘lgan ko‘rinishda taqdim etiladigan ma’lumotlardir. Axborotni yana bir boshqacha tavsifi - «tushunishga oson shaklda berilgan bilimlar»dir. Lotin tilida “informatio” – tushuntirish, bayon qilish demakdir. O‘tmishda mazkur tushuncha ortida odamlar tomonidan bir biriga og‘zaki, yozma va boshqa usulda beriladigan ma’lumotlar tushunilgan.

Keng ma’noda axborot ta’rifi kibernetika fanida keltirilgan. Uning asoschisi Norbert Vinerning yozishicha, “axborot – bu biz unga va uning bizning hissiyotlarimizga moslashuvchi, tashqi dunyodan olingan mazmun tavsifidir”. Boshqa tomondan, “axborot” istilohi shuningdek “axborot berish”, axborotni uzatish va uni tarqatish ma’nosida ham qo‘llaniladi. Ayrim tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, axborot deb oldindan ma’lum bo‘lmagan biror narsa haqidagi xabar yoki ma’lumotlar tushuniladi. Nima bo‘lgan taqdirda ham axborot muhim unsur bo‘lib, usiz nafaqat alohida insonni, balki jamiyatni ham tasavvur qilib bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda 2018-yilga kelib ijtimoiy soha xodimlari, shifokorlar va o‘qituvchilarning gazeta va jurnallarga majburan obuna bo‘lishlariga chek qo‘yildi. Maqsad gazeta-jurnallardan voz kechish edimi, yoki aholi birovning topshirig‘isiz, majburlov isiz ham endi nima ziyon-u nima foyda ekanligini yaxshi biladi; matbuotdan uzilib qolmaydi, degan o‘y edimi? Biroq ayni shu sababli o‘z ustida ishlamay, dala yoki uy ishlaridan qo‘shimcha tayyorgarliksiz to‘g‘ri maktabga keladigan o‘qituvchi-yu, o‘zi haqidagi tanqid yoki yuborilgan murojaatni birovdan eshitmaguncha yillab bilmay yuradigan, buning ustiga to‘g‘ri yozishni ham uddalay olmaydigan chalasavod rahbarlar

ko‘payib ketdi. Forbes jurnali ma‘lumotlariga ko‘ra, jahondagi yirik nashrlarning hisob-kitobi bo‘yicha AQSH va Kanadada 10 kishidan 6 tasi kundalik gazetalarni, 7 nafari haftalik gazetalarni o‘qir ekan.

Hozirgi mavjud vaziyat, gazeta-jurnallarga yurtimiz va xorijiy mamlakatlardagi munosabat, gazeta-jurnallarning hayotimizdagi o‘rni haqida bir necha soha vakillaridan intervyu oldik. – Gazeta-jurnal, haqiqatan ham, bugungi kunning aktual mavzusi. Birgina yurtimizda emas, xorijiy mamlakatlarda ham matbuotdan biroz bo‘lsa-da uzoqlashish kuzatilmoqda. Biroq vaziyat O‘zbekistondagidek yomon emas. Masalan, Xitoydagi mahalliy gazetalardan birining bosh muharririga “50 yildan keyin ham Xitoyda gazeta bo‘ladimi?”, deb savol berganimda u: “Kechirasiz, – dedi, – Xitoyda 100 yildan keyin ham gazeta bo‘ladi”.

Xitoyda gazetaning kelajagi bor, bordirki, Xitoy aholisining gazetaga talabi hamon yuqoridirki, bosh muharriri bir asrdan keyingi davrni ham dadil taxmin qila olyapti, ko‘ra olyapti. Xuddi shu savolni Amerikaning Texas universiteti professoriga berganimda esa u aytdiki: “Real qarasa, faqat yirik nashrlar saqlanib qolsa kerak. Masalan, “New York Times”, “Wall Street journal” va hokazo. Ammo kichik gazetalari iqtisodiy inqiroz sababli yopilsa kerak”. 30 yil oldin o‘zim o‘qigan Hindiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga bordim. Ne ko‘z bilan qarayki, universitet kutubxonasida talabalar gazeta o‘qiyapti.

Yaponiyada gazeta-jurnallarga bo‘lgan munosabat havas qilarli darajada. Biz ko‘zimizni telefondan uzmaydigan jamoat transportlarida ular mobil qurilmalarini ovozsiz qilib gazeta-jurnal o‘qishadi. Mana nima uchun Yaponiya yuksalish bosqichlarida birinchilardan ekanligining sababi. Endi o‘zimizdagi holatni tahlil qiladigan bo‘lsak, biz sharq bilan g‘arb o‘rtasidagi davlatmiz. Shunga yarasha milliy jurnalistikamiz ham o‘ziga xos bo‘lishi; bor narsani saqlab qolishni bilishimiz zarur. Boisi, matbuot o‘z ustida qanchalik ishlamasin, tahliliy materiallarni qanchalik zo‘r berib tayyorlamasin, aholi undan uzoqlashib ketdi.

Oldimizda katta vazifa turibdi – 150 yildan buyon o‘zbek milliy matbuoti yashab kelyapti va uning yashab qolishiga harakat qilishimiz kerak. Gapning ochig‘ini

aytdigan bo'lsak, "Matbuot kerak emas", deb qo'limizni qo'ltigimizga suqib turaversak, milliy jurnalistikamiz tarixi bizni kechirmaydi.

– Matbuot mushtariylarini yana mutolaa va mushohadaga qaytarish uchun, avvalo, gazeta tahririyatlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, jurnalistlarni moddiy qo'llab-quvvatlash zarur. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatimizda matbuotning oqsashi sohalarga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Matbuotsiz aholining savodi ham pasayib bormoqda. Hatto savodi juda past desak ham bo'ladi. Ba'zi jurnalistlar ham o'z savodi va malakasi ustida tinmay ishlashi kerak. Chunki yangi texnologiyalar shiddat bilan hayotimizga kirib kelar ekan, o'zi bilan yangidan-yangi yondashuvlar, yangi uslublar, yangi qarashlarni olib keladi. Jurnalist esa hamisha bir qadam oldinda bo'lishi zarur.

– Millatning ertasi, kelajagi, ravnaq topishi, ayni damda jamiyatda ro'y beradigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy o'zgarishlar haqida ma'lumotga ega bo'lish, o'z fikrlarini bildirish, unda tomoshabin bo'lib emas, ishtirokchi bo'lib yashash – daxldorlik hissini uyg'otish uchun har bir jamiyat vakili uchun matbuot suv va havodek zarur. To'g'ri, tezkor zamon deymiz, texnika asri deymiz, internet rivojlangan davr deymiz, tan olish kerak, dunyoning bir burchagidagi axborotni yashin tezligida dunyoning ikkinchi bir burchagiga yetkaza olish mumkin bo'lgan bir davrda matbuotning o'rni, ko'lami, nufuzi, unga bo'lgan ehtiyoj biroz chekindi, afsus har tomonlama teran fikrlovchi, yetuk avlodni tarbiyalash uchun ham bosma nashrlar obunasiga qaytishimiz kerak. Chunki boshlang'ich maktab davrida bola u qadar mustaqil bo'lmaydi. Aksariyat hollarda o'qituvchi yoki ota-ona qaysi tomonga boshlasa, shu tomonga yo'naladi.

2.3. Ta'lim jarayonida axborot savodxonligining o'rni va ahamiyati.

O'quv jarayonining ma'nosi juda aniq - bilim, ko'nikma, malaka va usullarni o'zlashtirish. Asosan, bu axborot jarayoni va shuning uchun uni aniq fanlar, xususan, axborot nazariyasi nuqtai nazaridan rasmiylashtirish va tavsiflash mumkin. Ta'limning ob'ektiv haqiqati va shuning uchun uning kontsepsiyasi unchalik aniq emas, shuning uchun ularning mazmunini biroz noaniq va hatto o'zboshimchalik bilan talqin qilish

mumkin emas. Shu sababli, pedagogik faoliyatda va ta'lim haqiqatida ta'limning roli haqida amaliy noaniqlik mavjud bo'lib, u umuman ta'lim jarayonida o'ynaydi. O'zining ekstremal ifodasida, bu noaniqlik ta'limning faqat axborot komponentiga qisqarishiga olib keladi.

Ta'lim jarayonida axborot savodxonligi inson hayotida katta rol o'ynaydi. Ular "shaxsga o'zining ijtimoiy rollari - fuqaro va oila boshlig'i, butun jamiyat vakili va ma'lum bir hududda yashovchi shaxs sifatida murojaat qiladi. Ommaviy axborot vositalarining mazmuni shaxsning jamiyat va uning quyi tizimlari bilan munosabatlarning barcha tomonlarini, shaxs tarkibiga kiradigan ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarini qamrab oladi. Ommaviy axborot vositalari deganda, odatda, ommaviy miqyosda axborotni to'plash, qayta ishlash va tarqatishni ta'minlaydigan ijtimoiy institutlar tushuniladi. Ommaviy axborot son jihatidan katta, odatda geografik jihatdan tarqoq auditoriya uchun mo'ljallangan bo'lib, tarqalish tezligi va muntazamligi, deyarli bir vaqtning o'zida iste'mol qilinishi, vositachilik, ma'lum darajada stereotip xarakteri bilan ajralib turadi.

Amerikalik nazariyotchilar va matbuot tarixchilari ommaviy axborot vositalarini tavsiflovchi to'rtta nazariyani ajratib ko'rsatishadi, ularning har biri o'ziga xos maqsadga ega.

- Birinchidan, bu avtoritar nazariya bo'lib, uning maqsadi amaldagi hukumat siyosatini saqlab qolish va amalga oshirish, shuningdek, davlatga xizmat qilishdir.
- Ikkinchidan, libertar nazariya. Uning maqsadi - ma'lumot berish, ko'ngil ochish va sotish, lekin asosan haqiqatni topishga yordam berish va hukumatni nazorat qilish.
- Uchinchidan, bu ijtimoiy mas'uliyat nazariyasi bo'lib, uning maqsadi ma'lumot berish, ko'ngil ochish va sotish, lekin asosan konfliktni muhokama qilish darajasiga o'tkazishdir.
- To'rtinchi nazariya esa sotsialistikdir. Uning maqsadi sotsialistik tuzumning, xususan, diktaturaning muvaffaqiyati va saqlanishiga hissa qo'shishdir.

Axborot inqilobi sharoitida qadriyatlar tizimining tez o'zgarishi davrida ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy-madaniy roli va uning zamonaviy

jamiyatda rivojlanish istiqbollari to'liq tushunilmagan. Oila va maktabda ta'lim va tarbiyani tashkil etishning mavjud stereotiplari, zamonaviy ommaviy axborot vositalari mazmunining yo'nalishi va mazmuni o'sib kelayotgan avlodni o'smirlik jamiyati talablari bilan tanishtirishning dolzarb muammolarini hal etishda ularning imkoniyatlarini to'liq baholash va bashorat qilish imkonini bermayapti. zamonaviy jamiyat, zamonaviy madaniyat.

Bugungi kunda ta'lim va ommaviy axborot vositalarining o'zaro ta'siri muammolari faylasuflar, psixologlar, o'qituvchilar, jurnalistlar va sotsiologlar tomonidan olib boriladigan fanlararo tadqiqot sohasidir. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining auditoriyaning axborot madaniyatini shakllantirish jarayonlariga, yosh talabalarning ijtimoiylashuviga, yosh avlodning ijtimoiy moslashuviga hissa qo'shadigan bilimlarni oqilona tanlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'sir qilish mexanizmlari. zamonaviy dunyoda doimiy o'zgarib turadigan hayot sharoitlari hali aniqlanmagan.

Ushbu tadqiqot doirasida o'quv jarayoni ishtirokchilarining (ota-onalar, o'qituvchilar, o'quvchilarning o'zlari) ommaviy axborot vositalariga bo'lgan munosabati o'zgarishini tahlil qilish va ularning ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalarining rolini baholashni ko'rib chiqishga harakat qilindi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalarining sotsiologiyasi sohasida keng qamrovli, yaxlit, asosli tadqiqotlarning yo'qligi akademik tadqiqotchilarning ham, pedagogik amaliyotchilarning ham vaqti-vaqti bilan e'tiborini qaratadigan hodisa bo'lgan "parallel maktab" holatini tahlil qilishga urinishlarning tarqoqligini talab qiladi. Ta'lim va tarbiya uchun qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan juda ko'p sonli ommaviy axborot vositalarining mavjudligi va ushbu ma'lumotlar bilan ishlash usullari va usullarining pedagogik arsenalining yo'qligi o'rtasidagi qarama-qarshilik tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Davr ruhini ifodalab, kun sayin barcha sohalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta'lim maktablari ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va internet texnologiyalarining paydo bo'lishi axborot texnologiyalarining umumiy ta'lim maktablari ta'lim va tarbiya, muloqot

jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rni va ta'siri ortib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Umumiy ta'lim maktablaridagi ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari vositasida o'qituvchi va o'quvchilar oldida quyidagi imkoniyatlar ochiladi, xususan:

- axborot yig'ishning yangi usullarini va ularni qo'llashni bilib oladilar;
- bolalarning fikrlash doirasi kengayadi, bilim olishga qiziqishlari ortadi;
- mustaqil ishlashning roli ortadi, samaradorligi yaxshilanadi;
- bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga, hissiy-estetik doirasini kengaytirishga, ijobiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim sohasida, o'quv faoliyatida va o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta'limni amalga oshirish jarayonida hayot bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. O'qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi. Axborot texnologiyalarini qo'llashda o'quvchi shaxsining butun imkoniyatlarini amalga oshirishga: kompyuter vositalari orqali bolaning bilishga oid, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetikaviy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga intilish lozim. Kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quvchi shaxsini rivojlantirishning to'laqonli vositasiga aylantirish uchun o'qituvchining o'zi axborot texnologiyalari sohasida bilimdon (salohiyatli) bo'lishi kerak.

Jahon pedagogikasi amaliyotida qator olimlar, jumladan, M. V. Bulanova Toporkova va boshqalar o'qituvchining axborot texnologiyalari sohasidagi bilimdonligini quyidagi sifatlar bilan baholaydilar:

- 1) zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik;
- 2) shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish;
- 3) umumiy kommunikativ (o'zaro muloqot qilish) madaniyatining yuqori darajada bo'lishi;

4) axborot vositasida o‘zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo‘lishi;

5) o‘zini refleksiylash (o‘z ruhiy holatini tahlil qilish) ehtiyojining bo‘lishi;

6) axborotni qabul qilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o‘zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o‘zlashtirish.

Pedagog-olim V. K. Selevko esa o‘qituvchining kompyuter savodxonligini kompyuterli texnologiya mazmunining muhim qismi deb hisoblaydi va uning tarkibiga quyidagilarni kiritadi:

- informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilish;
- kompyuterli texnikaning umumiy tuzilishi va funksional imkoniyatlarini bilish;
- zamonaviy operatsion tizimlarni bilish;
- umumiy vazifa bajaradigan zamonaviy dasturning qobiqlar va operatsion vositalarini (Norton Commander, Windows va boshqalarini) bilish hamda ularning vazifalarini o‘zlashtirish;
- hech bo‘lmaganda bir matn redaktorini o‘zlashtirganlik;
- dasturlashtirish algoritmlari, tillari va paketlari haqidagi boshlang‘ich tasavvurlarining bo‘lishi;
- utilitar (amaliy foyda beradigan) vazifalarini bajaradigan amaliy dasturlaridan foydalanishning boshlang‘ich tajribasi.

Axborot texnologiyalarining asbob-uskuna va dasturiy vositalarining juda jadallik bilan rivojlanib borishi, masalan, yangi avlod kompyuterlarining, yangi dasturlarining chiqishi, turli ta’limiy vazifalarni hal etish qulay texnikafiy imkoniyatlar ochib beradi. Biroq ilmiy izlanishlar o‘quv maqsadida foydalaniladigan axborot tizimlari o‘z didaktik sifatlariga ko‘ra hali ham qoniqarsiz darajada ekanligini ko‘rsatadi. Buning sababi shundaki, axborot texnologiyalarini o‘qitish maqsadlarida foydalanishning metodik (pedagogik) vositalari axborotlashtirishning texnikaviy vositalari rivojlanishidan ancha orqada qolib ketyapti. Kompyuterning imkoniyatlari juda katta, biroq pedagogik maqsadlarda u yetarli darajada foydalanilmayapti. O‘qitish maqsadidagi axborot uni loyihalashtirish bosqichida kiritiladi. Xususan, axborot — avtomatlashtirilgan o‘qitish

tizimlarining ma'lumotlar bazasini yaratishda, elektron darsliklarni tuzish uchun o'quv materialini tayyorlashda, modellashtiruvchi turdagi kompyuter tizimlari bilan o'quv ishlarining ssenariylarini, masalalar va mashqlar, test topshiriqlari tuzishda kiritiladi. Axborot texnologiyalari bir yo'la bir necha fan sohalariga informatika, matematika, kibernetika, psixologiya, pedagogika kabi fanlarga oid ma'lumotlarni birlashtiradi. Biroq bu uyg'unlikda psixologikpedagogik asos yetakchi o'rin tutadi. Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va o'qitish jarayoniga joriy qilish muhim o'rin egallaydi. Yangi axborot texnologiyalari o'quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun katta ahamiyatga ega. Odatdagi ta'limiy texnologiyalardan farqli ravishda, axborot texnologiyalarida mehnat predmeti va uning natijasi sifatida axborot, mehnat quroli bo'lib esa axborotlashtirishning texnikaviy vositalari xizmat qiladi.

Kompyuter vositalari o'quv-tarbiya jarayonining turli bosqichlarida:

- o'quvchilarga o'quv materiallarini taqdim etish bosqichida;
- kompyuter bilan interfaol o'zaro birgalashib, harakat qilish jarayonida o'quv materialini o'zlashtirishda;
- o'zlashtirilgan bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni takrorlash va mustahkamlashda;
- o'qitishda erishilgan natijalarni oraliq va yakuniy nazorat qilish va o'zo'zini nazorat qilish bosqichida;
- o'quv materialini qismlarga bo'lish, uni klassifikatsiyalash va tizimlashtirishni takomillashtirish orqali o'qitish jarayoniga va uning natijalariga tuzatishlar kiritish bosqichida foydalanilishi mumkin.

Oqilona tuzilgan kompyuterli o'qitish dasturlari axborotni o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishining psixologik va pedagogik qoidalari e'tiborga olingan taqdirda o'qitishni individuallashtirish va differensiyalashtirishga, bolalarning qiziqishlari va o'qishdagi mustaqil faoliyatini rag'batlantirishga imkon beradi. Maktab pedagogik jarayonida kompyuter o'qituvchi, ishchi qurol, o'qitish obyekt, hamkorlik qiluvchi jamoa, bo'sh vaqt (o'yin) muhiti xizmatlarini bajarishi mumkin (G. K. Selefko).

Kompyuter o'qituvchi sifatida o'qituvchini va kitobni qisman yoki to'liq o'rnini bosadigan o'quv axboroti manbai;

multimediya va telekommunikatsiya imkoniyatlari bilan tamoman yangi sifat darajasidagi ko'rgazmali vosita;

individual va axborot muhiti;

trenajyor;

o'quvchilar bilimni tashhislash va nazorat qilishning vositasi vazifalarini bajaradi.

Ishchi qurol sifatida kompyuter matnlarni tayyorlash va ularni saqlash matn redaktori; grafikaviy redaktor va katta imkoniyatlarga ega hisoblash mashinasi vazifalarini bajaradi.

O'qitish obyekti sifatidagi xizmatini kompyuter-dasturlashtirish;

dasturli mahsulotlarni tayyorlash;

har turli axborot muhitlarini qo'llash moboynda bajaradi.

Hamkorlik qiluvchi jamoa — keng auditoriya bilan muloqot qilish, Internetda bog'lanish orqali vujudga keltiriladi. Bo'sh vaqt (o'yin) muhiti o'yin dasturlari, tarmoq bo'yicha kompyuterli o'yinlar, kompyuterli video yordamida tashkil qilinadi. Axborot muhiti zamonaviy darajadagi axborot bazalari, gipermatn va multimediya, imitatsion o'qitish, elektron kommunikatsiyalar, ekspert tizimlarini kiritadi.

Hozirgi kunda axborot savodxonligi qudratli vositasiga aylangan. Kompyuterli texnologiyada o'qituvchinning ishi, V. K. Selefko ta'kidlaganidek, quyidagilardan iborat:

a) butun sinf o'quv predmeti darajasida o'quv jarayonini tashkillashtirish (o'quv jarayoni grafigi, sirtqi tashhis, yakuniy nazorat);

b) sinf ichida o'quvchilarni faollashtirish va ularning ishini muvofiqlashtirish, ish o'rinlarini joylashtirish, yo'riqnoma berish, sinf ichkarisidagi tarmoqni boshqarish kabilar;

v) o'quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko'rsatish, bolalar bilan individual «insoniy» munosabat. Kompyuter yordamida individual o'qitishning ko'rish va eshitish obrazlarini foydalanuvchi mukammal variantiga erishiladi;

g) axborot muhiti tarkibiy qismlarini tayyorlash, ularning ma'lum bir o'quv fani mazmuni bilan bog'liqligidan iborat. Xususan, multimediya texnologiyalaridan foydalanib interfaol darslarni o'tkazish yaxshi samara beradi.

Odatdagi darsda o'qituvchi dars mavzusi mazmunini bayon qiladi, o'quvchilar esa tinglab, ko'rib, eslab qoladilar, kerakli yozuvlarni daftarlariga yozadilar. Ular har qanday ma'lumotni tayyor holda qabul qiladilar. Aksincha, interfaollik o'quvchilarga o'qitish jarayoniga faol kirishishga imkon beradi. Bolalar shunchaki tinglamaydilar. Ular savollar berib, o'z fikrlarini bildiradilar, o'quv materialining tushunarsiz qismlarini batafsilroq anglab olishga intiladilar, baxslashadilar, o'zlari to'g'risida xulosalarga va yechimlarga keladilar. Mediavositallardan foydalanib o'tilgan darsda har ikki tomon: o'qituvchi ham, o'quvchilar ham faollik ko'rsatadi, birgalashib, hamkorlikda darsda qo'yilgan maqsadlarga erishadilar. Biron bir o'quvchi darsdagi asosiy ishdan chekkada qolmaydi. Hamma o'qiydi, hamma bir — birini o'qitadi.

Axborot savodxonligiga ega o'qituvchi boshchiligi bilan amalga oshiriladigan an'anaviy o'qitish usullarining va yakka tartibdagi kompyuterli o'qitishning yaxshi tomonlarini birlashtiradi. Kompyuter o'qituvchining faol yordamchisiga aylanadi. Kompyuter slaydlarini foydalanish evaziga interfaol darslar bilishga taqdim etiladigan axborot mazmuni bilan birga, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Dars mavzusini bayon qilishda o'qituvchi illyustratsiya sifatida slaydlardagi axborotni kerak joylarda taqdim etib boradi. Rasmlar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar, formulalar ovoz jo'rligida, multiplikatsiya elementlari hamkorligida taqdim etilib, o'qituvchining izohlari bilan beriladi.

2.4. Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalar va ularning ahamiyati.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash, zamonaviy jahon sifat standartlari darajasida faoliyat yuritishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ommaviy

axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilishi barcha axborot tuzilmalari, matbaa korxonalari, bosma nashrlarni tarqatish korxonalari va boshqa turdosh korxonalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadigan qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish yo‘lidagi yana bir muhim qadam bo‘ldi. milliy ommaviy axborot vositalari.

Yangi O‘zbekistonda ta‘limni rivojlantirishda media vositalar va ularning ahamiyati strategik muhim instituti sifatida belgilanib, u ham butun jamiyat, ham har bir shaxsning individual rivojlanishining ko‘plab omillariga ta’sir ko‘rsatadi. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanish darajasi, erkinlik darajasi, mustaqilligi fuqarolik jamiyati holatini baholash imkonini beradi. Ommaviy axborot vositalarini fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos ko‘zgusi sifatida ko‘rish mumkin, lekin ayni paytda ochiq jamiyat uchun muhim vositadir. Binobarin, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shunday qilib, milliy davlatchilik uchun keyingi yigirma besh yil huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning sezilarli rivojlanishi bilan ajralib turdi. Ushbu rivojlanish jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri keyingi rivojlanish va ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan ehtiyoj bo‘lib qolmoqda. Ayni paytda mamlakatimiz va xorijiy ekspertlar tomonidan e’tirof etilganidek, O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarining erkin rivojlanishi uchun demokratik talab va standartlarga javob beradigan qonunchilik bazasi yaratilgan. Bu ularning jamiyat siyosiy va ma’naviy hayotida munosib o‘rin egallashini, axborot sohasi va yangi axborot texnologiyalarini jadal rivojlantirishni, jurnalistlar faoliyatini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish kafolatlarini, kadrlar tayyorlashni, ommaviy axborot vositalari bozorini rivojlantirishni ta’minlaydi. adolatli raqobat muhitini shakllantirish, aholi, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining axborotdan keng foydalanishini ta’minlash.

Shu bilan birga, mustaqil ommaviy axborot vositalarining davlat organlari, jamiyatning barcha boshqa qatlamlari, masalan, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat

tashkilotlari vakillari faoliyatini tanqidiy baholagan holda mustaqil pozitsiyasini egallashi uchun keng imkoniyatlar mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalar sohasining bosqichma-bosqich liberallasuvi kuzatilayotgani qayd etilmoqda. Bu jarayonni mustaqil bosma va elektron ommaviy axborot vositalari (birinchi navbatda, internet nashrlari) faoliyatida yaqqol kuzatish mumkin.

Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanishni rivojlantirishda masofali o'qitish alohida o'rin egallaydi. Masofadan turib o'qitish bu inson o'zining bilim darajasini oshirishni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda xoxlovchilar, maktabga borish imkoniyati bo'lmagan, nogironlar, keksa yoshdagilar kabilar uchun katta yo'l ochib beradi. Masofali o'qitishda biz hech kimni majbur qila olmaymiz. Bunda xoxlovchi o'z imkoniyatiga qarab muloqot qilish, qo'shimcha axborot to'plash va fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masofali o'qitish hozirgi kunning barcha talablariga javob beradi, ayniqsa, yo'l xarajatlarini hisobga olmaganda, kunduzgi ta'limni barcha sistemalarini tashkil qilish mablag'lariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ko'p yillar davomida sirtqi ta'lim asosan televedeniya, radio yoki matbuot orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Lekin bularni amalga oshirish ko'pgina faktorlar hisobida qiyinchilik bilan amalga oshirilib kelindi. Yangi axborot texnologiyalari asosida masofali o'qitishni tashkil qilishning bir qator usullari mavjud: interfaol teoevedeniya, telekommunikatsiya, CD-ROM texnologiyasi asosida, o'quv radio va televedeniya, video lentalar va hokazo. So'ngi yillarda to'rt xil turdagi masofali o'qitish keng tarqalmoqda:

1. Interfaol televedeniya (two-way TV);
2. Axborot almashinuviga asoslangan kompyuterli telekommunikatsiya setlari (regional va global, internet);
3. Multimediali, interfaol rejimli, videokonferentsiyalar o'tkazish imkoniga ega kompyuterli telekommunikatsiya setlari;
4. Birinchi va ikkinchi turlar kesimida. Masofadan o'qitish bu Internet tarmog'i orqali sizga qulay bo'lgan vaqtda o'qishdir.

Masofadan o‘qitishning tarkibiy belgilari: o‘qituvchi, o‘quvchi, kommunikatsiyadir.

Masofadan o‘qitish uslubiy materiallari quyidagilardir:

- Darslik
- Audio va video darsliklar
- Onlayn darslar (Internet sahifa)
- Elektron kutubxonalar
- Testlar
- Mul’timedia elektron darsliklar

Yangi O‘zbekistonda ta‘limni rivojlantirishda media vositalar masofadan o‘qitishda virtual kutubxonalar, sputnik orqali videokonferentsiyalar, darslar, internet yordamida muloqot va informatsiya olish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Bu esa o‘quvchi uchun maxsus o‘qish doirasini berdi. O‘quvchining fanni o‘zlashtirish tezligi va sifati keskin yaxshilandi. Dunyo amaliyotida ochiq va masofali o‘qitish hozirgi kunda asosan oltita modelga asoslangan:

1-model. Eksternat tipida o‘qitish. Bunda o‘quvchi maktab yoki oliy o‘quv yurtida o‘qitishning kunduzgi ta‘lim tizimidan foydalanmaydi. Bunda o‘quvchi ta‘lim muassasasiga qatnamasdan atestat yoki diplomga ega bo‘ladi.

2-model. Oliy o‘quv yurtida o‘qish (kunduzgi ta‘lim). Bu butun bir sistema bo‘lib, ta‘lim kunduzgi, sirtqi yoki masofali o‘qitish yangi axborot texnologiyalari asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu usuldan ko‘pgina xorijiy oliy o‘quv yurtlarida keng foydalanilmoqda.

3-model. Bir nechta oliy o‘quv yurtlarining o‘zaro hamkorligida o‘qitish. Bunda bir qator davlatlardagi oliy o‘quv yurtlari o‘zaro hamkorlikda sirtqi va masofali o‘qitish yo‘lga qo‘yilib talabalar xoxlagan davlatdagi oliy o‘quv yurti yoki kollejda o‘z davlatini yoki uyidan uzoqlashmasdan ta‘lim olish huquqiga ega bo‘ladi.

4-model. Avtonom ta‘lim berish muassasasi. Masofali o‘qitishga asoslangan multimediali kurslardan iborat maxsus ta‘lim berish muassasasi. Bunda shuningdek bilim darajasini baholash va atestatsiya qilish ham amalga oshiriladi. Bunday oliy

o‘quv yurtlaridan Londondagi ochiq universitetni, AQShdagi Milliy texnologiya universitetlarini misolida qarash mumkin.

5-model. Avtonom o‘qitish tizimi. Ushbu usulda o‘qitish asosan TV, radio aloqa vositalari orqali yoki qo‘shimcha chop etish vositalari orqali amalga oshiriladi. Bu usulda hozirda amerika-samoa televizion proekti faoliyat ko‘rsatmoqda.

6-model. Multimediali masofali o‘qitish. Bu asosan katta yoshdagi, to‘liq o‘rta ta’limga ega bo‘lmaganlar uchun qulay bo‘lib, ularni o‘rta maktabni tugatishlarida yordam ko‘rsatadi. Shunday qilib, axborot texnologiyalari yordamida masofali o‘qitishni joriy qilinishi ma’lum moddiy qiyinchiliklarga duch kelsada, o‘z samarasini berib kelmoqda.

Bugun O‘zbekiston jahon hamjamiyatiga integrallashtirish yo‘lida faol siyosat yuritib, iqtisodiy, ilm-fan, ta’lim sohasi va axborot almashish borasida dunyo xalqlari bilan o‘zaro hamkorlikni tabora mustahkamlamoqda. Bu borada yurtimizda bir qancha ishlar amalga oshirildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichida mamlakatimizda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta’lim tizimiga xorijiy o‘quv markazlarining yangi pedagogik texnologiyalarini ijobiy tajribalarini jalb etish va ulardan amalda foydalanish ta’lim sohasidagi muhim vazifalardan biridir.

Ma’lumki, fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fantexnikaning yangi soha va bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo‘lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikma va malakasini puxta o‘zlashtirgan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Ilmiy texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishning ko‘p sonli tarmoqlari bilan bir qatorda ta’lim sohasiga ham zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda. Chunki, pedagogning o‘quv jarayonini tashkilotchisi sifatida emas, balki bilimlarni egallash manbalaridan biriga aylanib qolayotganligi, ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanayotgan bosqichida axborotlarning keskin ortib borayotganligi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi ta’lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ta’lim islohotlari amalga oshirilayotgan hozirgi davrda har bir fanni o‘qitish mazmunini qayta tahlildan o‘tkazish va buni tubdan isloh qilish nuqtai nazardan yondashuv zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi va joriy etilishi jamiyat taraqqiyotining barcha yo‘nalishiga ulkan ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Har bir sohaga tegishli ko‘plab Web-portallar, internet saytlari, axborot tizimlarining yaratilishi va elektron axborot almashish, markazlashgan axborot resurslari, turli ko‘rinishdagi interaktiv xizmatlaridan foydalanishning keng y o‘lga qo‘yilishi esa keng qatlamdagi jamoatchilik orasida axborot tanqisligiga barham berilishiga, ma’lumot olish, qayta ishlov berish va uzatish imkoniyatining keskin oshuviga va boshqa ko‘pgina qulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonining tez takomillashishini va yangi texnologik muhitga moslashishini taqozo etadi, ya’ni o‘qituvchi pedagogik va axborot vositalaridan to‘liq foydalana bilishi va ishlata olishi talab etiladi. AKTning eng ommalashgan vositalaridan biri bu – televideniye hisoblanadi.

Ta’limiy teledasturlardan butun dunyoda keng foydalaniladi, bu esa masofaviy ta’limning yorqin ko‘rinishidir. Televideniye orqali tayyorlangan turli ta’limiy vositalarni keng foydalanuvchilar auditoriyasi uchun namoyish qilishning imkoni mavjud. Bunda o‘quvchi va talabalar o‘z bilimlarini maxsus imtihon va testlar yordamida tekshirishlari mumkin. Demak, ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, elektron darsliklar va multimedia

resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish kafolatlanadi.

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot fan, madaniyat, texnika va texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir. Fan va texnikaning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berishini taqozo etdi. Dars davomida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish dolzarb mavzuga aylandi. Ta'lim jarayoni markazida o'quvchining turishi va sub'yekt sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim bo'lib qoldi.

Agar dars jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mukammal rejalashtirilmasa, aniq qo'yilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. Natijada zaif, yetarli darajada tashkil etilmagan dars samarasiz yakunlanadi. O'quvchi zerikib keraksiz hissiyotlarga beriladi, uning bilimiga chanqoqligi pasayadi va hatto o'qishga bo'lgan qiziqishi sinadi. O'quvchi bu fanga salbiy munosabatda bo'la boshlaydi. Shuning uchun o'qituvchi interfaol metodlarni dars jarayoniga tatbiq qilar ekan, o'quvchilarda fanga va mavzuga qiziqishni uyg'ota olishni o'z rejasidan chetda qoldirmaslik kerak. Didaktik adabiyotlarda, o'quv munozaralari va bahslarni tashkil etishda interfaol usullardan samarali foydalanish tavsiya etila boshladi¹².

Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan to'g'ri foydalangan o'qituvchi o'qitish va o'rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas'ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o'qituvchi o'qitish jarayoni hamda o'qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to'liq bilishi lozim. Bundan maqsad shuki, o'qitish uslubi shunday yo'lga qo'yilsin-ki, bunda o'quvchilar o'qitilayotgan fanni to'liq o'zlashtira olishsin. O'qitish usullarining o'quvchilar talabiga mos kelishini aniqlashda o'qituvchi o'z dasturining quyidagi oltita asosiy tarkibiy qismini hisobga olishi zarur: rejalashtirish,

¹² Madarahimova F.R. Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida mediasavodxonlikni rivojlantirish. Dis ishi. Toshkent. 2024.

mavjud imkoniyat va sharoitlar, uslublar, faoliyatlar, teskari aloqa va nazoratdan iborat.

O‘qitishning zamonaviy metodlarining quyidagi xususiyatlari mavjud: Insonning muhim hayotiy ehtiyoji bo‘lgan muloqot – o‘qitish jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llaniladi. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarga o‘z kuchi, bilimi, iqtidorini namoyon etishga teng imkoniyatlar beriladi. O‘quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashida ijtimoiy-psixologik jihatdan qulay muhit yaratilib, muloqotda bosqichma-bosqich va samarali ishtirok etishga zamin tayyorlanadi.

O‘quvchilar muloqotda faol ishtirok etishlari uchun faqat eshitishlari shart emas, balki eshitganlarini tahlil qilish, fikr yuritish, fikrlarning asosli va tushunarli bo‘lishiga erishish lozimligini anglaydilar. O‘quvchilar bilan hamkorlikda, kichik guruhlarda ishlashi orqali qo‘yilgan vazifalarni talab darajasida bajarish, olingan natijalarni tahlil qilish, ularning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish, taqdim etish va boshqa guruhlar tomonidan e’tirof etishlariga erishishlari lozim.

Yangi O‘zbekistonda ta‘limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanib o‘quv munozaralari va bahslarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

I. O‘quv munozaralari va bahslarni keltirib chiqaradigan o‘quv topshiriqlari bilan tanishish.

II. O‘quv topshiriqlaridagi muammolarni hal etish yo‘llarini belgilash;

III. Axborot manbai yoki darsliklardagi o‘quv materialini o‘rganish, tahlil qilish va undagi asosiy g‘oyani ajratish;

IV. Muammolarni hal etish bo‘yicha javoblarni tayyorlash. Bunda javoblarni ko‘rgazmali vositalar yordamida dalillash, javoblarning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zaro nazoratni amalga oshirish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishni oshirish o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin ekan. Yuqorida aniqlangan me‘zonlar asosida mos keladigan o‘qitish va o‘rgatish dasturini ishlab chiqish uchun o‘qituvchi quyidagilarga qodir bo‘lishi lozim:

– haqiqatda mavjud o‘rgatish malakalariga ega bo‘lish;

– tinglovchilarning bilim darajasini baholash uchun o‘rnatilgan me‘yorlarni aniqlash mezonini tushuntirib berish;

– namunaviy mashg‘ulotlarni o‘qitishning maqsadlari qilib olish;

– tinglovchilarning o‘quv materiallarni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun rejalashtirilgan loyiha va o‘qitish uslublarining mosligini aniqlash.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha maxsus tuzilgan dastur joriy qilingandan keyin o‘qituvchi o‘quv faoliyatining mazmunini yoki uslublarni tekshirish, o‘quvchilar bilan teskari aloqa o‘rnatishga qodir bo‘lishi lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘qitishga oid ko‘rsatmalar:

– shaxsiy o‘qitish uslubiga tanqidiy nuqtai nazardan qaramaslik.

– ba’zi bir o‘qituvchilar o‘z ustilarida ishlamay, eskicha uslubda o‘qitishda davom etishadi.

– nima uchun o‘qituvchilar o‘z o‘qitish uslublarini o‘zgartirishlari lozim?

– ular o‘z tinglovchilariga ega va bu tinglovchilar ularni hurmat qiladi.

– sinfda yoki boshqa bir o‘qitish bilan bog‘liq muhitda, haqiqatda, qanday hodisalar ro‘y berayotganligidan xabardor bo‘lish va o‘qitish jarayonining to‘g‘ri olib borilayotganligini tizimli ravishda aniqlab borish maqsadida o‘qituvchilar o‘z o‘qitish uslublarining talabga mos kelish yoki kelmasligini tekshirib borishlari ular uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonda ta‘limni rivojlantirishda media vositalar demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishining yuqori bosqichlariga ko‘tarish, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashiga yo‘naltirilgan ezgu maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijalarga ega bo‘lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o‘rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta‘limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga

bog'liqdir. "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz", deb ta'kidlab o'tgan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalar – ta'lim maqsadiga erishish muassasaining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim muassasaini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishi yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim muassasaini yuqori darajada boshqarishni ifodalaydi. Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalarni singdirish muammosi – o'quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishini ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiya muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat muassasaining mazmunidir.

Tayanch iboralar: globallasuv, mediamahsulot, media makon, mobil aloqa, vosita, Yangi O'zbekiston, ommaviy axborot vositalari, matn, tipologiya, fotografiya, raqamli texnologiyala, tarbiya, ta'lim, mantiqiy fikrlash, to'liqlik, texnologiya, erkinlik.

Nazorat savollari:

1. Media madaniyat axborot asri hodisasi sifatida.
2. Media madaniyatining ko'p funksiyaliligi.
3. Davlatning ommaviy axborot vositalari siyosati va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining rivojlanishi.
4. O'zbekiston Respublikasining OAV siyosati va OAV ijodi sohasidagi asosiy qonunlari.
5. Media madaniyati hukumat va jamiyat o'rtasidagi muloqotning katalizatori sifatida.
6. Global media muhiti va uning jamiyatga ta'siri.
7. Audiovizual kommunikatsiyalar va ularning jamoatchilik ongiga ta'siri.
8. Zamonaviy ekran madaniyatida kinoning o'rni.
9. Raqamli fotografiya ekran madaniyatidagi innovatsiya sifatida.

III. BOB. JAHON MEDIA VA AXBOROT MAKONIDA RAQOBAT MUHITI.

3.1. Dunyo aholisining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalalari.

Bugungi kunda bosma ommaviy axborot vositalarini o'rab turgan muhitda ro'y berayotgan global o'zgarishlar ularning xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu, birinchi navbatda, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, texnologik qatlamlaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Ommaviy axborot vositalari tizimining jamiyat hayotining barcha sohalari bilan o'zaro ta'sirining integral natijasi sifatida oshkoralikni belgilab, publitsistikani rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy bosma ommaviy axborot vositalarini hisobga olish kerak. Ularni ochib berishda matbuot faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ular orasida ommaviy axborot makonining transformatsiyasi bor. Tabiat va jamiyatdagi har bir evolyutsion jarayon insoniyat tarixining muhim qismi sifatida insoniyatni o'zi haqidagi tarixiy haqiqatni oydinlashtirishga yaqinlashtiradi. Shu ma'noda u yerning yaratilish tarixi, hayvonot olami va o'simlik dunyosining o'zaro bog'liqligidan dunyoning yaratilishi bilan dunyoning yaratilishi bilan bog'liq muhim yangilikni tadqiq qiladi.

Dunyo aholisining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalalari global jarayonda jurnalistika ommaviy demokratik muloqotning eng yaxshi kafolati hisoblanadi. Muloqotning bu turi inson huquqlarini amalga oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Yangi ijtimoiy mehnat taqsimoti axborot munosabatlarining yangi subyektlarini vujudga keltirdi, turli ijtimoiy subyektlarning kommunikativ funksiyalari tarkibini qayta tashkil etdi va kengaytirdi, ularni amalga oshirishga ommaviy axborot vositalarini jalb qildi. Bu, birinchi navbatda, sof iqtisodiy faoliyatning kommunikativ funksiyalariga taalluqlidir. Ammo siyosiy sohada, madaniyat va fan sohasidagi sub'ektlararo o'zaro munosabatlar ham sezilarli darajada o'zgardi. Internet ushbu o'zaro ta'sirning yangi texnologik imkoniyatlarini qo'shdi.

Natijada, rivojlanayotgan bozor ehtiyojlari bilan kuchaygan axborot makonida segmentatsiya yuzaga keldi: uning ishtirokchilari ishlab chiqarish va tijorat faoliyati samaradorligini oshirish uchun o'zlarining tovar va xizmatlarini sotish uchun maqsadli auditoriyaga muhtoj edilar. Bularning barchasi birgalikda ommaviy axborot tizimidagi siljishlarni oldindan belgilab berdi: o'zgarishlar ularning tipologik tuzilishiga ta'sir qildi. Ommaviy axborot vositalari turlarini raqobat muhitida muloqotning o'ziga xos sharoitlariga moslashtirish boshlandi. Tipologik xususiyatlarni qisman o'zgartirish yordamida katta tijoriy muvaffaqiyatga erishish imkoniyati yaratildi. Ushbu jarayonni media turini formatlash sifatida aniqlash mumkin.

XX-asrning 90-yillarida istiqbolga erishgan davlatlar mustaqil taraqqiyot yo'lini yaratish bilan bir vaqtda tobora avj nuqtasiga ko'tarilayotgan globallashuv jarayonlari talablariga moslashishga majbur edilar. Globallashuv hodisasiga shu qadar ko'p ta'rif berilganki, ular qanchalik xilma-xil bo'lmasin, barchasida bir katta haqiqat – globallashuv – umumlashuv, yaxlitlashuv, o'zaro aloqadorlik va hamkorlik ekanligi u yoki bu ko'rinishda, shakl-shamoyilda ta'kidlanadi, takrorlanadi. Yana bir haqiqat – globallashuv, keng ma'noda olib qaralganda, ko'proq axborot globallashuvida o'z ifodasini topmoqda.

Bunday holat jahon media makonida axborot va umuman ommaviy axborot vositalari tushunchasini o'zgartirib yubordi. Vujudga kelgan “yangi jahon axborot tartibi” har qanday davlat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko'ndalang qo'ydi. Qolaversa, ushbu holatga moslashish mustaqil davlatning xalqaro imiji shakllanishida hal etuvchi ahamiyat kasb eta boshladi.

Axborot globallashayotgan hozirgi zamonda dunyo mamlakatlaridagi matbuot va ommaviy axborot vositalari faoliyati bir tizim sifatida tasavvur qilib bo'lmas, aql bovar qilmas oqimga aylanib bormoqda. Inson aql-idrokining, sivilizatsiyasining bemisl ixtirolaridan bo'lgan mazkur oqim “jahon jurnalistikasi”, “xalqaro jurnalistika” deb atalmoqda. Insoniyat “globallashuv” deb atalgan yangicha hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan va bu aloqalar jadal sur'atlarda kengayib, chuqurlashib borayotgan yangi taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Buning natijasida “globallashuv” so'zi iqtisodiygina emas,

ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa qariyb barcha sohalardagi umuminsoniy jarayonlarni qamrab oluvchi tushunchaga aylanib ulgurdi.

Axborot globallashuvi dunyo mamlakatlaridagi shart-sharoit va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi umumiylikni, o'xshashliklarni keltirib chiqardi. Buning oqibati o'laroq:

✓ birinchidan, dunyoda oliy darajadagi ilg'or jamiyat barpo etishning birdan-bir oqilona yo'li demokratik-huquqiy davlat qurish ekanligini e'tirof etish kuchaydi;

✓ ikkinchidan, demokratik-huquqiy jamiyatning bosh belgisi va shartlaridan biri – ommaviy axborot vositalarining erkinligi ekanligini inkor etish mumkin bo'lmay qoldi;

✓ uchinchidan, biror taraqqiy etgan mamlakat matbuotini erkinlashtirish sohasida erishilgan ilg'or tajribalarni uzoq-yaqin davlatlarga tarqatish imkoniyatlari ko'paydi; to'rtinchidan, xalqaro jurnalistika maktablarini qamrab olishga qodir ko'plab muhim xalqaro hujjatlar yaratildi va hayotga tatbiq etildi;

✓ beshinchidan, dunyo mamlakatlaridagi matbuot erkinligi ahvolini xalqaro miqyoslarda kuzatish, ular haqida fikr-mulohaza yuritish, bahosini berish va shu asosda muayyan mamlakatdagi ahvol haqida dunyo jamoatchiligi fikrini shakllantirish odati birmuncha ommalashdi.

Sanab o'tilgan holatlar, tabiiyki, dunyoni yaxlit axborot maydoniga aylantirib ulgurmoqda. E'tirof etish kerak, endilikda davlatlarning qudrati, salohiyati nechog'li ko'p axborotga egaligi bilan o'lchanmoqda. Eng muhimi, axborotga egalik qilish tevaragida raqobat har qachongidan kuchayib bormoqda. Mazkur jarayonning o'zi xalqaro jurnalistikaning qaror topishini, rivojlanishini, pirovard natijada butunjahon jurnalistikasi xususiyatlarining umumiylashuvini jadallashtirmoqda. Filologiya fanlari doktori X.Do'stmuhamedovning fikriga ko'ra, bu hol milliy jurnalistikani jahon jurnalistikasi nuqtai nazaridan, ayni chog'da jahon jurnalistikasini milliy jurnalistika nuqtai nazaridan o'rganish, tahlil qilish zaruratini kun tartibiga qo'yimoqda.

Darhaqiqat, demokratiya va inson huquqlari, urush va tinchlik, giyohvandlik, terrorizm, ekologik muammolar, shuningdek Yevropa davlatlarining dunyo hamjamiyatiga

integratsiyasi masalalarini jahondagi deyarli barcha yirik OAV sahifalarida ko‘rish, kuzatish mumkin.

Dunyo mamlakatlaridagi milliy jurnalistika maktablariga xos bo‘lgan umumiy o‘xshashliklar haqida so‘z yuritganda, ayni vaqtda har bir davlat jurnalistikasida muayyan tafovutlar ham mavjudligini e‘tibordan soqit qilmaslik kerak. Qayd etish joiz, jurnalistika sohasi jadal o‘zgarib borayotgan hamda OAV murakkab jarayonlarni boshidan kechirayotgan mamlakatlarning asosiy guruhini sobiq sotsialistik davlatlar tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar davriy matbuot, radio va televideniening faoliyat yo‘nalishini belgilab bermoqda. Shu sababdan yosh mustaqil mamlakatlardagi rivojlanish tendensiyalari milliy jurnalistikadagi tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda¹³.

Aslida ham madaniy kelib chiqishi bir-biriga o‘xshash – “G‘arb”ga mansubligidan qat’i nazar, Yevropa va Amerika mamlakatlari jurnalistikasi bir-biridan ko‘p jihatlari bilan farq qiladi. Umuman, Yevropa qit’asi jurnalistikasida muallif nuqtai nazarini ifodalovchi “fikr”ni berish (ya’ni, “Fikrlar jurnalistikasi”) ustun mavqeni egallagan bo‘lsa, Amerika va Britaniya jurnalistikasida aniq dalil va faktlarga ko‘proq tayanilgan, boshqacha aytganda, matbuot vakillari tomonidan ijtimoiy ahamiyatli yangilik sifatida baholanib tarqatilgan xabarlar tobora ko‘proq qadrlana boshlagan.

AQSh va Buyuk Britaniyadagi hayot va turmush tarzining tezkorligi, shiddati fakt va dalillarni qanday bo‘lmasin, zudlik bilan qo‘lga kiritishni zarur shart darajasiga ko‘tardi. Pirovardida axborot materiallarini yozishning o‘ziga xos “to‘nkarilgan ehrom” usuli vujudga keldi va bu odat aksariyat gazetalarda reportyorlar nomini anonim saqlash an’anasini shakllantirdi. O‘zbekiston jurnalistikasi, ma’lumki, rus jurnalistikasi ta’sirida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Shu bilan birga biz uchun Yevropa qit’asi jurnalistikasining taraqqiyot modeli ham begona emas. XX asrda xalqaro jurnalistika, asosan, “ikki qutb” o‘rtasidagi o‘ziga xos qurol vazifasini o‘tadi. Jurnalistikaning g‘oyaviy, tarafkash, qizg‘in siyosiy

¹³ Axmetova L.C. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost: teoriya, metodologiya, praktika. Uchebnoe posobie. KazGU. 2016 g.

xarakteri yigirmanchi yuz yillikning 90-yillariga qadar saqlanib turdi. SSSRning parchalanishi hamda “sovuq urush” munosabatlarining barham topishi xalqaro jurnalistikaning ham mohiyatini butunlay o‘zgartirib yubordi.

Ammo, nazdimizda, yana bir muammodan ko‘z yumib bo‘lmaydi. “Rivojlanmagan davlatlarning etakchi siyosatchilari, – deb yozadi “YUNESKONing matbuot erkinligi ishlari bo‘yicha maslahatchilar guruhi” raisi Mia Dornert, – ko‘pincha xalqaro axborot oqimi ichida notenglik mavjudligidan, unda badavlat g‘arb mamlakatlari etakchilik qilishidan nolishadi. Ularning fikricha, teng huquqlilik ta‘minlanmagan erkin axborot oqimida ishtirok etishga murosa qilib bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib, YUNESKO axborot borasida “badavlat” va “nochor” davlatlar o‘rtasidagi jarlikni yo‘qotish masalasi bilan shug‘ullanmog‘i kerak degan talablarni qo‘yishmoqda”.

1978 -yilda ilk bor “Yangi jahon axborot tartibi” tushunchasi huquqiy jihatdan xalqaro miqyosda e‘tirof etilgan. Hujjat BMT Bosh Assambleyasi va YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan rasman qabul qilingan. YUNESKONing ommaviy axborot kommunikatsiyalarining xalqlar o‘rtasidagi tinchlik va o‘zaro tushunishni mustahkamlashga qo‘shadigan hissasi bilan bog‘liq asosiy prinsiplar haqida qabul qilingan deklaratsiyasida xususan, shunday deyiladi: “rivojlanayotgan mamlakatlar uchun va ulardan chiqayotgan xabarlar tarqatilishida tengsizlikka yo‘l qo‘yilmasligi kerak. Shu o‘rinda O‘zbekistondan tarqatilayotgan xabarlarga keng yo‘l ochilishini ta‘minlamoq zarur”. 1980-yilda YUNESKO tomonidan xalqaro maydonda yangiliklar hamda turli madaniy mahsulotlar oqimini nazorat qilish (yoki litsenziyalash) bo‘yicha alohida rezolyusiya qabul qilingan. Shu yili YUNESKO tashabbusi bilan “Kommunikatsiyalarni rivojlantirish xalqaro dasturi” nomini olgan yangi tashkilot faoliyat yurita boshladi.

Nufuzli xalqaro tashkilot tomonidan amalga kiritilayotgan bu kabi yangiliklar bir qator rivojlangan davlatlarga ma‘qul kelmadi. Ushbu mamlakatlar vakillarining fikriga ko‘ra, go‘yoki, YuNESKO joriy etayotgan tizim bu boradagi faoliyat turlarining nazorat etilishi, G‘arb matbuotining demokratik an‘analariga zid va umuman dunyoda axborotning erkin tarqatilishiga halaqit berar ekan. Sir emaski, ayni davrda Internetdan faqat o‘z manfaatlari

yo'lida foydalanish G'arb mamlakatlarining asosiy maqsadlaridan biriga aylanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda kiber xavfsizlikni mustahkamlash masalasiga, shuningdek, Internetdan harbiy-psixologik ta'sir o'tkazish maqsadida foydalanishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Ba'zi bir davlatlar Internetni o'z maqsad-rejalariga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysundirishni ma'qul ko'rsalar, ayrimlari uni cheklash, chegaralash orqali himoyalash chorasini ishlab chiqmoqdalar.

Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Chunonchi, Eron Islom Respublikasida mamlakatni tashqi Internetdan uzib, mutlaqo milliy ichki "o'rgimchak to'ri"ni yaratish ustida ish olib borilmoqda. Xitoy esa xorijiy ijtimoiy tarmoqlarni batamom yopib tashlash hamda matnni filtrlash borasida texnik choralarni ko'rmoqda.

AQSh ma'muriyati 2012-yilda dunyoda birinchi bo'lib Kibermakon uchun xalqaro strategiyani e'lon qildi. Ushbu hujjat asosida kiber texnologiyalardan samarali foydalanish orqali mamlakat ichkarisida xayrixoh media muhitini yaratish ko'zda tutilmoqda. Ta'kidlash joizki, mutaxassislar buni AQSh tomonidan global miqyosda odamlarning ongiga bevosita ta'sir ko'rsatishga bo'lgan urinish sifatida baholamoqdalar. "Rossiyskaya gazeta"da "AQSh davlat departamenti Rossiya bilan yangi urush boshlash ishlarini yakunlamoqda, – degan sensatsion xabar bosildi. – Bu urushda asosiy bosqinchilik quroli siftida kompyuter, jang maydoni uchun esa Internet tanlandi". Belgilangan rejaga ko'ra, rus tilida faoliyat yuritadigan barcha saytlar, blog va chatlar qattiq taz'iyiq va bosim ostida qoldiriladi. Mazkur vazifa yuklangan xizmat ("Tashqi raqamli aloqalar jamoasi" deb ataladi – B.A.) mutasaddilaridan biri tarqatgan ma'lumotga ko'ra, Internet to'lqinlaridagi bunday axborot jangi arab, fors va urdu tillarida ham olib boriladi.

Axborot jangida tug'ilayotgan jiddiy muammolardan biri hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan davlatlarning rivojlanganlik darajasiga borib taqalmoqda. Deylik, qudratli davlat hali rivojlanmagan yosh mustaqil davlat bilan hamkorlik borasida ahdlashuvga kelishdi. Va qudratli davlat yosh mustaqil hamkor davlatni istalgan tarzda nazorat qilishdan toymaydi, hali bunday imkoniyati bo'lmagan davlat esa passiv holatda qolaveradi. Xo'sh, bu holda hamkorlikdagi teng huquqlilik saqlanishi mumkinmi? "AQShda yaratilgan o'ta qudratli

AKT-imkoniyati shu kabi xavotirni keltirib chiqaradi, – deb yozadi Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vazirligining maxsus xodimi, professor A.Krutskiy. – Hamkor tomonlardan biri ikkinchi tomon maqsadlarini nazorat ostiga olish imkoni bo‘lsa, ikkinchi tomon bunday imkoniyatdan mahrum bo‘lsa, bunday hamkorlikni teng huquqli deya olamizmi?”. Bir so‘z bilan aytganda, kibermakondagi AQShning xalqaro strategiyasi tobora mukammallashmoqda. Bu bahonada, go‘yoki so‘z va uyushish erkinligini ta’minlash uchun “ishonchli, xavfsiz hamda himoyalangan platformalar” yaratish bo‘yicha AQSh zimmasiga majburiyat olishini ko‘pchilik, ayniqsa, AQSh gegemonligiga qarshi chiqadigan davlatlar mutaxassisleri shubha ostiga oladilar.

Azal-azaldan dunyo sahnida bir-birlariga turli ko‘rinishda – goh oshkora, goh pinhona qarama-qarshi kayfiyatida bo‘lib kelgan davlatlar Internet va axborot mo‘jizasi bilan mutlaqo yangi jang maydonlarini bunyod etmoqdalar. Eng achinarlisi, ezgulik uchun xizmat qiladigan jurnalistikani, ommaviy axborot vositalarini o‘sha jang maydonlarining jangchilariga aylantirmoqdalar. Ko‘plab davlatlar axborot urushiga hozirlikni boshlab yuborishgan. Shu maqsadda behisob mablag‘lar safarbar etilmoqda. Axborot urushi uchun an’anaviy chegaralarni buzib o‘tish shart emas, qolaversa, bu urushda odamlarga qirg‘in keltirilmaydi, balki telekommunikatsiya, OAV tizimlari “hamkorligi”da keng ommaning dunyoqarashlariga zug‘um o‘tkaziladi. E’tiborli tomoni shundaki, bu singari tizimlarni qudratli davlatlardan tashqari hech bir davlat yoki markazlar cheklash yoki nazorat qilish imkoniga ega bo‘lmaydi. “Aslida, – deb yozadi o‘zbek publitsisti J.Meliqulov, – buning ortida G‘arb qadriyatlari va qoliplariga moslangan g‘oyalarni butun dunyoga joriy etish va shu orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirish istagi yotadi. Maqsad esa ongni eksport qilish”.

Jahon media makoni – xalqaro jurnalistikaning hozirgi tarixiy palladagi insoniyat, jumladan, davlatlar, xalqlar, millatlar taqdiridagi o‘rni, ahamiyati shu qadar ulkanki, bir so‘z bilan aytganda, “Shuni alohida ta’kidlash joizki, butun dunyo yagona axborot makoniga aylangan bugungi kunda insonni kamolotga chorlaydigan ezgu ta’limotlar bilan yovuz g‘oyalar o‘rtasidagi kurash tobora keskinlashmoqda”.

Globalashuv va hozirgi turmush jarayonining keskin sur'ati, ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi axborot texnologiyalari hayotimizni, umuman jamiyatni jadal ravishda o'zgartirmoqda. Bunday sharoitda kishilik jamiyatining jurnalistlar oldiga qo'yadigan talablari ham o'zgarmoqda. Darhaqiqat, bugungi rivojlangan davrda barcha sohalar singari OAV sohasida ham tub burilishlar yasaldi. Yadro poligonlaridan ham qudratli bo'lgan axboriy xurujlarga, yangi tamaddun – globalashuv jarayonining “xurmacha qiliq”lariga dosh berish uchun esa professional jangchilar – jurnalistlar tarbiyalanmoqliklari darkor. Global axboriy makonda esa jurnalistlar ham siyosatchi, ham davlat arbobi, ham millat himoyachisi sifatida faoliyat yuritmoq'i joiz.

Matbuotda, mutaxassislar tomonidan e'lon qilinayotgan suhbatlar, tadqiqot va tahlillarda takror-takror ta'kidlanayotganidek, “Bugun axborot texnologiyalari orqali boshqa bir mamlakatdagi haqqoniy vaziyatni ongli ravishda buzib ko'rsatish, u erdagi siyosiy rahbariyat va fuqarolar kayfiyatiga maqsadli ta'sir qilish amaliyoti borgan sari keng ko'lam kasb etmoqda. Bu esa jahon hamjamiyati uchun katta muammo bo'lib qolayotir”.

3.2. Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan bloger va vaynerlarda kasbiy etiket qoidalarining ahamiyati.

Bugungi kunda blogerlar, ijtimoiy tarmoq faollari va inflyuenserlar faoliyati jamiyatimiz axborot maydonida katta ahamiyatga ega. Ular axborot tarqatish orqali yuz minglab, millionlab kuzatuvchilarga ma'lumot yetkazadilar va u yoki bu holat to'g'risida jamoatchilik fikrining shakllanishiga hissa qo'shadilar. Pirovardida, jamiyatda ochiqlik, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda blogerlikning va xalq jurnalistikasining o'rni muhim.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Bloger kim? Blog nima? Ijtimoiy tarmoqdagi sahifalar ham blog o'rniga o'tadimi? Ta'kidlash joiz, blog yuritishni tartibga solish bo'yicha alohida qonun hujjati mavjud emas. Faqatgina “Axborotlashtirish to'g'risida”gi qonunda bloger tushunchasi yoritilgan, ayrim normalar keltirilgan. Bloger Internetda o'z veb-sayti, veb-sayt

sahifasiga hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborotni joylashtiruvchi, shu jumladan foydalanuvchilar tomonidan ushbu axborotni muhokama qilish uchun joylashtiruvchi jismoniy shaxs hisoblanadi¹⁴.

Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisiga tegishli bo'lgan, ma'lum bir mavzu doirasida yangilik yoki sharh chop etiladigan, shaxsiy onlayn kundalik sifatida foydalaniladigan har bir sahifa blog o'rniga o'tadi. Misol uchun, Telegram messengerida ochilgan kanal, guruh yoki Feysbuk, Instagram, Odnoklassniki, Ttwitter, Vkontakte va h.k. ijtimoiy tarmoqlarida ochilgan shaxsiy sahifa, guruhlar ham blog hisoblanadi. Chunki u yerga joylashtirilgan ma'lumotlarni ko'pchilik ko'radi, eshitadi. Demak, ushbu sahifalar axborot tarqatuvchi manba hisoblanadi. Bunday sahifani yurituvchi odam blog egasi deyiladi. Unga nisbatan qonunchilikda ma'lum huquqlar va mas'uliyatlar belgilangan. Har bir fuqaro internet tarmog'iga ma'lumot joylash, ulashish yo tarqatishda mazkur huquq va majburiyatlarni yaxshilab bilib olgani foydalidir.

So'z erkinligi Konstitutsiya darajasida belgilangan bo'lib, barcha fuqarolar kabi blogerlar ham axborotlarni qidirishi va tarqatishi mumkin. Ya'ni ular uchun alohida huquq yoki cheklovlar yo'q. Biroq axborot tarqatishning o'ziga yarasha talablari hamda qonunchilikda belgilangan qoidalari ham mavjud. Bloger o'z veb-sayti va (yoki) veb-sayt sahifasida yoxud boshqa axborot resursidan qonunda taqiqlangan ma'lumotlarni tarqatish maqsadlarida foydalanishi mumkin emas. O'zbekistonning mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat etish, urush, zo'ravonlik, terrorizmni, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g'oyalarini targ'ib qilish, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'yuvchi va boshqa axborotni tarqatish mumkin emas.

Umuman olganda, tuhmat va haqorat uchun javobgarlik bizning internet texnologiyalari asrimizga kelib yoki faqat O'zbekiston hududida joriy qilingan tartib emas.

¹⁴ Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. 2010.

Ijtimoiy tarmoqlar paydo bo'lishidan avval ham tuhmat yoki haqorat uchun javobgarlik mavjud bo'lgan. Misol uchun, XX-asr mobaynida amalda bo'lgan milliy qonunchiligimizda o'zganing og'zaki yoki yozma ravishda haqorat qilish, tuhmat, ya'ni qasddan yolg'on, boshqa shaxsning sha'nini kamsituvchi, uydirmalarni tarqatganlik uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgarlik mavjud bo'lgan.

Xorij tajribasiga murojaat qilsak, Germaniyada "Ijtimoiy tarmoqlarda huquqni qo'llashni takomillashtirish to'g'risida"gi Qonun ("Facebook to'g'risida"gi Qonun deb ham ataladi) amal qiladi. Qonunda konstitutsiyaviy tuzumga, millatlar o'rtasidagi ahillikka zid bo'lgan, natsizm g'oyalarini targ'ib etuvchi, shaxs, uning sha'ni, qadr-qimmatini kamsituvchi, shaxsiy hayot daxlsizligiga daxl qiluvchi, bolalar pornografiyasi bilan bog'liq ma'lumotlarni targ'ib qilish, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish taqiqlanadi. Shveysariyada ham tuhmat va haqorat (Defamation) uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Albatta, xatodan hech kim kafolatlanmagan. Axborotlar va ularga sabab bo'lgan vaziyatlar o'zgarishi, yangi tafsilotlar oydinlashishi mumkin. Shunday sharoitda xatoni tuzatish, to'g'ri ma'lumotni berish, hatto o'z-o'ziga raddiya berish ham mumkin. Xato tuzatilsa va qilingan xato ustidan hech kim da'vo qilmasa, blogerga javobgarlik kelib chiqmaydi.

Shu o'rinda blogger va vaynerlarning huquqlari bo'lganidek ularni majburiyatlari haqida to'xtalsak. "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi jurnalist tekshiruvini deb ataladi. Unga ko'ra, jurnalist axborot to'plash va tekshiruv o'tkazish huquqiga ega. Milliy qonunchiligimizda blogerlar ham xuddi jurnalistlar kabi tekshiruv olib bora olishini yoki blogerlar jurnalistlarga oid huquqlardan foydalana olishini nazarda tutuvchi qoida mavjud emas. Shunday bo'lsa-da, Konstitutsiyamizning 29-moddasiga muvofiq, har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Demak, bloger ham o'zi istagan axborotni izlashi, olishi, chuqur o'rganishi va o'rganish natijalarini ommaga e'lon qilishi mumkin.

Qonunchilikka ko'ra, tarqatilgan har qanday noqonuniy axborot/ma'lumotlar, da'vat, haqorat va tuhmat yuzasidan tegishli javobgarlik belgilangan. Bunda noqonuniy ma'lumotlar blogerlar tomonidan tarqatilganida, ular boshqa barcha uchun belgilangan

umumiy normalar asosida javobgarlikka tortilishi mumkinligini bilishlari lozim. Javobgarlik miqdori BHMning 50 baravari (15 mln so‘m)dan 400 baravarigacha (120 mln so‘mgacha) yoki 3 yilgacha ozodlikni cheklash bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga faol kirib kelishi natijasida fuqarolar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini erkin bildirish imkoniyati kengaydi. Ayni paytda ushbu mulohazalarni ko‘pchilik ko‘rishini ham hisobga olish kerak. Shunga ko‘ra, shaxsiy fikr ham ko‘pchilik ko‘radigan manbalarda yozilganida, qonunchilik talablariga muvofiq, shaxsning sha‘ni va qadr-qimmatiga daxl qilmaydigan, tuhmat va yolg‘ondan xoli tarzda ifodalanishi lozim. Qonunchilik talablarida shaxs qadr-qimmatini kamsitilishiga yoki uning obro‘sizlantirilishiga olib keladigan, jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg‘on axborotni tarqatish, shu jumladan OAVda, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internetda tarqatish mumkin emasligi belgilangan. Axborot tarqatilayotganda axborot tarqatuvchiga uning haqqoniyligini tekshirib ko‘rish majburiyati qonun bilan yuklangan. Bu butun dunyoda tan olingan standartdir.

Ko‘p hollarda ijtimoiy tarmoqlarda anonim profillar orqali noqonuniy axborot tarqatilishi kuzatiladi. Bunda profil egalari topish imkoni bo‘lmasligi mumkin. Lekin ushbu axborotni tarqatgan yoki ulashgan (“repost”) egasi aniq sahifalar va profillar egalari yoki guruh ma‘murlari javobgarlikka tortilishi mumkin. Shuning uchun, shaxsi noaniq, anonim yoki shubhali profillar orqali tarqatilayotgan axborotlarga blogerlar, sahifa (guruh)lar egalari hamda ma‘murlari alohida ahamiyat berishlari zarur, chunki axborot mazmuni bo‘yicha mas‘uliyat ularga ham qonun bilan yuklangan.

Albatta, yuqoridagilardan o‘qib umuman fikr bildirishdan cho‘chish yoki hech bir ma‘lumotni ulashmay o‘tirish kerak degan xulosa chiqmasligi lozim. Shunchaki, bloglarni ulashayotganda uning mazmun-mohiyati to‘g‘riligi va haqqoniyligini tekshirib ko‘rish, ma‘lumotlar ishonchli manbalar bilan tasdiqlanmagan hollarda postni tarqatmaslik lozim.

Ba‘zan tekshirilmagan ma‘lumot tarqatib, post yakunida “bu bo‘yicha tegishli shaxsning munosabatini kutamiz” degan mazmundagi jumlaning qistirib o‘tish hollari uchraydi. Tarqatilgan ma‘lumot, axborotga raddiya berilishini talab etish jismoniy yoki

yuridik shaxsning majburiyati emas, balki huquqi hisoblanadi. Shuning uchun tashkilot yoki qaysidir shaxs raddiya bermasdan turib, to‘g‘ridan to‘g‘ri sud yoki boshqa huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilib, axborot tarqatuvchining javobgarlik masalasini ko‘rib chiqishni so‘rashi mumkin. Fuqarolik kodeksiga ko‘ra, fuqaro o‘zining sha’ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro‘sigacha putur yetkazuvchi ma’lumotlar yuzasidan basharti bunday ma’lumotlarni tarqatgan shaxs ularning haqiqatga to‘g‘ri kelishini isbotlay o‘lmasa, raddiya berishni hamda ularni tarqatish oqibatida yetkazilgan zararlar va ma’naviy ziyonning o‘rnini qoplashni sud orqali talab qilishga ham haqli. Ya’ni, ma’lumotning to‘g‘riligini isbotlash majburiyati axborot tarqatuvchi zimmasiga yuklangan.

Shuningdek bloger va vaynerlar bir jihat Konstitutsiyamizning 26-moddasiga ko‘ra, “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sud qonuniy tartibda, oshkora ko‘rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi”. Aybsizlik prezumpsiyasi o‘zida 3 ta asosiy qoidani mujassamlashtirgan.

Birinchi, shaxsning aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi.

Ikkinchi, shaxs o‘zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas. Shaxsning aybsiz yoki aybdor ekanligini isbotlash masalasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuklatilgan.

Uchinchi, aybdorlikka oid barcha shubhalar, basharti ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi lozim.

Axborot tarqatuvchi anglashi zarurki, inson huquqlari oliy qadriyat deb topilgan hech bir davlatda hatto odam o‘ldirgan shaxs ham sudning hukmi qonuniy kuchga kirguniga qadar aybsiz hisoblanib, unga nisbatan “jinoyatchi”, “aybdor”, “firibgar” “o‘g‘ri”, “poraxo‘r”, “ekstremist” kabi so‘zlarni qo‘llash mumkin emas. Oddiy qilib aytadigan bo‘lsak, sudning qarori qonuniy kuchga kirmaguncha hech kimning biron bir shaxsni aybdor deb malakalashga, hukm o‘qishga mutlaqo haqqi yo‘q.

Bugungi kun bloger va vaynerlarni asosiy daromadlari reklamadan iboratdir. Reklama tarqatuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishi mumkin. Reklama ishlab chiqarish va joylashtirish litsenziyalanadigan faoliyat turi hisoblanmaydi, shu sababli ushbu xizmatlarni ko'rsatish uchun litsenziya talab etilmaydi. Demak, bloger ham reklama faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega. Reklama faoliyati shartnoma asosida amalga oshiriladi. Taraflar shartnomada reklama bo'yicha barcha shartlarni kelishib olishlari, qonunchilikda taqiqlangan narsalarni reklama qilishdan tiyilishlari lozim.

O'zbekistonda daromad topuvchi har qanday shaxs soliq to'lovchi hisoblanadi. Xususan, reklama qilib daromad topgan jismoniy shaxslar daromadlaridan 12 foiz miqdorida daromad solig'i to'laydi. To'langan soliqlar to'laligicha davlat byudjetiga tushadi. Shu bilan birga, ayrim faoliyat turlari Soliq kodeksiga muvofiq daromad solig'idan ozod qilingan. "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qaroriga asosan, o'zini-o'zi band qiladigan shaxslar axborot kommunikatsiya sohasida xizmat ko'rsatish – ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat (PR-menejer, internet-marketolog, ijtimoiy tarmoqlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ilgari surish va reklama qilish (SMM), ijtimoiy tarmoq sahifalari administratori, akkaunt-menejer, marketolog, link-menejer, targetolog, kontekst-reklama bo'yicha mutaxassis, direktolog, media rejalashtiruvchi, SMO mutaxassisi) turi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, daromadlari jami daromadlari tarkibiga kiritilmasligi uchun daromad solig'idan ozod qilinadi.

Bloger sahifasida joylashtirilgan axborotga foydalanuvchilar tomonidan qoldirilgan sharhlar matnida, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarda noqonuniy ma'lumotlar aniqlansa, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan blogerga taqiqlangan axborotlarni olib tashlash to'g'risida xabarnoma yuboriladi. Axborot resursi egasi, shuningdek bloger xabarnomani olgan vaqtdan boshlab 24 soatdan kechiktirmasdan taqiqlangan axborotni olib tashlashi, shuningdek, bu to'g'rida AOKAni xabardor qilishi lozim. Agar tarqatilishi taqiqlangan axborot 24 soatdan kechiktirmasdan bloger tomonidan olib tashlanmasa, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi

(AOKA) tomonidan ushbu axborotni olib tashlash bo'yicha ijtimoiy tarmoq yoki messenjer ma'muriga yoki da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilinishi mumkin.

Shuningdek, manfaatdor jismoniy va yuridik shaxslar ham o'zlarining huquqlarini himoya qilish maqsadida blogpost egasidan o'zlariga oid postlarga qoldirilgan tuhmat, haqorat yoki qonunchilikda taqiqlangan boshqa holatlarga oid sharhlarni olib tashlashni talab qilish huquqiga egadirlar. Chunki O'zbekiston Konstitutsiyasining 27-moddasida har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Shaxsning tasvirga bo'lgan huquqi ajralmas va daxlsizdir. Tasvirga bo'lgan huquqi buzilgan deb hisoblagan shaxs Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishi mumkin. Qonunga ko'ra, shaxsga doir ma'lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot. Shaxsning tasvirga bo'lgan huquqi qonunchilik bilan himoyalani. Bloggerlar o'z faoliyatida duch kelayotgan aniq huquqiy muammolar yuzasidan qo'shimcha huquqiy yordam olish tavsiya etiladi.

3.3. Axborotdan daromad topish yo'llari va insonga ta'sir etuvchi salbiy tomonlari.

O'zbekistonda internetga ulash xizmatini ko'rsatish bo'yicha raqobatbardosh muhit mavjud emasligi hamda shimoliy, ya'ni Qozog'iston-Rossiya internet-kanaliga bog'liq bo'lgan vaziyat yuzaga kelganligi sabab internetga ulanish boshqa MDH davlatlarinikiga nisbatan ancha sekin va qimmat hisoblanadi. Bu muammoni O'zbekiston yangi tashqi kanallar ochish evaziga hal qilmoqchi: Turkmaniston, Eron, Qirg'iziston va Xitoy orqali internetga ulanish tezligi oshiriladi va barqaror ishlashi ta'minlanadi. Shu yilning oxirigacha ushbu davlatlarning milliy operatorlari bilan kanallarni ijaraga olish va sotib olish to'g'risidagi kelishuvlar imzolanadi. Internetga buzg'unchi va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi hamda jinoyat olamiga yetaklovchi «balo»ga qaraganday, bolalarimizga internetga kirishga

taqiq qo'yavermasdan, avval biz ota-onalar undagi foydali va zararli tomonlarni farqlashni, ajrata olishni o'rganishimiz zarur va muhim.

Qanday qilib internetda biznes ochish, pul topish mumkin — internet shunga o'xshash ko'plab foydali resurslarga to'lib-toshib yotibdi. Bir so'z bilan aytganda, internet pul topishning bepoyon imkoniyatlari manbaidir. Agar shularning hammasini yotig'i bilan farzandlarimizga tushuntirib bera olsak, internet resurslaridan to'g'ri foydalanib, o'z kuchi bilan daromad topa olishini ularning ongiga singdirib borsak, bolalarimizning o'zlarida vaqtini bekor o'tkazmasdan, oila budjetiga hissa qo'shish istagi paydo bo'ladi va shu yo'lda izlana boshlaydilar.

Endi kompaniyaning internet foydalanuvchilari «ZiyoNET» tarif rejasi xizmatlariga ulanib, farzandlariga hozircha 3 mingga yaqin saytni o'z ichiga olgan Yagona axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini berishadi. Mazkur ro'yxatdan ilmiy-ta'limiy, ma'naviy-ma'rifiy va bolaning yetuk va sog'lom bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladigan boshqa milliy va xalqaro internet sahifalari o'rin olgan. Bu orqali bolalar global tarmoqdagi xavflardan, turli buzg'unchi va g'oyaviy nobop saytlarga kirishdan himoyalana. Shuningdek, ota-onalar ro'yxatga o'zlari ma'qul topgan, bolalar uchun qiziqarli saytlarni kiritish bo'yicha taklif ham berishlari mumkin. Endi esa nafaqat yoshlarni, balki kattalarni ham qiziqtirib qo'yishi mumkin bo'lgan, tayyor daromad manbai sanalgan ayrim internet resurslari yo'nalishlariga e'tiboringizni tortamiz.

Hozirda internet makonida ko'p uchraydigan «onlayn so'rovlar» talabalar bo'sh vaqtida pul ishlashlari uchun kundan-kunga tanilib borayotgan usul hisoblanadi. Turli tadqiqotlarni o'tkazayotgan kompaniyalar har doim har xil so'rovlarga javob berish va yangidan-yangi mahsulotlarni sinovdan o'tkazish uchun yangi a'zolarini qabul qilib boradi. Internetda bajarayotgan ishingiz uchun oldindan pul olishdan manfaatdormisiz? «Qmee.com» innovatsion g'oyasi sizni «Google», «Bing» yoki «Yahoo» qidirish resurslaridan foydalanganingiz uchun mukofotlaydi. Siz shunchaki o'z brauzeringizga oddiy qo'shimcha qurilmani o'rnatasiz va qidiruvni amalga oshirayotganingizda oddiy qidiruv qatorida bir nechta homiylik qilinadigan natijalar ham bo'lishi mumkin. «Qmee»dagi har bir

natija pullik mukofotga ega, agar u sizni qiziqtirib qolgan bo'lsa, tugmani bosing va mukofotingizni qo'lga kiriting.

Bundan tashqari internetdan daromad topishda sizdan dastlabki qo'yilmalarni talab etadi, biroq ko'p o'tmay o'zini oqlay boshlaydi. Sayt ishi yaxshi yo'lga qo'yilsa undan har oyda 10 ming dollar miqdorida foyda olish mumkin. Asosiy foydani reklama (kontekstli, bannerli, tizerli) olib keladi, bunda sherikli dasturlarda ishtirok etish yoki havolalarni sotish mumkin bo'ladi. Agar siz yanada ildamlab ketmoqchi, nafaqat saytni rivojlantirish, balki o'z infobiznesingizni qurmoqchi bo'lsangiz, u holda foyda yanayam ko'p bo'ladi. Bu eng foydali variant, shunday ekan «Internetda pul ishlab topish haqiqatmi?» deb so'ramang, chunki saytlar egalarining baralla javobi «Ha» bo'lib turibdi.

Xo'sh, axborot sayti va infobiznes orasida qanday farq bor? Dastlab foydali axboroti bo'lgan kontentli sayt ham axborot evaziga pul ishlaydigandek tuyuladi. Biroq birinchi holatda pul tashqaridan (reklama, sherikli dasturlar) kirib keladi, infobiznesda esa siz muayyan bir axborot mahsulotini sotasiz va uning uchun mijozlaringizdan pul olasiz. Quyidagilar axborot mahsulotlari bo'lishi mumkin:

- Vebinarlar
- Treninglar
- Onlayn o'quv kurslari
- Elektron kitoblar.

Ushbu pul ishlash usulining xususiyati shundaki, siz mahsulotni bir marta yaratasiz, undan foydani esa doimiy ravishda olib turasiz. Shunchaki passiv daromad turi. Shu bilan birga, parallel ravishda yangidan-yangi mahsulotlar yaratish, yangi yo'nalishlarda rivojlanib, kattadan-katta daromadlar topish mumkin bo'ladi. Bunday holatda daromad bir necha martaga ko'payadi. Agar siz veb-brauzeringizdan mohirona foydalana olsangiz, unda veb-saytlarni ko'rib chiqish vaqtingizni to'lovli va qiziqarli ishga aylantirish vaqti keldi. «UserTesting.com» kabi yangi platformalar xohlovchilarga barcha turdagi veb-saytlarni

ko‘rib chiqishlari uchun pul to‘laydi. Har bir ko‘rib chiqish uchun 20 daqiqa vaqt sarflanadi va \$10 pul to‘lanadi. Ro‘yxatdan o‘tib, ko‘rib chiqish testini to‘ldiring va «kirish» papkangizda ko‘rib chiqilishi zarur bo‘lgan veb-saytlar ro‘yxatini qabul qilib oling.

Bunday ishni frilans birjalarida ham topsa bo‘ladi, bu ish alohida ko‘nikmalarni talab qilmaydi. Odatda bu ish layk qo‘yish, repost qilish yoki guruhga qo‘shilish kabilarni o‘z ichiga oladi. To‘g‘ri, odatda minimal darajada haq to‘lanadi, biroq barchasi sizning akkauntingizga bog‘liq. Do‘stlaringiz qancha ko‘p, profilingiz qanchalik faol bo‘lsa, buyurtmachilar shunchalik ko‘p pul to‘lashga tayyordirlar. Qiymati kattaroq ishlar turiga guruhlar bo‘yicha posting qilish, kataloglar bo‘yicha ma’lumotlarni taqsimlash kabilar kiradi. Bunday ishlarni «Advego», «Socialtools», «Smmka» va «Forumok»da topish mumkin. Ushbu tarmoqlarda faol ishlasangiz bir oyda \$100ga yaqin mablag‘ ishlashingiz mumkin.

Ko‘rsatib o‘tilgan imkoniyatlar — xamir uchidan patir, xolos. Bunday resurslar juda ko‘p. Yoshlarimiz internet imkoniyatlaridan, o‘z vaqtlaridan unumli foydalanishsa, ana o‘shanda yurtimiz yanada ravnaq topadi.

Tayanch iboralar: media, axborot, makon, raqobat, muhit, bosma, nashr, ommaviy, vosita, bloger, vainer, kasb, etiket, daromad, manba.

Nazorat savollari:

1. Media madaniyatining qanday funksiyalari bor?
2. Global media muhiti va uning jamiyatga ta'siri qanday?
3. Audiovizual kommunikatsiyalar va ularning jamoatchilik ongiga ta'sirini ko‘rsating?
4. Jahon media makoni nima?
5. Jahon axborot makoni?
6. Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti qanday?
7. Aholining axborotga bo‘lgan ehtiyoji.
8. Davlat va xususiy bosma nashr va ommaviy axborot vositalarida raqobat muxiti.
9. Bloger va vaynerda kasbiy etiket.

IV. BOB. XORIJIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI.

4.1. Xorijiy media axborot vositalari: The Times, The New Times, Bloomberg va Sabah, “Exa Moskvi”, “TRT” va “Amerika ovozi” teleradiokompaniyalarining qiyosiy tahlili.

Bugun sayyoramizdagi butun aholi yangiliklar kuzatish ko'p sarflaydi. Axir, butun xabardor bo'lish uchun - bu eng yaxshi odam bo'lish, degan ma'noni anglatadi. Izolyatsiya umumiy, shuningdek, ishlab chiqarish haqida ma'lumot. shaxslar ma'lum bir guruh tomonidan ishonch va tan shakllantirish uchun tez-tez bo'lib zarur. Media ma'lum shartlarga ko'ra, turli toifalarga bo'linadi, soni qat'iyani sobit emas. turlari jalb viloyatlar, shuningdek, turlari va ommaviy axborot vositalari vazifalari quyidagicha turiga ko'ra ajratish mumkin: Ijtimoiy va siyosiy. Infotainment. Biznes va boshqalar. Hududlar, ommaviy axborot vositalari ishtirok radioeshittirish maydoni ta'sir qiladi. Bunday media hokazo Moskva, chet el, mintaqaviy va o'z ichiga oladi. kabi bir narsa ham bor "ommaviy axborot vositalari shakllari." Bu o'ziga xos ommaga ma'lumot berish uchun bir usul taqdim etadi.

Bugungi kunda dunyo kabi ommaviy axborot vositalari bu turdagi foydalanadi: muddatli (turli jurnallar, broshyuralar, varaqalar, gazetalar, va hokazo). Bugungi kunda yoshlar mediadan juda keng va faol foydalanmoqda. Ular ijtimoiy tarmoqlarga uyali telefon orqali suratlar yuboradi, turli yangiliklarga munosabat bildiradi, doimiy ravishda virtual makonda muloqotga kirishadi. Agar kattalar ish vaqtini dam olish vaqtidan ajratishga majbur bo'lsa, yoshlar onlayn va offlayn tartibdagi faoliyat o'rtasiga chegara tortish zaruratini his etmaydi. Global tarmoqdan yosh avlod vakillari dunyoning turli mintaqalarida yashaydigan insonlar bilan muloqotga kirishish uchun foydalanadi. Ular vizual va kommunikativ madaniyatning yangi toifasi vakillaridir.

Hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan voqealar qisqa fursat ichida zamonaviy ommaviy axborot vositalari ta'sirida boshqa davlatlarga tarqalmoqda. OAV orqali amalga oshiriladigan va katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir va tazyiqning o'ziga xosligi shundaki u o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirmasdan amalga oshiriladi va

bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmanni yo‘q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g‘oyaviy ta‘sir yo‘naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o‘rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta‘sir ko‘rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o‘zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo‘qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta‘sir o‘tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televideniye fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda. Internet bugungi axborot makonining muhim bo‘g‘iniga aylandi. Hozirda internetdan nafaqat kompyuter tarmog‘i, balki kosmik aloqa yo‘ldoshlari, radiosignal, kabel televideniyesi, telefon, uyali aloqa orqali ham foydalanish mumkin.

Yoshlar uchun mediadan foydalanish yaqqol ijtimoiy ma‘noga egaligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ayni damda o‘zidan olisda bo‘lgan yaqinlari bilan muloqotda bo‘lib turadi, yangi do‘stlar orttiradi. Ular internetda turli ijtimoiy rollarda o‘zlarini sinab ko‘rish imkoniyatiga ega. Uyatchan va kamgap inson tarmoqda ochiq va sergap bo‘lib ketishi ham mumkin. Ammo interfaol muloqot orqali barcha ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘la olish mumkin emas. Ommaviy axborot vositalari axborotni bir lahzada tarqatish kanali va jamoatchilik fikriga umuminsoniy miqyosda ta‘sir ko‘rsatish vositasiga aylandi. Yangi axborot texnologiyalari inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Global dunyoda ommaviy axborot vositalarining o‘z faoliyati monopolizatsiya, ommaviy axborot vositalarining birlashishi, ommaviy axborot vositalarining faoliyatini birlashtirish (axborotni taqdim etish va tarqatish shakllari), fan va texnika yutuqlari va Internet texnologiyalarini joriy etish, va konvergentsiya.

The Times (ing. The Times; tarjimasida “Times”) — Buyuk Britaniyadagi kundalik gazeta, dunyodagi eng mashhur gazetalardan biri. U 1785 yildan beri chop etilgan. The Times hozirda Times Newspapers Limited tomonidan nashr etiladi va to‘liq News korporatsiyasiga tegishli. Ko‘pgina gazetalarda o‘z nomlarini Amerikaning The New York

Times, Hindistonning The Times of India va Janubiy Koreyaning The Korea Times kabi The Times gazetasidan olgan.

Ijtimoiy-siyosiy ommaviy axborot vositalarida boshqaruv signallari, masalan, hodisa yoki jarayonning ijobiy bahosini o'z ichiga olgan materiallarda yumshoq, yashirin ko'rinishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari insonning, tashkilotning, butun mamlakatning harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qodir. Masalan, har qanday davlatning milliy ommaviy axborot vositalari odatda o'z davlatining tashqi siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. Amerika Qo'shma Shtatlarining tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini 20-21-asrlar bo'yida milliy Amerika sifatli matbuotida yoritilishi monitoringi natijalari ushbu tezisning misoli bo'lishi mumkin.

The Times va The Sunday Times 1999-yil mart oyidan beri Internetda mavjud bo'lib, dastlab the-times.co.uk va sunday-times.co.uk veb-saytlarida joylashtirilgan. Nyu-York Tayms — 1851-yil 18-sentabrda Nyu-York shahrida nashr etilgan Amerika kundalik gazetasi. 1970-yillarning o'rtalaridan boshlab gazeta o'z mavzusini sezilarli darajada kengaytirdi va axborotini qayta tuzdi, muntazam yangiliklar, tahririyatlar va sport yangiliklarini to'ldiruvchi turli mavzulardagi maxsus haftalik bo'limlarni qo'shdi. Keyinchalik u: “Yangiliklar”, “Sharhlar”, “Biznes”, “Sport”, “Fan”, “San'at”, “Uslub”, “Uy”, “Nyu-York yangiliklari” va boshqa bo'limlarga bo'lingan. Bundan tashqari, The New York Times, ayniqsa, birinchi sahifada rangli fotosuratlardan foydalangan oxirgi gazetalardan biri edi. The New York Times onlayn nashri 1996-yilda paydo bo'lgan bo'lib, yetakchi o'rinlardan birini egallaydi va eng yaxshi veb-sayt hisoblanadi.

So'nggi paytlarda u yoki bu siyosiy sub'ektlar tomonidan boshqariladigan global ommaviy axborot vositalari tizimini rivojlantirish amalga oshirildi, axborot-tashviqot, PR tadbirlari va boshqalar majmui amalga oshirildi. Zamonaviy tarixda xalqaro maydonda eng faol pozitsiyani egallaydi. Amerika Qo'shma Shtatlari tomonidan. Ularning muvaffaqiyati ko'p jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilgan axborot faoliyati va davlat va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yo'lga qo'yilganligi tufaylidir.

Turkiya ommaviy axborot vositalarining tarixi Usmonlilar imperiyasining soʻnggi oʻn yilliklariga borib taqaladi. Birinchi turk gazetasi “Taqqim-i Vakayi” (Takvim-i Vakayi) 1831-yilda nashr etilgan. Ushbu tub islohotlar davrida ommaviy axborot vositalari (gazeta va boshqa davriy nashrlar) amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish, alohida ahamiyat kasb etdi. 1831-yil 25-iyulda turk, arab va frantsuz tillarida birinchi Usmonli gazetasi nashr etildi.

Sabah (gastrol. "Morning", tong gazetasi) - Turkiyaning kundalik gazetasi, 1985-yil 22-aprelda Izmirda turk tadbirkori Dinch Bilgin tomonidan asos solingan. Shiori "Türkiye'nin en iyi gazetesi", 1997-yil yanvar oyida Internetda veb-sayt ochildi. Amerikaning The New York Times gazetasi, The New York Times International Weekly gazetasidan turkchaga tarjima qilingan maqolalarni chop etish uchun Sabah gazetasini tanladi. Sabah gazetasi Germaniyada Sabah Deutsch nomi bilan nemis tilida, Turkiyada Sabah Europe nomi bilan, Yevropa Ittifoqida ingliz, nemis va arab tillarida Daily Sabah nomi bilan nashr etiladi. 21 ta umumrespublika gazetalarining oʻrtacha umumiy tiraji 4 million nusxaga yetdi. Aksariyat nashriyotlar oʻz faoliyatida jahonning eng zamonaviy texnika va texnologiyalaridan foydalana boshladi.

4.2. Rossiya, AQSH va Yevropa teleradiokompaniyalari faoliyatini tahlil qilish.

Har bir davlatning axborot siyosatini amalga oshirish mamlakatning oʻzida xorijiy jurnalistlar bilan ishlash uchun matbuot markazlarining ishlashini, davlat rahbarlariga, ommaviy axborot vositalariga va ilmiy-tadqiqot institutlariga tezkorlik bilan maʼlumot yetkazib berish uchun xorijda axborot markazlarining mavjudligini nazarda tutadi. Jumladan AQSHning “Amerika Ovozi”, “Freedom” va “Free Europe” radiostansiyalarining xorijiy mamlakatlarga eshittirishlari qoʻllab-quvvatlanadi.

1990-yil 10-dekabrda Rossiya radiosi Butunittifoq radiosining birinchi dasturi bilan bir qatorda, ikkinchi radiokanalda Mayak radiosi bilan va uchinchi radiokanalda

Butunittifoq radiosining uchinchi dasturi bilan eshittirishni boshladi. Dunyoning yetakchi davlatlari tashqi siyosatni axborot bilan ta'minlash masalalariga doimo jiddiy e'tibor berib kelgan. Biroq, so'nggi o'n yilliklarda bu muammo davlat tuzilmalari uchun yanada dolzarb bo'lib qoldi va bu bir qator omillar bilan bog'liq. Axborot globallashtirishning rivojlanishi butun sayyora aholisining turmush tarzi uchun muhim oqibatlarga olib keladi: yaxshi xabardorlik, ma'lumotni dunyoning istalgan nuqtasiga bir zumda uzatish qobiliyati, respondentlaringiz bilan doimo aloqada bo'lish. Bu jarayonlar odatiy turmush tarzini tubdan o'zgartirishga olib keladi. Axborot oldinga chiqadi, ishlab chiqarishning asosiy mahsulotiga aylanadi. Iqtisodiy va siyosiy hayot axborot sohasiga o'tmoqda, jamoatchilik bilan aloqalarni vositalashtirish deb ataladigan narsa amalga oshirilmoqda.

Amerika Ovozi (Amerika Ovozi) - Amerika xalqaro jamoat radiosi va unga tegishli radiostansiya. "Amerika Ovozi"ning faoliyatini Radioeshittirishlar Boshqaruv Kengashi muvofiqlashtiradi. "Amerika Ovozi" radiostansiyasi birinchi marta 1942-yil 24-fevralda efirga chiqdi. "Biz Amerika va urush haqida gaplashamiz, yangiliklar yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin - biz sizga haqiqatni aytamiz", dedi radiostantsiya shu so'zlar bilan eshittirishni boshladi. "Amerika Ovozi" Gebbels targ'ibot mashinasiga qarshi og'irlik sifatida yaratilgan. 2008-yil 27-iyulda "Amerika Ovozi"ning rus xizmati efirini to'xtatdi va butunlay internetga o'tdi.

Ommaviy axborot vositalari axborot globallashtirish jarayonlarida bevosita ishtirok etmoqda. Ular shaharlar, mamlakatlar, qit'alar, butun dunyo aholisining ijtimoiy ongini nazorat qiluvchi ommaviy axborot vositalariga aylanadi. Ammo ommaviy axborot vositalarining o'zi ham global tendentsiyalarga ta'sir qiladi. "Ozod Yevropa" radiosi AQSH hukumati tomonidan moliyalashtiriladigan xalqaro notijorat teleradiokompaniyasidir. Ishonchli boshqaruvchi AQShning Global Media agentligidir. O'z missiyasini "matbuot erkinligi hokimiyat tomonidan cheklangan yoki hali jamoat hayotining normasiga aylanmagan mamlakatlar auditoriyasiga murojaat qilish orqali demokratik qadriyatlar va institutlarni targ'ib qilish" deb e'lon qiladi. 2018-

yil oktabr holatiga ko‘ra Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning 23 davlatiga 26 tilda efirga uzatiladi.

Yagona axborot makonining kontsepsiyasi til o‘zgarishlari dinamikasini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u jahon va milliy ommaviy axborot vositalarining ko‘p qirrali faoliyatini yagona, yaxlit tizim shaklida taqdim etish imkonini beradi, uning faoliyati lingvistik va madaniy jarayonlarning borishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ilm-fanda ushbu yangi virtual hududni davlat chegaralari va moddiy to'siqlarsiz belgilash uchun bir xil semantik qatorga tegishli, ammo ommaviy kommunikatsiya jarayonlarining u yoki bu tomonini ta'kidlaydigan atamalar va tushunchalarning butun majmuasi, masalan: axborot maydoni, axborot muhiti, axborot maydoni, media muhiti, media landshafti, infosferaning shakllanishiga xizmat qildi. Respublikamizning Mustaqillikka erishishi jahonda globallashtirish jarayonlarining rivojlanish davriga to‘g‘ri keldi. Bu jarayon o'zgarimas deb hisoblangan tizimlarni tubdan o'zgartirdi. Rivojlangan davlatlar ham bu yangilanish jarayonlaridan dovdorab qolishdi. Yosh mustaqil davlatlar oldida esa ancha katta muammolarni hal qilish masalalari turardi. Vaqt mamlakat ichki axborot muhitini isloh qilish, uni jahon axborot muhitining ajralmas qismiga aylantirish masalalarini kun tartibiga qo‘ydi.

Har bir davlatning tashqi qiyofasini shakllantirishda milliy jurnalistika va milliy ommaviy axborot vositalarining ishtirokini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish ko‘zda tutilgan. Bu yangiliklar milliy media tizimining tubdan yangilanishiga, mamlakatimizda axborot muhitining shakllanishiga va jahon axborot makonining ajralmas qismiga aylanishiga olib keldi. Milliy ommaviy axborot vositalaridan davlat manfaatlari yo‘lida foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribaning keng joriy etilgani o‘zining afzalliklariga ega. Globallashtirish sharoitida davlatning ijobiy imidjining yuqori darajasi mamlakat fuqarolarini axborot bilan ta'minlash va ularning bilim olish funksiyasini ham bajaradi. Mamlakat qiyofasi uning iqtisodiy qudrati, qudrati, boyligi, madaniy taraqqiyot darajasidan dalolat beradi. Rasm obro'-e'tibor, mamlakatning xorijiy jamoatchilik ko'z o'ngidagi obro'-e'tibori, xalqaro siyosati muvaffaqiyati ramzidir.

4.3. Zamonaviy globallashuv integratsiya, axborotlashtirish tarmog'idagi fitna va axloqiy hujumlar va ularning oqibatlari.

Globallashuvning eng muhim omili sifatida zamonaviy madaniy-axborot makonining shakllanishi va uning insoniyatning sivilizatsiyaviy taraqqiyotiga ta'siri madaniyatshunoslar, faylasuflar, sotsiologlar, siyosatshunoslar va boshqa olimlarning e'tiborini tortmoqda. Ijtimoiy muhitning axborotlashuvi globallashuvning zamonaviy shakli, jumladan, "madaniy globallashuv"ning paydo bo'lishiga olib keldi, deb hisoblashadi. Global madaniy makon madaniyatlar va sivilizatsiyalarning o'zaro ta'sirida zamonaviy integratsiya jarayonining natijasi bo'ldi. Bu insoniyat va jamiyat taraqqiyotining alohida bosqichi bo'lib, iqtisodiy, savdo va siyosiy aloqalar asosida AKT yordamida insoniyatni global butunlikka integratsiya qiluvchi semiotik kodlar va mexanizmlar paydo bo'ldi. Insoniyatning bu yangi semantik birligi zamonaviy texnik vositalar tufayli o'zining global ifodasini topgan madaniy universallarning mavjudligi tufayli yuzaga keldi. Insoniyat madaniyatining yangi fazo-vaqt uzluksizligi shakllandi.

Zamonaviy nazariyalarda axborot jamiyati madaniyati asosan postmodernlikni tavsiflashda ham qo'llaniladigan atamalar bilan tavsiflanadi. Unga markazsizlashtirish, polistilistika, marginal madaniy shakllarning aktuallashuvi va turli xil rivojlanish vektorlari kabi fazilatlar kiradi. Axborot jamiyati, bir tomondan, bilimlar jamiyati bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning madaniyati ma'rifatning tugashini anglatadi; bu, bir tomondan, maksimal ratsionallik va samaradorlik, lekin boshqa tomondan, irratsionalizm, ba'zan tasavvufga aylanadi.

Urushlar, terrorizm, siyosiy kurashning zo'ravonlik usullari o'z dolzarbligini yo'qotmayapti. Bugungi kunda zo'ravonlikning ijtimoiy-madaniy va antropologik manbalari va oqibatlariga qiziqish ortib bormoqda, biroq, V.Yarskayaning fikricha, bugungi kunda ijtimoiy kamsitish, har kungi irqchilik, zo'ravonlik genezisidagi madaniy omillar, ayniqsa, zo'ravonlik haqida fundamental tadqiqotlar mavjud emas. ekstremistik shakl.

Terrorizm, garovga olish, genotsid, aparteid, qul savdosi - bu kamsitish amaliyotlari va zo'ravonlik harakatlarining to'liq ro'yxati emas. Kuch tuzilmalari va harbiy organlar, xalqaro korporatsiyalar, shifokorlar, ota-onalar va o'qituvchilar ko'pincha kambag'allar, ayollar, bolalar, etnik, madaniy va diniy ozchiliklar, dissidentlar va uysizlar, ishsizlar, qariyalarga qarshi noqonuniy harakatlarga yo'l qo'yadilar. Olimlar ham, jurnalistlar ham, jamoat arboblari ham, siyosatchilar ham fuqarolik maqomi yo'lida juda sekin ketayotgan jamiyatning harakatsizligi haqida tobora ko'proq gapirmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish o'z-o'zidan jamiyatning samarali ijtimoiy o'zgarishining kafolati emas, balki sanoat-ierarxik tizimdan axborot-tarmoq tizimiga o'tishning kafolati ham emas. Axborot jamiyatining milliy miqyosda samarali rivojlanishi uchun axborotni o'zgartirishning uchta sub'ekti - davlat, biznes va jamiyat o'rtasida konstruktiv hamkorlik zarur. Shubhasiz, jamiyatga tahdid soluvchi asosiy xavflar aynan xomashyo ishlab chiqaruvchisi sifatida mamlakatning "tor ixtisoslashuvi" tomon harakatdadir. Texnik-iqtisodiy jarayon sifatida AKTni joriy etish ushbu traektoriyani o'zgartirishga yordam bera olmaydi. Kompyuterlar va boshqa aloqa vositalari faqat tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tezlashtirishi mumkin¹⁵.

Davlat strategiyasi mamlakatning "yuqori qiymat" deb atalmish yangi texnologiyalar, dasturiy ta'minot, intellektual mahsulot ishlab chiqarishga o'tishidan iborat bo'lishi kerak. Bunday strategiya doirasida axborot texnologiyalari, albatta, muhim, ammo baribir ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Asosiy vazifa - ijtimoiy-madaniy sharoitda, ta'lim, fan va madaniyatni rivojlantirish. Bu yuksak madaniyat degani emas, balki ommaviy madaniyat – mehnat, boshqaruv, iqtisodiy munosabatlar va boshqaruv madaniyatini bildiradi.

¹⁵ Burxanov X. M. Internet xavfsizligini ta'minlashda milliy segment faoliyatining sotsiologik jihatlari. Diss. Avtoreferat. T.: 2012.

Xorijiy mamlakatlarda O‘zbekiston haqida ijobiy fikrlarni shakllantirish, turli davlatlar bilan o‘zaro hurmatga asoslangan do‘stona munosabatlarni yo‘lga qo‘yish bugungi kunda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda davlatimiz ichki siyosatining mazmun-mohiyatini oydinlashtirish, yurt nufuzini yuksaltirishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish, dunyo hamjamiyatiga haqqoniy axborotni yetkazish bu boradagi faoliyatning uzviy qismiga aylanishi kerak. Axborot urushi nafaqat haqiqiy urushga hamroh bo‘ladi. To‘g‘ri taqdim etilgan ma‘lumotlar savdo janglarida samarali qurolga aylanadi. Mamlakatning global savdo ustunligiga erishish imkoniyatlarini kamaytirish uchun diqqatni qarama-qarshilikdan xalqaro bitimlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan raqibning ichki muammolariga qaratish kifoyadir.

Bu esa liberal paradigmaning butun dunyoga tarqala boshlaganiga, hatto bu mafkurani biron joyga majburan singdirishga olib keldi, bu nafaqat odamlar hayotining ko‘p sohalarida, balki xalqaro munosabatlar tuzilmasida ham o‘zgarishlarga olib keldi, ya‘ni bozor g‘alabasi. iqtisodiyot va unga yakuniy o‘tish, xalqaro omillar sonining o‘zgarishi, demokratiyaning keng tarqalishi, jahon ommaviy axborot vositalarining paydo bo‘lishi, ilmiy-texnikaviy sohaning uzluksiz rivojlanishi. Ushbu global o‘zgarishlar natijasida tashqi siyosat, suverenitet, davlat, global, mintaqaviy va mahalliy mojarolar kabi asosiy va buzilmaydigan tushunchalarning ahamiyati va ahamiyatini qayta ko‘rib chiqish masalasi paydo bo‘ldi. Bu omillarning barchasi dunyoning yagona global miqyosda birlashishi jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Globalashuv milliy va tashqi dunyoning “aralashmasi”ni anglatuvchi ikki tushunchaning xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan. Globalashuv - bu axborot texnologiyalarining rivojlanishi tufayli mumkin bo‘lgan vaqtning siqilishi. O‘z navbatida, globalashuv jarayoni o‘z-o‘zidan sodir bo‘la olmaydi, demak, buning obyektiv sabablari bor. Ko‘pgina olimlar zamonaviy dunyoda globalashuv jarayonining turli sabablarini ham aniqlaydilar. Zamonaviy dunyoda har bir inson u yoki bu tarzda globalashuvning ishtirokchisi bo‘lib, o‘z navbatida unga ma‘lum bir

tarzda ta'sir qiladi. Globallashgan dunyoda terrorizm avj oldi. Bu bir necha sabablarga ko'ra:

1. Rivojlangan mamlakatlarning boshqa xalqlarning ishiga o'z nafsini qondirish uchun aralashish tendentsiyasi ayrim qo'zg'olonchi kuchlarning qo'zg'olon ko'tarishiga olib keladi va ular keyinchalik terroristik guruhga aylanadi.

2. Axborot oqimini osonlashtirgan, shuningdek, odamlar o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'ygan ijtimoiy tarmoqlar butun dunyoda radikallasuv jarayonini osonlashtirgani uchun terrorchilik faoliyatida vositachiga aylandi.

3. Kiberjinoyatlar ortib bormoqda, bu mamlakat xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Globallasuv global texnologik taraqqiyotga yordam beradi. Ammo bu avans chiqindilarning ko'payishi va iqlim o'zgarishi tufayli atrof-muhit uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Bundan tashqari, texnologik taraqqiyot qo'l mehnatiga bog'liqlikni kamaytiradi, bu esa qashshoqlik va jinoyatchilikka olib keladigan bandlik imkoniyatlarini kamaytiradi. Kundalik narsalar uchun texnologiyaga qarab, sog'liq muammolari ortib bormoqda. Bu urbanizatsiyaning kuchayishiga olib keladi, natijada qishloqlardan shaharlarga migratsiya kuchaydi. Globallasuv - bu davlatlar o'rtasidagi tez o'sib borayotgan o'zaro bog'liqlik jarayoni bo'lib, u odamlar hayotining barcha sohalariga, shu jumladan siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarkibiy qismlarga ta'sir qiladi, bunda transmilliy kapitalning gegemonligiga urg'u beriladi, bu davlat chegaralarining xiralashishi bilan tavsiflanadi¹⁶.

Globallasuv jarayonida jadal texnologik rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan barcha aloqa tarmoqlari to'plamining ishlashini faollashtirish muhim rol o'ynaydi, xoh biz tovarlarni tashish yoki axborotni tashish, odamlarning harakatlanishi yoki transport vositalari haqida gapiramiz. g'oyalar va qadriyatlar harakati. Shuning uchun

¹⁶ Raximova Sh.A. Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.

kommunikativ jarayon madaniyatlararo muloqot nomini oladi - sotsial-madaniy organizmlarning har xil, ba'zan taqqoslanmaydigan turlarini ifodalovchi madaniy shakllarning intensiv ko'p qirrali o'zaro ta'siri.

Jamiyat hayotining umumiy standartlarini shakllantirish didlar, tamoyillar, qadriyatlar va xulq-atvor normalarini birlashtirish natijasidir, ya'ni madaniyatni universallashtirishni amalga oshirish zamonaviy dunyoda odatiy hodisadir. Globallashuv jarayonining O'zbekiston OAVga ko'rsatayotgan ta'siri Globallashuv jarayonining O'zbekiston OAVga ko'rsatayotgan eng jiddiy salbiy ta'sirlaridan biri bu respublika OAVning faqatgina iste'molchiga aylanib qolayotganidadir.

O'zbekiston milliy teleradiokampaniyasining barcha kanallaridagi dunyo yangiliklarining deyarli 99% chet el agentliklari va teleradiokompaniyalarning dasturlaridan noqonuniy tarzda ko'chirib olingan axborotlaridan iboratdir. Buning ustiga, o'zbek OAVning ta'sir doirasi cheklangan. O'zbekiston telekanallari va radio stansiyalarini faqatgina mamlakat bilan chegaradosh bo'lgan Markaziy Osiyo respublikalari aholisigina ko'rishi va eshitishi mumkin. Albatta, O'zbekiston radiosining chet ellarga turli tillarda uzatayotgan eshittirishlari mavjud, ammo ularning tinglovchilari ham ma'lum bir doirada. Bu esa O'zbekistondagi axborot makoni va aholining ijtimoiy ongi to'g'ridan-to'g'ri Rossiya va G'arb OAV ta'siri ostida qolishiga sabab bo'lmoqda hamda O'zbekiston OAVning xalqaro miqyosdagi o'z o'rniga ega bo'lishini tobora qiyinlashtirib qo'ymoqda.

Axborot asri sifatida talqin etilayotgan yangi yuz yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan Internetning shiddat bilan rivojlanib borayotganligi insoniyat taraqqiyotiga yangicha ko'rinish va mohiyat ato qildi. Davlat va jamiyat rivojlanishining mazkur yangicha shakli "elektron" borliq ko'rinishida xarakterlanib, uning kelajagini aloqa tarmoqlari orqali butun dunyoni yagona axborot makoniga aylantirayotgan millionlab "baytlar va bitlar" hal qilmoqda. Internet davlat va xalqlar o'rtasidagi axborot almashishni misli ko'rilmagan darajada tezlashtirdi, dunyoni insoniyat uchun tom ma'nodagi "yagona global makonga aylantirdi".

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining aloqa va axborot kommunikatsiya texnologiyalari masalalari bo'yicha 2023-yilning 10-aprelida bo'lib o'tgan yig'ilishi natijalariga ko'ra, 2023-yilning boshiga kelib Internetdagi Uz. Milliy hududida qayd qilingan saytlar soni 72,5 foizga o'sib, 4650 taga yetgan. Internetdan tez-tez foydalanuvchilar soni 25 million kishi atrofida bo'lib, ulardan 10 million kishi jahon axborot tarmog'idan muttasil foydalanishadi

Tayanch iboralar: xorijiy, ommaviy, axborot, vosita, media, makon, tushuncha, tasnif, sayt, domen, elektron, global, kiberjinoyat, axborot, oqimi, reklama.

Nazorat savollari:

1. Ibtidoiy davrga oid yozuvlar va turli tasvirlar ma'lumotmi?
2. Qadimgi bitiklar va manbalarning mazmuni va mohiyati nimadan iborat?
3. Sharq va G'arb xalqlari hayotida yozuvning ahamiyati nimada?
4. Axborot tushunchasining mazmuni va mohiyati nimadan iborat?
5. Axborot va ma'lumotlarni uzatishning eng qadimgi usullari haqida gapirib bering.
6. Axborot manbalari sifatidagi ilmiy va badiiy adabiyotlar darajasini solishtiring.
7. Sharq va G'arb Uyg'onish davrida O'rta asrlarda axborotga munosabat qanday bo'lgan?
8. Yevropadagi zamonaviy OAV haqida nimalarni bilasiz?
9. Ilmiy va axborot vositalarining qiyosiy tahlilini o'tkazing.
10. Iqtisodiyot, siyosat, ma'naviyat va madaniyat, bu sohalarning aloqadorligi va o'ziga xosligi haqida ma'lumot bering

Ichki xavfsizlik esa mamlakat doirasida inson konstitutsion xuquq va kafolatlariga aloqador bo‘lgan iqtisodiy diversiyalarning oldini olish va ularga yo‘l qo‘ymaslikka bog‘liq bo‘lgan maxsus choralarni, terroristik xurujlarning oldini olish va ularni vaqtida bartaraf etish, kelib chiqishi bo‘yicha ijtimoiy, tabiiy, biologik hamda texnik asosli tahdidlardan jamiyat a’zolarini himoya qilishni nazarda tutadi.

Oxirgi yillarda dunyo miqyosida axborot texnologiyalarining keskin rivojlanib ketayotganligi, Internet tizimning barcha davlatlar, madaniy xududlar, barcha yoshdagi insonlar uchun qulay axborot almashinuvi vositasiga aylanib borayotganligi munosabati bilan xavfsizlikning o‘ziga yana bir turi axborot xavfsizligi paydo bo‘ldi.

Axborot xavfsizligi – aslida jamiyatning ob’ektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo‘lishi uchun yaratilayotgan shartsharoitlarni nazarda tutadi. Albatta, bunga mustaqil axborot vositalari orqali aholiga etib keladigan ma’lumotlar oqimi ham kiradi. Bu vositalar aynan mustaqil bo‘lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa, siyosiy va boshqa tomonlardan hech bir siyosiy kuch, alohida davlat yoki ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak.. Chunki mustaqil OAV aslida odamlarda sodir bo‘layotgan turfa xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berishi lozim. Lekin amaliyotda ming afsuski, har doim ham shunday bo‘lavermaydi va jamiyat o‘z a’zolarini, ayniqsa yosh avlodni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga majbur bo‘ladi.

Axborot xavfsizligining vazifalari:

- 1) shaxs va jamiyatning axborot qabul qilish va undan foydalanishga bo‘lgan huquqini ta’minlash;
- 2) xolis axborotlar makonini ta’minlash (mustaqil OAV tizimini yaratish orqali);
- 3) informatsion va telekommunikatsion texnologiyalar sohasidagi jinoyatlarni bartaraf etish yo‘li bilan ushbu yo‘nalishda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan terroristik tahdidlar, jumladan, telefon orqali, kompyuter tizimi orqali ro‘y beradigan xavflarni, shu

orqali noqonuniy mablag'larning bir manbadan ikkinchisiga oqim ketishiga yo'l qo'ymaslik;

4) shaxsni, tashkilot va yaxlit jamiyatni axborot-psixologik tahdidlardan himoya qilish;

5) imidjni shakllantirish, turli bo'hton, mish-mishlar va noo'rin xabarlariga qarshi kurashish.

Axborot xurujlari turlicha bo'lgani uchun unga nisbatan xavfsizlik choralarini ko'rish ham turli sohalarda (siyosat, iqtisodiyot, mudofaa) va turli jabhalarda (davlat miqyosida, xududiy, tashkilish, shaxsiy) amalga oshiriladi. Ya'ni, davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta'minlashga aloqador bo'lgan ishlar muayyan bir tashkilot doirasida amalga oshiriladigan axborot xavfsizligidan farq qiladi. Birinchisiga gap milliy manfaatlarni himoya qilish to'g'risida ketsa, ikkinchi xolatda tashkilotdagi muayyan ijtimoiy guruhlararo axborot almashinuvida bo'hton, to'xmat, mish-mishlar tarqatishga bog'liq bo'lgan salbiy xolatlar nazarda tutiladi. Lekin ikkala xolat ham axborot xurujlariga odamlarning normal faoliyatlari uchun xalaqit beruvchi omil sifa tida qaraladi.

Axborot xurujlari – bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo'naltirilgan ta'sir bo'lib, uning asl maqsadi o'sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarining g'arazli niyatlaridan kelib chiqadi.

Tezkor tapaqqiyot odatiy tamoyillar katori vaqt va makonmutanosibligiga xam o'z ta'sirini ko'rsatmokda. Barcha faoliyat jarayonlarida yangicha yondashuv va rivojlanish strategiyalarining shakllanishi insonlar va mintaqalarning yakkalikdan yaxlitlikka yuz burishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida "odamlarni ma'lum bir manfaatlarga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi axborot bosimlarining doimiy ta'siri ostida yashashga majbur qilmoqda.

Bugungi kunda axborot juda keng tarqalgan bo'lib, har taraflama rang-barang ma'nolarda tushuniladi. U ishtirok etmagan bilim sohasini topish qiyin. XXI asr axborotning nazariy va amaliy ijodi eng cho'qqisiga yetgan asr hisoblanadi. Shuning uchun ham XXI-asrni axborot asri deb ta'kidlashmoqda.

Axborotga quyidagicha ta'rif berish mumkin - axborot manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar majmuidir.

Jahon tajribasidan ma'lumki, davlat axborot infrastrukturasi rivojlanishi jamiyat va davlatning hamma jabhalarini, jumladan, odamlarning dunyoqarashini va ularning mehnat, ijtimoiy va siyosiy hayotda ishtirok etishi shartlarini o'zgartirib, jamiyat rivojlanishini tezlashtiradi.

Tig'iz axborotlashgan jamiyatda "shaxs-jamiyat-davlat" aloqadorligi, ularning o'zaro uzviyligi va yaxlitligini ta'minlash bir muncha qiyinlashadi. Chunki axborot oqimi tezlashgan va axborotlar girdobida yashash kabi murakkab, ziddiyatli vaziyatning yuzaga kelishi bevosita shaxs tafakkurining, inson dunyoqarashining keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda, rivojlangan texnika davrida turli xil ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali tez va oson toppish mumkin. Jumladan, buzg'unchilik, tajovuzkorlik, noaxloqiy xulqni shakllantiruvchi ma'lumotlar ham anchagina. Ayniqsa, bunday manbalar o'sib kelayotgan yosh avlodlar ongiga ta'sir ko'rsatayotganligi juda achinarli holdir.

Axborot orqali yuzaga kelgan psixologik mojarolar sharoitida davlat axborot siyosatining vazifasi jamiyatni salbiy axborot, psixologik xurujdan ishonchli saqlash, qat'iy himoya qilish mexanizmini yaratish bilan belgilanadi. Har bir yangi axborot-psixologik mojaro himoya qilinayotgan jamiyat uchun yangi tahdidlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Demak, tahdid qancha ko'p bo'lsa, hadik va ishonchsizlik shuncha ko'payadi. Ana shunday ma'naviy, ruhiy, ijtimoiy vaziyatdan kelib chiqib, jamiyat kayfiyatini muvofiqlashtirib, yo'naltirib, boshqarib turishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot-psixologik xavfsizlik bu bevosita siyosiy mojarolarning oldini olish, eng avvalo, insonning o'zini o'zi tushunishi va fuqarolararo munosabatlarni yuksak ma'naviy-ma'rifiy mezonlar asosida shakllantirish, axborot qurolidan zamonaviy insonparvar tafakkurni, ijodkorlik ruhini, yaratuvchilik qobiliyatini, bunyodkorlik imkoniyatlarini shakllantirishni taqozo qiladi.

Hozirgi kun jamiyatni boshqarish, zamon me'yorlari asosida kishilik taraqqiyotini ta'minlashning yangi usul va uslublarini qidirib topish zaruriyatini paydo qiladi. Jumladan, siyosiy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy psixologik va axborot tizimini boshqarish kabi qator, bir-biriga uzviy bog'liq, bo'lgan yo'nalishlarda boshqaruvning eng maqbul uslubini topish, bevosita hokimiyat va unga ishonch, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlashda fuqarolar yakdilligi, ma'naviy va g'oyaviy jihatdan birligini ta'minlashni taqozo etadi.

Ommaviy axborot vositalari ta'siridagi buzg'unchi yoki ongni zararlovchi g'oyalarning oldini olish faqat yosh avlodning ta'lim tarbiyasiga e'tiborni kengaytirish va to'g'ri tashkil etish hamda sifatli ta'sirni kuchaytirishdan iborat. Bunda, albatta, pedagoglar, psixologlar, jamoatchilik, ota-ona kabi bolaga ma'sul shaxslarning bilim saviyasi va hayotiy tajribalari ayniqsa ahamiyatlidir.

Ommaviy axborot tizimi ayni paytda ochiq axborot tizimi hisoblanadi. Chunki dunyo miqyosida axborot tarqatishni ma'lum davlatdan yoki bir joydan turib, nazorat qilib, tartibga solib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu tizim ochiq ommaviy axborot tizimi deb nomlanadi. Ochiq axborot tizimi deganda axborot vositalari va unda berilayotgan axborotlarning oshkoraligi, dunyo axborot maydonida axborot almashinuv jarayonining jamiyat ehtiyoji sifatida namoyon bo'lishi va axborotlarning shaxs hayoti-faoliyatining ajralmas qismiga aylanib borish jarayoni tushuniladi.

Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bo'lgan qadriyatga aylanmog'i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni man etish, jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta'sir etuvchi ijtimoiy, milliy, etnik, diniy tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo'ravonlik va urushni targ'ib etuvchi pornografiya, maishiy buzg'unlik, shaxslar mavqeyi, obro'si va sha'niga salbiy ta'sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog'liq bo'lgan, sog'lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma'naviy-ruhiy me'yorlarni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. XX asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko'lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri, hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon

rivojiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omili sifatida e'tirof etilmoqda. E'tiborli jihati, mamlakat ichida va tashqi dunyoda faol axborot almashinuviga odamlar ehtiyoji juda ortib bormoqda. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potentsiali va imkoniyatlarining o'sishi, jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo'nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, yangi - XXI asrdagi odamzot taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillardan biri bo'lishiga asosdir.

Bugungi kunda kundalik xalqaro munosabatlarda "axborot urushi", "axborot qarama-qarshiligi", "axborot bosimi" kabi tushunchalar ko'p ishlatilayotganligi aholini axborot xurujidan himoyalash bo'yicha choralar ko'rish muhimligini yanada oshiradi. Ushbu muammoning dolzarbligi yana shundaki, hozirda odamlar (shaxs, ijtimoiy guruh, jamiyat) ongi shakllanishida ma'lum darajada ommaviy axborot voqealarining faoliyati va axborot resurslarining ta'siridadir. Shuning uchun, ayniqsa ochiq axborot tizimi sharoitida shaxs, jamiyat va davlatning axborot, axborot-psixologik xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni hal qilishning ahamiyati yanada oshadi. Ayni vaqtda, axborot tizimi imkoniyatlarini milliy manfaatlarni himoyalash va rivojlantirish, shuningdek, global axborot makonida davlatning manfaatlarini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish yo'lida foydalanish juda muhim hisoblanadi.

Axborot-psixologik xavfsizlik deb - individual, guruhiy psixologik va omma psixologiyasiga, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, ekologik va boshqa sohalariga qaratilgan turli darajalardagi salbiy ta'sir o'tkazishlardan himoyalanganlik holatini tushunish lozim.

Bunda axborot-psixologik tahdidlardan himoyalash asosiy maqsad qilib olinishi hamda maqsadga yo'naltirilganligi bo'yicha ularni tabaqalashtirish mumkin:

- ijtimoiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- iqtisodiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- siyosiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- ma'naviy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- fan va texnika sohalaridagi axborot-psixologik tahdidlar;
- harbiy sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- xavfsizlik sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;

- ekologiya sohadagi axborot-psixologik tahdidlar;
- ta'lim-tarbiya sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
- tibbiyot sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
- madaniyat sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
- oziq-ovqat sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar;
- boshqaruv sohasidagi axborot-psixologik tahdidlar va b.

Internet tizimi orqali insonlarning ongiga g'oyaviy "hujum" uyishtirish holatlari kuzatilmoqda. Bunday jarayonlarni amalga oshirishda yesa kibermakon qulay muhit manbaiga aylanib ulgurgan. Kibermakon dunyo kompyuter tarmoqlarining "virtual " umumiy majmui. Kibermakonda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan, insonni ham ma'nan, ham jismonan yo'q qilishi mumkin bo'lgan kuch kiberterrorizmdir.

Hukumatimiz tomonidan fuqarolarning vaqtini tejash, ularda chiqarilayotgan qonunlarga hurmat hissini uyg'otishga qaratilgan turli xildagi chora tadbirlar ko'rilmoqda. Bunda yaqindan internet tizimi ko'makchilik qilmoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoqdagi kanallari, internet tarmog'idagi saytlar (lex.uz, my.gov.uz va boshqalar)ni misol keltirishimiz mumkin. "Elektron hukumat" tizimi internet tarmog'idan oqilona foydalanishning natijasi o'laroq yuzaga keldi. Bu tizimning ahamiyati va uni rivojlantirish to'g'risida davlatimiz rahbari shunday fikrni bildirdi: "elektron hukumat"ni tashkil etish dasturi doirasida biznes va aholiga elektron tizimlar, shuningdek, "yagona darcha" tizimi orqali barcha davlat xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

8.2. Diniy tahdidlar va ularning kelib chiqish sabablari.

Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlarda internetdan foydalanish konikmalari fakultativ dars sifatida maktab dasturiga kiritila boshladi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o'ziga xos usuli sifatida ko'rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma'lumotlarning qanchalik haqqoniy va to'g'ri ekanini tekshirishga o'rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o'smirlar uchun zarur. Internetda grifingdan tashqari o' smir yoshlar uchun yana bir qancha xavflar ham bor. Ya'ni bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda,

ekstremistik xarakterdagi sekta va uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqqligi, virtual firibgarlikka keng yo'l qo'yilganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog'ligiga xavf soluvchi ma'lumotlarni ko'rishiga olib kelishi tabiiy. Din – jamiyatdagi shaxs munosabatlarini tartibga solib turuvchi, inson ichki dunyosini shakllantirishning eng ta'sirchan vositalaridan biri hisoblanadi.

Ammo, bugungi kunda ijtimoiy ong shakli hisoblangan bu tushunchadan turli maqsadlar yo'lida foydalanish ortib bormoqdaki, natijada inson omiliga qarshi kurashda din birlamchi vosita bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda diniy tahdid bu – diniy g'oya va mafkuralar bilan niqoblangan yovuz niyatli kuchlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi demakdir. Bu jrayonda asosiy ob'yekt inson ongi hisoblanib, unga ta'sir etish yo'nalishlari turli tumandir. Bugungi kunda dunyoda mohiyati va udumlar shakliga ko'ra turli ko'rinishdagi diniy qarashlar mavjud bo'lib, ularning umumiy soni ikki yuzga yaqindir. Ular bir xudoli va ko'p xudoli, urug'-qabilaviy, milliy va jahon dinlari bo'lishi mumkin. Ammo asosiy masala, ularning sonida emas balki e'tiqodiy bo'linishida bo'lib qolmoqda. Aynan mana shu bo'linish sabab turli-xil ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar yuzaga kelib, inson ruhiyatiga sokinlik, xotirjamlik, ma'naviy madad berish uchun asrlar osha shakllanib kelgan «din» – azob beruvchi, ma'naviy qashshoqlik sari harakatlantiruvchi vosita bo'lib qolmoqda.

Albatta javoblar turli tuman bo'lishi tabiiy, ammo quyida asosiy sabablarni keltirib o'tamiz:

Birinchidan, diniy qarashlar o'rtasidagi bo'linishning kelib chiqishi. Umuman, har qanday dinda bo'linish sabablari o'zaro bog'liq bo'lgan turli jarayonlar ta'sirida paydo bo'ladi. Masalan, diniy aqidalarning barqarorligi yoki kam o'zgaruvchanligi sababli diniy aqida va jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot (inson dunyoqarashidagi o'zgarish) o'rtasidagi tafovut sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, diniy ta'limotning turli millatlar va elatlarning madaniyati, urf-odatlar va an'analariga moslashishi natijasida diniy ta'limotga bo'lgan munosabat jarayonida ham bo'linish yuzaga keladi. Natijada

turli-xil kuchlar o'rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi yuzaga kelib, jamiyatning faol sub'yekti hisoblangan inson va uning qalbi zarar ko'radi.

Ikkinchidan, diniy e'tiqodning siyosiy lashuvi. O'rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimir shunday degan edi: «Din – samoviy ishdir, siyosat – dunyoviy ishdir, din peshvolarining siyosatga aralashishlari kerak emas, ular ta'lim-tarbiya berishlari lozim» Afsuski o'z vakolati va darajasidan foydalanib, din sofligiga rahna solinishiga sababchi bo'layotgan «peshvolar» ham topilmoqdaki, ularning faoliyati jamiyat va inson tadrijiyligiga faqat va faqat zarar keltirmoqda. Natijada ular orasidan etishib chiqqan ayrim etakchilar fikricha dinning siyosat va siyosiy hayotga betarafligi butunlay nojoizdir, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan diniy mafkurani ishlab chiqish, ijtimoiy hayotda din ustuvorligini ta'minlash eng to'g'ri yo'ldir. Ming afsuski bunday qarashlar tarafdorlari hozirgi davrda turli yo'nalishlardan inson ongiga ta'sir etib, nafaqat inson, balki jamiyat taraqqiyotiga ham jiddiy tahdid solmoqda²².

Uchinchidan, din bayrog'i ostida iqtisodiy imkoniyatlarni ochishga harakat qilish. Aslida dinning bo'linishi ham siyosiy lashuvi ham iqtisodiy imkoniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, jahon dini hisoblangan buddaviylik ta'limoti jamiyatning kastalarga bo'linishini inkor etadi. Ammo Hindistondagi ijtimoiy muhit (insonlar o'rtasidagi tabiiy tabaqalanish) kastalarga bo'linishni saqlab qoldi, buning natijasida buddaviylik davrida ham tabaqalanish o'z kuchida qoldi. Mantiqan o'ylab qarajak, bu jarayonda ham bitta asosiy sabab mavjud edi, ya'ni iqtisodiy manfaatning ustuvorligi. Hind mutafakkiri M. Gandi ham diniy qoida va an'analarga sodiq qolgan holda diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurash olib borgan. Jamiyatning kastalarga bo'linishini va ular o'rtasidagi tengsizlikni qoralagan. Xotin-qizlarning tengligi va ularning haq-huquqi uchun kurashgan, ammo jamiyatdagi tabaqalanishni tugata olmadi.

Xristianlik dini tarkibida katolik, pravoslav, protestantlik yo'nalishlarini paydo bo'lishida nima sabab bo'ldi! iqtisodiy manfaat va tafovutdan boshqa sabablar ikkinchi darajali hisoblanadi. Tarixiy fakt: o'rta asrlarda aholi daromadning o'ndan bir qismini

²² Баранов О.А. Медиаобразование в школе и вузе. Тверь: Изд-во Твер. гос. ун-та, 200. -С.87.

soliq shaklida cherkovga to‘lagan. Ruhoniylar tushumlarni ko‘paytirish maqsadida xizmat to‘lovlari miqdorini oshirib borish bilan birga mansabni suiste‘mol qilish, tamagirlik, poraxo‘rlik kabi vositalardan foydalanar edilar. Birgina misol, indulgenziyalar (lotincha ihduigehtia – rahm-shafqat degan ma’noni anglatadi) joriy qilib, uni sotishni keng yo‘lga qo‘yish asnosida katta iqtisod qilganlar.

Islom dinidagi ilk bo‘linish ham moddiy manfaatdorlikdan boshqa narsa emas. Xususan, VII-asrning o‘rtalarida turli guruhlarining siyosiy hokimiyat uchun o‘zaro kurashlari natijasida paydo bo‘lgan bo‘linish zamirida ma’naviy barkamollikni saqlab qolish emas balki, hukmronlikka erishish asnosida iqtisod qilish yotganligi oddiy haqiqat.

To‘rtinchidan, diniy e‘tiqoddagi uzilish va sun‘iy tarzda yondashuvning avj olishi. Tarixdan bizga ma‘lumki, Sharq mamlakatlarida so‘ngi ming yillik mustamlakachilik siyosati ta‘sirida o‘tdi. Buning natijasida insonlar e‘tiqodida tom ma‘nodagi emirilish yuzaga keldi. Xususan, XX-asrda dunyoning ikki tizimga bo‘linishi tufayli yuqoridagi muammolar (diniy e‘tiqoddagi bo‘linish, turli manfaatlarni siyosiy-iqtisodiy tus olishi) bir oz (vaqtinchalik) ortga surildi.

Ammo XX-asrning oxirida kommunistik tuzum va mafkuraning mag‘lubiyati sababli oldingi muammolar yana qalqib chiqa boshladi. Ya‘ni industrial davlatlar bilan rivojlanayotgan va qoloq davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning avj olishi natijasida mazkur muammolar turli ko‘rinishlarda, xususan din sohasida o‘ta keskin tus oldi. Buning oqibatida hech bir diniy qarashlarga to‘g‘ri kelmaydigan qarashlar (guruhlar)ni yuzaga kelishida zamin yaratildi. Bular qatoriga diniy ekstremizm, ekstremistik ruhdagi diniy oqimlar o‘ta jangarilik, murosasizlik g‘oyalari bilan qurollangan, dunyoviy g‘oyalar va dindagi modernistik yo‘nalish tarafdorlarini ta‘qib etuvchi, hatto terrorchilik vositasida jismonan yo‘q qilishgacha boruvchi ashaddiy kuchdir.

Din – jamiyatdagi shaxs munosabatlarini tartibga solib turuvchi, inson ichki dunyosini shakllantirishning eng ta‘sirchan vositalaridan biri hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda ijtimoiy ong shakli hisoblangan bu tushunchadan turli maqsadlar yo‘lida foydalanish ortib bormoqdaki, natijada inson omiliga qarshi kurashda din birlamchi vosita bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda diniy tahdid bu – diniy

g'oya va mafkuralar bilan niqoblangan yovuz niyatli kuchlar o'rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi demakdir. Bu jarayonda asosiy ob'yekt inson ongi hisoblanib, unga ta'sir etish yo'nalishlari turli tumandir. Bugungi kunda dunyoda mohiyati va udumlar shakliga ko'ra turli ko'rinishdagi diniy qarashlar mavjud bo'lib, ularning umumiy soni ikki yuzga yaqindir. Ular bir xudoli va ko'p xudoli, urug'-qabilaviy, milliy va jahon dinlari bo'lishi mumkin. Ammo asosiy masala, ularning sonida emas balki e'tiqodiy bo'linishida bo'lib qolmoqda.

Aynan mana shu bo'linish sabab turli-xil ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar yuzaga kelib, inson ruhiyatiga sokinlik, xotirjamlik, ma'naviy madad berish uchun asrlar osha shakllanib kelgan «din» – azob beruvchi, ma'naviy qashshoqlik sari harakatlantiruvchi vosita bo'lib qolmoqda. Savol: insonni ma'naviy kamolot sari etaklovchi, uning qalbida yaxshi va yomon (savob va gunoh, halol va harom) tushunchalarini uyg'otish uchun asrlar osha shakllanib kelgan bu fenomenga nisbatan bunday (salbiy) tamg'alarning bosilishiga kim yoki nima sabab bo'lmoqda? Albatta javoblar turli tuman bo'lishi tabiiy, ammo quyida asosiy sabablarni keltirib o'tamiz:

Birinchidan, diniy qarashlar o'rtasidagi bo'linishning kelib chiqishi. Umuman, har qanday dinda bo'linish sabablari o'zaro bog'liq bo'lgan turli jarayonlar ta'sirida paydo bo'ladi. Masalan, diniy aqidalarning barqarorligi yoki kam o'zgaruvchanligi sababli diniy aqida va jamiyatdagi ijtimoiy taraqqiyot (inson dunyoqarashidagi o'zgarish) o'rtasidagi tafovut sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, diniy ta'limotning turli millatlar va elatlarning madaniyati, urf-odatlar va an'analariga moslashishi natijasida diniy ta'limotga bo'lgan munosabat jarayonida ham bo'linish yuzaga keladi. Natijada turli-xil kuchlar o'rtasidagi manfaatlar tuqnashuvi yuzaga kelib, jamiyatning faol sub'yekti hisoblangan inson va uning qalbi zarar ko'radi.

Ikkinchidan, diniy e'tiqodning siyosiylashuvi. O'rta Osiyo arxiyepiskopi Vladimir shunday degan edi: «Din – samoviy ishdir, siyosat – dunyoviy ishdir, din peshvolarining siyosatga aralashishlari kerak emas, ular ta'lim-tarbiya berishlari lozim». Afsuski o'z vakolati va darajasidan foydalanib, din sofligiga rahna solinishiga sababchi bo'layotgan «peshvolar» ham topilmoqdaki, ularning faoliyati jamiyat va inson tadrijiyligiga faqat va faqat zarar keltirmoqda. Natijada ular orasidan etishib chiqqan

ayrim etakchilar fikricha dinning siyosat va siyosiy hayotga betarafligi butunlay nojoizdir, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiladigan diniy mafkurani ishlab chiqish, ijtimoiy hayotda din ustuvorligini ta'minlash eng to'g'ri yo'ldir. Ming afsuski bunday qarashlar tarafdorlari hozirgi davrda turli yo'nalishlardan inson ongiga ta'sir etib, nafaqat inson, balki jamiyat taraqqiyotiga ham jiddiy tahdid solmoqda.

Uchinchidan, din bayrog'i ostida iqtisodiy imkoniyatlarni ochishga harakat qilish. Aslida dinning bo'linishi ham siyosiy lashuvi ham iqtisodiy imkoniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, jahon dini hisoblangan buddaviylik ta'limoti jamiyatning kastalarga bo'linishini inkor etadi. Ammo Hindistondagi ijtimoiy muhit (insonlar o'rtasidagi tabiiy tabaqalanish) kastalarga bo'linishni saqlab qoldi, buning natijasida buddaviylik davrida ham tabaqalanish o'z kuchida qoldi. Mantiqan o'ylab qarajak, bu jarayonda ham bitta asosiy sabab mavjud edi, ya'ni iqtisodiy manfaatning ustuvorligi.

Hind mutafakkiri M. Gandi ham diniy qoida va an'analarga sodiq qolgan holda diniy aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurash olib borgan. Jamiyatning kastalarga bo'linishini va ular o'rtasidagi tengsizlikni qoralagan. Xotin-qizlarning tengligi va ularning haq-huquqi uchun kurashgan, ammo jamiyatdagi tabaqalanishni tugata olmadi. Xristianlik dini tarkibida katolik, pravoslav, protestantlik yo'nalishlarini paydo bo'lishida nima sabab bo'ldi! iqtisodiy manfaat va tafovutdan boshqa sabablar ikkinchi darajali hisoblanadi. Tarixiy fakt: o'rta asrlarda aholi daromadning o'ndan bir qismini soliq shaklida cherkovga to'lagan. Ruhoniylar tushumlarni ko'paytirish maqsadida xizmat to'lovlari miqdorini oshirib borish bilan birga mansabni suiste'mol qilish, tamagirlik, poraxo'rlik kabi vositalardan foydalanar edilar. Birgina misol, indulgensiya (lotincha ihduigehtia – rahm-shafqat degan ma'noni anglatadi) joriy qilib, uni sotishni keng yo'lga qo'yish asnosida katta iqtisod qilganlar.

Islom dinidagi ilk bo'linish ham moddiy manfaatdorlikdan boshqa narsa emas. Xususan, VII asrning o'rtalarida turli guruhlarining siyosiy hokimiyat uchun o'zaro kurashlari natijasida paydo bo'lgan bo'linish zamirida ma'naviy barkamollikni saqlab qolish emas balki, hukmronlikka erishish asnosida iqtisod qilish yotganligi oddiy haqiqat.

To'rtinchidan, diniy e'tiqoddagi uzilish va sun'iy tarzda yondashuvning avj olishi. Tarixdan bizga ma'lumki, sharq mamlakatlarida so'ngi ming yillik mustamlakachilik siyosati ta'sirida o'tdi. Buning natijasida insonlar e'tiqodida tom ma'nodagi emirilish yuzaga keldi. Xususan, XX asrda dunyoning ikki tizimga bo'linishi tufayli yuqoridagi muammolar (diniy e'tiqoddagi bo'linish, turli manfaatlarni siyosiy-iqtisodiy tus olishi) bir oz (vaqtinchalik) ortga surildi. Ammo XX asrning oxirida kommunistik tuzum va mafkuraning mag'lubiyati sababli oldingi muammolar yana qalqib chiqq boshladi. Ya'ni industrial davlatlar bilan rivojlanayotgan va qoloq davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarning avj olishi natijasida mazkur muammolar turli ko'rinishlarda, xususan din sohasida o'ta keskin tus oldi. Buning oqibatida hech bir diniy qarashlarga to'g'ri kelmaydigan qarashlar (guruhlar)ni yuzaga kelishida zamin yaratildi.

Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga etdiki, endi mafkuraviy kurash, ma'naviy salohiyat etakchi o'ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, balki «fikrga qarshi faqat fikr, g'oyaga qarshi faqat g'oya» bilan kurashib olg'a borish mumkin. Kimning mafkurasi, milliy g'oyasi kuchli bo'lsa, o'sha yengib chiqadi. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda.

Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo'l urayotgan yovuz kuchlar o'z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bugungi kunda ularning aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini o'zlariga ma'qul bo'lgan g'oya bilan egallashlari ya'ni buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g'oyalarini singdirish kabi g'arazli maqsadlari xalqqa ayon bo'lib bormoqda.

8.3. Ma'naviy tahdid tushunchasi: yondashuvlar va talqinlar. Milliy nizo turlari va tahdidlar.

Axborot asri bo'lgan XXI-asrda insoniyatning virtual olam bilan bog'langanlik darajasi oshib bormoqda. Virtual reallik orqali inson qabul qilayotgan informasiya miqdori oshib, ba'zi bir holatlarda inson ularni analiz qilishga qodir bolmay qolmoqda.

Axborot xurujlariga qarshi kurashishning samarali usuli, unga qarshi tura oluivchi kadrlar guruhini tashkil qilishdir. Davrimiz yoshlarining qiziquvchanligini hisobga olgan holda mamlaktimizda axborot-resurs markazlarining sonini oshirish va orqali ularning "feyk" xabarlar ta'siridan asrash nazarta tutiladi. Mafkuraviy tahdid – jamiyat, davlat, yoki xalq, millat, elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmui. Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o'z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo'rqituv, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga singdirishi.

Globalashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo'lgan turli-xil noan'anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bulardan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali millatlarning qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy tahdidlar hisoblanadi.

Masalan, keyingi yillarda ko'plab namoyish etilayotgan jangarilik filmlarini olaylik. Bu filmlarni ko'pchilik, ayniqsa, yoshlar maroq bilan ko'radi, chunki odamzod tabiatan mana shunday to'polonlarni tomosha qilishga moyil. Aslida, menining nazarimda, odamning qalbida ikkita kuch- bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi. Afsus bilan ta'kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vahshiylik, ur-yiqit instinktlari, ya'ni hatti-harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq.

Shuning uchun ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizlikni o'rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko'r-ko'rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. Chunki

ular bunday uydirma talqinlar ta'sirida qo'l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishini tushunib etmaydi". Darhaqiqat, bugun olimlarimiz tomonidan bunday tahdidlarning millat va jamiyat taraqqiyoti uchun, ma'naviy parokandalikni keltirib chiqarishga qaratilgan zararlari ilmiy asosini topib bormoqda. Prezidentimizning fikri naqadar to'g'ri ekanligini olimlarimiz tomonidan o'rganilgan quyidagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Bundan etti –sakkiz yil ilgari AQShning Kolorado shtatiga qarashli shaharchada ikki nafar o'quvchi sinfdoshini otib o'ldirgani, oxiri o'zlarining joniga qasd qilgani haqidagi shov-shuv dunyoga tarqaladi. Kompyuterdagi mashhur "DOOM" o'yinidan ta'sirlangan bolalar ana shunday mudhish qotillik sodir etdilar.

Bugungi kunda "Ma'naviy tahdid" tushunchasi keng ishlatilmoqda. Ba'zida bu tushunchaning ma'nosini anglash qiyin kechmoqda. Ma'naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg'ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki "Tahdid" so'zi xavf-xatar, xuruj va buzish ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda ma'naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar hisoblanadi.

Yangi jamiyat barpo etish sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy hayotda turli mazmunda, turli maqsadda, turli shaklda munosabatlar paydo bo'ladi.. O'zbekiston uchun ham shunday rang-barang munosabatlar davom etmoqda. Ayniqsa, chetdan turib ongli va maqsadli ravishda uyushtirilayotgan ma'naviy tahdidlar bunday munosabatlarning asosini tashkil qilmoqda. Bugungi kunda ma'naviy tahdidlar bir necha xil ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'naviy tahdidlar tili, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar har bir insonga qaratilgan. Bundan maqsad:

- birinchidan, shaxsning ma'naviy-axloqiy olamini buzish;
- ikkinchidan, o'z vatani va jamiyatiga nisbatan yovuzlik fikrini uyg'otish;
- uchinchidan, milliy axloqiy qadriyatlarni aynitish;
- to'rtinchidan, o'z galar jamiyatini ideal deb bilish ko'nikmasini hosil qilish;
- beshinchidan, zararli odatlarga xuruj qo'yish.

Diqqat qilsak ma'naviy tahdidlarning barcha turi nosog'lom turmush tarzi bilan bog'liqligiga va u mafkuraviy nuqtai nazardan eng xavfli omil ekanligiga amin

bo‘lamiz. Chunki uning negizini shaxs tarbiyasini izdan chiqarishga qaratilgan zararli g‘oya tashkil etadi.

S.M. Yo‘ldosheva tadqiqotlariga ko‘ra, ma’naviy tahdidlar bir necha ko‘rinishdan iborat bo‘lib, birinchi ko‘rinish mafkuraviy xurujlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bunda asosiy e’tibor shaxs fikrini buzish, shaxs dunyoqarashini aynitish va shaxs pozitsiyasini o‘zgartirishga qaratiladi. Noto‘g‘ri fikrlash, mutaassibona dunyoqarash va zararli hayotiy pozitsiya shaxsning mafkuraviy nosog‘lomligini anglatadi.

Ma’naviy tahdidning ikkinchi ko‘rinish g‘oyaviy tahdididir. Bu xuruj ham uch ma’noga ega bo‘lib, bunda asosiy e’tibor shaxs xulq-atvorini aynitish, shaxs axloqiy munosabatlarini izdan chiqarish va shaxs muomalasini buzishga qaratiladi. Zararli xulq-atvor, nosog‘lom axloqiy munosabat va qo‘pol muomala shaxsning xulqi zaifligidan dalolat beradi.

Ma’naviy tahdidning uchinchi ko‘rinishi informatsion xujumdur. Bunda asosiy e’tibor shaxsga noto‘g‘ri ma’lumot berish, shaxs bilimni primitlashtirish va shaxs faoliyatini zaiflashtirishga qaratiladi. Noto‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lish, sayoz bilimlilik va samarasiz faoliyat shaxsning madaniy oqsoqligidan dalolatdir. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy tahdidlar jamiyat kishilarini johil kimsalarga aylantiruvchi ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlaridir. Ma’naviy tahdidlarni o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

✓ birinchidan, ma’naviy tahdidlar nosog‘lom turmush tarzi asoratidir;

✓ ikkinchidan, ma’naviy tahdidlar ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini ifodalaydigan sub’ektiv omillar majmuidir;

✓ uchinchidan, ma’naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongini buzish vositasida jamiyat hayotini izdan chiqarishga, nosog‘lom turmush tarzini yoyishga yo‘naltirilgan.

Nosog‘lom turmush tarzi asoratlari natijasida ma’naviy tahdidlar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: Xudpisandlik - bu illat jamoatparvarlik fazilatlariga qarshi o‘laroq, shaxs axloqiy ongida noto‘g‘ri tushuncha va qarashlarni hosil qiladi. Shu sababli xudpisand kimsalarda burch va mas’uliyat tuyg‘usi bo‘lmaydi. Bundaylar faqat bugungi kunni o‘ylab yashaydi, ertangi kunni o‘ylash, ezgulik va haqiqat uchun kurashish fazilatlaridan xoli bo‘ladi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda

ma'naviy tahdidlar quyidagi illatlarni targ'ib qilayotgani bilan namoyon bo'lmoqda: xudbinlik, nopoklik, nafs qutqusiga uchish, huzur-halovatga berilish, engil-yelpi umr kechirishga da'vat, giyohvandlik, mutaasiblik, tajovvuzkorlik, molu-dunyoga o'chlik, axloqiy buzuqlik, zo'ravonlik, axloqsizlikni madaniyat deb bilish, va aksincha asl ma'naviy qadiryatlarni eskilik sarqiti deb qarash, loqaydlik, mahalliychilik, hasadgo'ylik, baxllik, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik.

Bunday ma'naviy axloqiy tubanlik illatlariga qarshi shaxs axloqida eng muhim insoniy sifat va fazilatlarni shakllantirishga diqqat qilinishi kerak. Bunday sifat va fazilatlarning asosiylari quyidagilar: insoniylik, mehr-oqibatlilik, ezgulik, vatanparvarlik, haqgo'ylik, adolatlilik, muruvatlilik, sahovatlik, vatanparvarlik, oilaparvarlik, hamkorlik, totuvlik, ahillik, inoqlik, tashabbuskorlik, birodarlik va faollik. Bular shaxsning ongi va qalbida sezgirlik, ogohlik va hushyorlik holatlarini hosil qiladi. Shu ma'noda ma'naviy tahdidlardan shaxs axloqini himoya qilish yo'lining eng samarali usuli shaxsda axloqiy immunitetni hosil qilishdir. Bunday immunitet shaxs axloqida ideal darajadagi sifat va fazilatlarni shakllantirishni taqazo etadi.

Xalqimiz ma'naviyatini asrash va uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodni turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy tahdidlardan himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy leksikonimizda nisbatan yangi kirib kelgan "Ma'naviy tahdid" tushunchasiga turlicha yondoshuvlar mavjud. Falsafa fanlari doktori G.Tulenovning «O'zbekistonda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash muammolari» maqolasida mafkuraviy tahdidlar, jumladan terrorizm, aqidaparastlik va diniy ekstremizm ma'naviy tahdid sifatida qaralgan.

Rossiyalik tadqiqotchilarning "Rossiya ma'naviy xavfsizligi (ma'naviy xavfsizlikning dolzarb nazariy-metodologik va amaliy muammolari) nomli ilmiy – metodik qo'llanmasida ma'naviy tahdidlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Mazkur qo'llanmada hozirgi vaqtda ma'naviy xavfsizlikka etarli darajada e'tibor qaratilmayotganligi ta'kidlangan va ma'naviy tahdidlar sifatida demografik va diniy ongga ta'sir etuvchi tahdidlar tahlil qilingan.

Y.A.Boksha ma'naviy tahdidlar sifatida Rossiya oilalari turmush tarziga qaratilgan destruktiv xarakterdagi, ma'naviy qarama-qarshiliklarni kelib chiqishiga sababchi bo'luvchi jarayonlarni rivojlantiruvchi omillarga e'tibor qaratgan. Shuningdek hozirda oilalarning hayotiga qarshi qaratilgan radikal femenizm mafkurasi, gey – madaniyati – g'oyasini tarqalishi (ommalashuvi), shahvatparastlikning (erotizm) targ'iboti, Rossiya oilasida egoistik (xudbinlik) qadriyatlarining majburan qabul qilinishi, bozor ideallarining o'z navbatida ma'naviy asoslarga salbiy ta'sirini ma'naviy tahdidlar sifatida baholagan. Ma'naviy tahdidlar keng qamrovli bo'lib, mazkur yondoshuvlarda ularning u yoki bu jihatlari hisobga olingan.

XXI asr bo'sag'asida tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, u yoki bu davlatning, millatning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti, uning kelajagi mazkur millatga xavf solayotgan tahdidni angalab etish salohiyati va qobiliyati darajasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

“Tahdid” deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, to'g'rirog'i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, emirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning “kirib kelishi” tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim.

“Tahdid” fenomeni, uning siyosiy jihatlari sayyoramizning turli mamlakatlarida ijod qilayotgan zamondosh tahlilchilar hamda siyosiy va jamoat arboblarning e'tiborini ham o'ziga tortib kelmoqda. Shu jumladan, Reyshauer, Nibur, Xantington, Kissinjer (AQSh), Toynbi (Angliya), Turen (Fransiya), Moiseev (Rossiya), qolaversa “Rim klubi” va Paguosh tinchlik harakati kabi ilmiy-amaliy muassasalar rahbarlari va fidoiylari faoliyatini misol tariqasida keltirish mumkin.

Bugungi kunda bu mavzuga daxldor masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi hamda Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti jamoasi, mamlakatimiz jamiyatshunos olimlari tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Uning mohiyati va funksional jihatlari barqarorlik, xavfsizlik, fuqaroviy hamjihatlik va taraqqiyot kabi global muammolar bilan uyg'un

holda tadqiq etilmoqda. Tahdidlar turli-tuman: ichki va tashqi, katta va kichik, makon nuqtai nazaridan esa uzoq va yaqin bo'lishi mumkin. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularga nisbatan bamaylixotirlikka yo'l qo'yish yoki ularni "saralash" bilan ovora bo'lib vaqtni boy berish hollari uchrab turadi. XX asr voqealari shundan guvohlik berib turibdiki, tahdidlarni toifalashda ularni shartli ravishda iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ekologik, demografik, mafkuraviy, harbiy, tabiiy – iqlimiy va ma'naviy tahdidlarga ajratib ko'rish va tahlil etish mumkin. Milliy nizo turlari:

- fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq kelib chiqadigan nizolarga;
- yakka mehnat nizolariga;
- oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga.

Hozirda biz keng ko'lamda foydalanib kelayotgan internet ombori o'ziga barchani ohangrabodek tortmoqda. Bugun dunyoda o'z ta'sir doirasini kengaytirish, kishilar ongini boshqarishga urinayotgan g'arazli kuchlar ham borki, ular Internetdan qurol sifatida foydalanishmoqda. Hozirgi kunda axborot oqimining ko'pligi bois ma'lumotlarning hammasini tahlil qilishga, obdon fikr yuritishga ulgurilmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilayotgan ma'lumotlarning ta'sir yetishi turli kurinishlarda bo'lmoqda. Avvalo bunga yoshlarning yendigina kurtak yozayotgan tafakkur tarzi reaksiya tasirga uchramoqda. Bu yesa ma'lumotni qabul qilishdan avval uni analiz qilib olish funksiyalari yetarli darajada ishlamayotganidan dalolatdir. Buning oqibati o'laroq yoshlar orasida ahloqsizlikning kuchayishi, milliy mentalitetga umuman yod g'oyalarning yoshlar ongida rivojlanishi, oilalarning buzilishi kabi ayanchli holatlarni kuzatishimiz mumkin.

Tayanch iboralar: shaxs, axborot, psixolog, din, madaniy, tadbir, xavfsiz, tushuncha, tasnif, tahdid, yondashuv.

Nazorat savollari:

1. Milliy madaniyatlarga qanday tahdidlar bor?
2. Madaniy xavfsizlik nima?
3. Globallashuv insoniyat uchun qanday tahdidlarni keltirib chiqarmoqda?
4. Nima uchun milliy qadriyatlarni asrab-avaylash kerak?
5. Milliy xavfsizlikni qanday ta'minlash mumkin?

IX. BOB. AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING G'UYAVIY-NAZARIY ASOSLARI.

9.1. Axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari.

Dunyo rivojlanib borgan sari uning biz payqamay qolgan, ammo o'ta dolzarb bo'lgan qirralari chiqib bormoqda. Virtuallik orqali ommaviy madaniyat globallashib bormoqda. Albatta bu juda yaxshi. Chunki jahonda bo'layotgan voqea hodisalar va yangiliklardan tez fursatlardan habardor bo'lish zamon talabidir. Respublikamizda olib borilayotgan tub iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar negizida ham aynan mana shunday omillar turibdi desam mubolag'a bo'lmaydi. Professor Sh.S.Kushakov fikricha, kompyuter asri yangi dezinformasiyani vujudga keltirdi, ya'ni feykli dezinformasiya. Demak virtual olamda ko'proq yolg'on ma'ulomotlar tarqatish, kishilarni aldash, chalg'itish oson kechmoqda.

Axborot xavfsizligini ta'minlash – bu foydalanuvchining axborotlarini himoyalashga quyilgan me'yori va talablarni bajarishidir. Axborot xavfsizligi esa bu axborot foydalanuvchilariga va ko'plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun'iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta'sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim ob'ektlarining himoyalanganligidir.

Login tushunchasi. Login – shaxsning, o'zini axborot kommunikatsiya tizimiga tanishtirish jarayonida qo'llaniladigan belgilar ketma-ketligi bo'lib, axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish huquqiga ega bo'lish uchun foydalaniluvchining maxfiy bo'lmagan qayd yozuvi hisoblanadi.

Parol tushunchasi. Parol – uning egasi haqiqiylikni aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlatiladigan belgilar ketma-ketligi. U kompyuter bilan muloqot boshlashdan oldin, unga klaviatura yoki identifikatsiya kartasi yordamida kiritiladigan harfli, raqamli yoki harfli-raqamli kod shaklidagi mahfiy so'zdan iborat.

Avtorizatsiya tushunchasi. Avtorizatsiya – foydalanuvchining resursdan foydalanish huquqlari va ruxsatlarini tekshirish jarayoni. Bunda foydalanuvchiga hisoblash tizimida ba'zi ishlarni bajarish uchun muayyan huquqlar beriladi. Avtorizatsiya shaxs harakati doirasini va u foydalanadigan resurslarni belgilaydi.

Ro'yxatdan o'tish tartibi. Ro'yxatdan o'tish – foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va ularga dasturlar va ma'lumotlarni ishlatishga huquq berish jarayoni. Ayrim veb-saytlar foydalanuvchilarga qo'shimcha xizmatlarni olish va pullik xizmatlarga obuna bo'lish uchun ro'yxatdan o'tishni, ya'ni o'zi haqida ayrim ma'lumotlarni kiritishni (anketa to'ldirishni) hamda login va parol olishni taklif qiladilar. Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgandan so'ng tizimda unga qayd yozuvi (account) yaratiladi va unda foydalanuvchiga tegishli axborotlar saqlanadi²³.

Login va parolga ega bo'lish shartlari. Biror shaxs o'zining login va paroliga ega bo'lishi uchun u birinchidan axborot kommunikatsiya tizimida ruyxatdan o'tgan bo'lishi kerak va shundan so'ng u o'z logini va parolini o'zi hosil qilishi yoki tizim tomonidan berilgan login parolga ega bo'lishi mumkin. Login va parollar ma'lum uzunlikdagi belgilar ketma-ketligidan tashkil topadi. Login va parollarning uzunligi va qiyinligi uning qanchalik xavfsizligini ya'ni buzib bo'lmasligini ta'minlaydi.

Login va parolni buzish. Login va parolni buzish – bu buzg'unchining biror bir maqsad yo'lida axborot kommunikatsiya tizimi ob'ektlaridan foydalanish uchun qonuniy tarzda foydalanuvchilarga tegishli login va parollarini buzishdir. Bunda maxsus dastur yordamida login va parollar generatsiya qilib topiladi. Login va parollarning uzunligi bu jarayonning uzoq vaqt davom etishiga yoki generatsiya qilaolmasligiga ishora bo'ladi.

Login va parolni o'g'irlash. Login va parolni o'g'irlash – bu foydalanuvchilarning mahfiy ma'lumotlari bo'lgan login va parollarga ega bo'lish maqsadida amalga oshiriladigan internet firibgarligining bir turidir. Bu mashhur brendlar, masalan, ijtimoiy tarmoqlar, banklar va boshqa servislar nomidan elektron xatlarni ommaviy jo'natish yo'li orqali amalga oshiriladi. Xatda odatda tashqi ko'rinishi asl saytdan farq qilmaydigan saytga to'g'ri ishorat mavjud bo'ladi. Bunday saytga tashrif buyurgan foydalanuvchi firibgarga akkauntlar va bank hisob raqamlariga kira olishga ega bo'lishga imkon beruvchi muhim ma'lumotlarni bildirishi mumkin. Fishing – ijtimoiy injeneriyaning bir turi bo'lib, foydalanuvchilarning tarmoq xavfsizligi asoslarini

²³ www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Miliy kutubxonasi.

bilmasligiga asoslangan. Jumladan, ko'pchilik oddiy faktni bilishmaydi: servislar qayd yozuvingiz ma'lumotlari, parol va shu kabi ma'lumotlarni yuborishni so'rab hech qachon xat yubormaydi.

Resurslardan ruxsatsiz foydalanish va uning oqibatlari. Axborot-kommunikatsiya tizimining ixtiyoriy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan hamda axborot tizimi taqdim etadigan imkoniyat mavjud bo'lgan resurslardan belgilangan qoidalarga muvofiq bo'lmagan holda foydalanishni cheklash qoidalariga rioya qilmasdan foydalanish – bu resurslardan ruxsatsiz foydalanish toifasiga kiradi. Bunday foydalanish natijasida quyidagi oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:

axborotning o'g'irlanishi;

axborotni o'zgartirish;

axborotning yo'qotilishi;

yolg'on axborotni kiritish;

axborotni qalbakilashtirish va h.k.

Kompyuter virusi – bu o'z-o'zidan ko'payuvchi, kompyuter tarmoqlari va axborot tashuvchilari orqali erkin tarqaluvchi, hamda kompyuter va unda saqlanayotgan axborot va dasturlarga zarar etkazuvchi dastur kodi yoki komandalar ketma-ketligi hisoblanadi. Kompyuter viruslari quyidagi xossalarga ega: o'zidan nusxa ko'chirish, axborotdan ruxsatsiz foydalanishni amalga oshirish. U o'zining nusxalarini kompyuterlarda yoki kompyuter tarmoqlarida qayta ko'paytirib va tarqatib, hamda qonuniy foydalanuvchilar uchun nomaqbul harakatlarni bajaradi. Virus, aksariyat hollarda nosozlik va buzilishlarga sabab bo'ladi va biror hodisa yuz berishi bilan, masalan, aniq kunning kelishi bilan ishga tushirilishi mumkin.

Viruslarning turlari va vazifalari. Viruslarni quyidagi asosiy alomatlari bo'yicha turkumlash mumkin:

yashash makoni;

operatsion tizim;

ishlash algoritmi xususiyati.

Kompyuter viruslarini yashash makoni, boshqacha aytganda viruslar kiritiluvchi kompyuter tizimi ob'ektlarining xili bo'yicha turkumlash asosiy va keng tarqalgan turkumlash hisoblanadi. Fayl viruslar turli usullar bilan bajariluvchi fayllarga kiritiladi (eng ko'p tarqalgan viruslar xili), yoki fayl yo'ldoshlar (kompanion viruslar) yaratadi yoki faylli sistemalarni (link-viruslar) tashkil etish xususiyatidan foydalanadi. Yuklama viruslar o'zini diskning yuklama sektoriga (boot - sektoriga) yoki vinchesterning tizimli yuklovchisi (Master Boot Record) bo'lgan sektorga yozadi. Yuklama viruslar tizim yuklanishida boshqarishni oluvchi dastur kodi vazifasini bajaradi.

Makroviruslar axborotni ishlovchi zamonaviy tizimlarning makrodasturlarini va fayllarini, xususan MicroSoft Word, MicroSoft Excel va h. kabi ommaviy muharrirlarning fayl-xujjatlarini va elektron jadvallarini zaharlaydi. Tarmoq viruslari o'zini tarqatishda kompyuter tarmoqlari va elektron pochta protokollari va komandalaridan foydalanadi. Ba'zida tarmoq viruslarini "qurt" xilidagi dasturlar deb yuritishadi. Tarmoq viruslari Internet-qurtlarga (Internet bo'yicha tarqaladi), IRC-qurtlarga (chatlar, Internet Relay Chat) bo'linadi.

Kompyuter viruslarining vazifalari, odatda, to'rt bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Virusni xotiraga yuklash;
2. Qurbonni qidirish;
3. Topilgan qurbonni zaharlash;
4. Destruktiv funksiyalarni bajarish.

Viruslarga qarshi kurashish usullari. Hozirgi kunda kompyuter viruslarini aniqlash va ulardan himoyalani uchun maxsus dasturlarning bir necha xillari ishlab chiqilgan bo'lib bu dasturlar kompyuter viruslarini aniqlash va yo'qotishga imkon beradi. Bunday dasturlar virusga qarshi dasturlar yoki antiviruslar deb yuritiladi. Antivirus dasturlariga AVP, Doctorweb, Nod32 dasturlarini kiritish mumkin. Umuman

barcha virusga qarshi dasturlar zaharlangan dasturlar va yuklama sektorlarning avtomatik tarzda tiklanishini ta'minlaydi. Viruslarga qarshi kurashishning asosan quyidagi usullari mavjud:

- ✚ Muntazam profilaktika ishlarini, ya'ni virusga tekshiruv ishlarini olib borish.
- ✚ Taniqli virusni zararsizlantirish.
- ✚ Taniqli bo'lmagan virusni zararsizlantirish.

Hujum tushunchasi – buzg'unchining biror bir maqsad yo'lida axborot kommunikatsiya tizimlarining mavjud himoyalash tizimlarini buzishga qaratilgan harakati. Axborot hujumlari va undan saqlanish qoidalari. Axborot hujumlari odatda 3 ga bo'linadi:

- 1.Ob'ekt haqida ma'lumotlar yig'ish (razvedkalash) hujumi.
- 2.Ob'ektdan foydalanishga ruxsat olish hujumi.
- 3.Xizmat ko'rsatishdan voz kechish hujumi.

Axborot xujumlaridan saqlanishda birinchi navbatda axborot kommunikatsiya tizimi ob'ektlariga qilinayotgan hujumlarni topib olishda qo'llaniladigan mexanizm va vositalarni qo'llash kerak. Bularga tarmoqlararo ekran (FIREWALL) va hujumlarni aniqlash (IDS) vositalarini misol tariqasida keltirish mumkin. Xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimga muvofiq hamkorlikni amalga oshirish jarayonida tomonlar xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi mavjud quyidagi asosiy tahdidlardan kelib chiqadi:

- 1) informatsion urushga tayyorlanish va olib borish, informatsion qurolni ishlab chiqish va qo'llash;
- 2) axborotga oid terrorizm;
- 3) axborotga oid jinoyatchilik;
- 4) axborot makonida boshqa davlatlarning manfaatlari va xavfsizligiga zid ravishda ustunlik mavqedan foydalanish;

5) boshqa davlatlarning o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, axloqiy jabhalariga ziyon yetkazuvchi ma'lumotlarni tarqatish;

6) tabiiy va (yoki) texnogen xarakterga ega global va milliy informatsion infrastrukturallarning barqaror ishlashi, xavfsizligiga tahdidlar.

O'qimishli (ayniqsa, biror ishga mas'ul) kishilar aytmoqchi yoki yozmoqchi bo'lgan har bir fikrini avvalo ishonchli manbalardan o'qib, o'rganib, so'ng so'zlashi maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, har bir fanning (hatto, oddiy mavzu, ijtimoiy fikrning ham) quyidagi uchta muhim asosi bo'ladi:

1. Metodologik asosi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, nutqlari, intervyularida bayon etilgan fikrlar);

2. Huquqiy asosi (O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlar);

3. Nazariy asosi (ilmiy asoslangan kitoblar, darsliklar, qo'llanmalar, maqolalar va boshqa yozma manbalar).

Bugun oliy ta'lim muassasalarida fan sifatida o'rganilayotgan "Axborot-psixologik xavfsizlik" kursi metodologik asoslari Prezidentimizning qator asarlari va nutqlarida o'z aksini topgan. Ushbu fanning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi va boshqa qonunlarida, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-avgustdagi "Ommaviy axborot vositalari sohasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash Davlat dasturi to'g'risida"gi 163-qarorida o'z aksini topgan.

Mamlakatimizda ushbu kursning nazariy asoslarini yaratish borasida mutaxassislar izchillik bilan izlanmoqdalar. Chunonchi, "Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik" darsligi va o'quv qo'llanmalar nashrga tayyorlangan. Oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalariga kiritilgan "Ochiq axborot tizimlarida axborot-

psixologik xavfsizlik” kursida asosan yurtimizga chetdan amalga oshirilayotgan mafkuraviy tahdidlar, inson ruhiyatiga salbiy ta’sir etadigan buzg‘unchi g‘oyalar, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi “axborot xurujlari”ning salbiy oqibatlarini hamda ularga qarshi kurash, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni oshirish usullari nazariy va amaliy jihatdan o‘rganiladi. Axborot texnologiyalari beqiyos darajada rivojlanib, dunyo yagona axborot makoniga aylanishi barobarida “axborot xuruji”, “axborot-psixologik xavfsizlik”, “mafkuraviy immunitet”, “globallashuv” degan so‘z va atamalar kirib keldi. “Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik” kursida o‘rganiladigan ana shu so‘z va atamalar ma’nosi tegishli qonunlarda, qomusiy lug‘atlarda va boshqa adabiyotlarda aniq bayon etilgan.

So‘nggi yillarda “mafkuraviy immunitet” atamasi siyosat va mafkuraga oid adabiyotlarda keng qo‘llanilmoqda. Unda shaxs, millat, jamiyat, davlatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qiluvchi g‘oyaviy-nazariy qadriyatlar o‘z ifodasini topgan. Shu o‘rinda bir mulohaza. Har bir fanni o‘rganishda avvalo uning qisqacha tarixi va mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratiladi. Ma’lumki, ko‘p fanlar ibtidosi oilada o‘rgatiladi. Eshitgan ertaklarimiz – adabiyot fani ibtidosi bo‘lsa, sanashni o‘rganish – matematikaning ilk sabog‘idir. O‘simliklar dunyosi – botanika, jonivorlar – zoologiya, quyosh va oyning chiqib-botishi – astronomiya, chaqmoq chaqib, yomg‘ir yog‘ishi – tabiat va fizika fanlari haqida tasavvur uyg‘otgan. Ota-onamiz ruhiyatimizga singdirishgan odob-axloq va tarbiya zamirida milliy g‘oya, sharqona falsafa, etika-estetika fanlari ilk saboqlari mujassamligini anglash qiyinmas. Oilada hatto tarix, diniy qadriyatlardan ham saboq berishgan. Huquqbuzar qanday jazoga tortilishini ham qulog‘imizga quyishgan: “o‘g‘irlik yo bezorilik qilsang, melisa qamab qo‘yadi...” Demak, qonunchilik qirralari ham go‘daklikdayoq qalbimizga jo bo‘lgan...

Shular qatorida turli xil “axborot xurujlari”dan himoyalaniş uchun mafkuraviy immunitetni oshirish muammosi ham oila tarbiyasidan chetda qolmagan. Onalarimiz ilk bora nima yaxshi-yu nima yomonligini o‘rgatishgan. Mana bu yaxshi, bunisi – yomon, uni og‘zingga solma!.. Yomon bolalarga qo‘shilma, mana bu gapdan ehtiyot bo‘l, unga ishonma va hokazo. Shu tariqa murg‘ak qalbimizda yomon narsalarga, bo‘lmag‘ur gap-so‘zlarga salbiy hodisalarga qarshi immunitet paydo qilishgan! Yana bir qiziq hol;

go‘dakligimizda ayrim qo‘ni-qo‘shnilarning oilamizga nisbatan “axborot xurujlari”ga qarshi kurash usullarini ham o‘rgatishgan. Endigina tili va oyog‘i chiqib, ko‘chaga o‘ynagani otlangan bolasining qulog‘iga ayrim onalar “kerakli” gaplarni quyib qo‘yadi...

Shu tariqa “axborot xurujlari”ga qarshi immuniteti yuqori darajada bo‘lgan ayrim bolakaylarning ko‘cha-ko‘ylarda oilalari, qolaversa, qishlog‘i, mahallasi, shahri sha‘nini qanchalik himoya qilayotganini kuzatgan bo‘lsangiz kerak. Oila – hayot beshigi. “Bola tug‘ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an‘analar, qadriyatlar urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi, – deb ta’kidlagan davlatimiz rahbari.– O‘zbek oilasi mustabidlik zamonida ham o‘zining tarixan shakllangan qiyofasini yo‘qotmadi”. Ko‘rinib turibdiki, farzandlarida ilk mafkuraviy immunitet hosil qilinishi oila tarbiyasining tabiiy jarayoniga aylangan. Yaxshi va yomonni farqlash, yomon gaplardan ehtiyot bo‘lish mavzusi quyidagi maqolu naqlarimizda ham o‘z ifodasini topgan: “Yaxshiga ergashding – etding murodga, yomonga ergashding – qolding uyatga”, “Qozonga yaqin yursang – qorasi yuqadi, yomonga yaqin yursang balosi uradi”, “Yaxshi gap ham, yomon gap ham bir og‘izdan chiqadi”, “Mish-mishga ishongan – harom o‘larmish”, “Yaxshi gap – jon ozig‘i”, “Yaxshi gapdan ilon inidan, yomon gapdan qilich qinidan chiqar”, “O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir”, “Gapni gapir uqqanga – jonni jonga suqqanga”, “Bir yomonni ko‘rmay yaxshining qadriga etmaysan” va hokazo. Bu maqolu naqlar zamirida odamning ongi zaharlanib qolishidan saqlanish g‘oyalari ham mujassam.

Oila tarbiyasi maktab ta’limiga payvasta bo‘ladi. Ya’ni, oiladagi ilk tasavvurlar maktabda fan sifatida tushuntiriladi. Sobiq mustabid tuzum davrida qardosh respublikalarda, jumladan, bizda ham tarix, falsafa kabi ijtimoiy fanlar butunlay o‘zgacha tushuntirilar edi. Milliy ma’naviyat haqida gapirish ham mumkin emasdi. Xudo yo‘q, din – afyun, degan soxta “nazariyalar” majburan yosh avlod ongiga singdirilardi. Shunday og‘ir sharoitda mafkuraviy immunitet haqida gap bo‘lishi mumkinmidi? Yurtboshimiz juda to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, “noinsoniy g‘oya hukmron bo‘lgan mustabid tuzum o‘zining bor mafkuraviy kuchini, ommaviy axborot

vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlar edi. Ularning milliy va diniy tuyg'ularini qo'pol ravishda kamsitar, tarixiy haqiqatni buzib ko'rsatar edi. O'z ona tilini, milliy an'ana va madaniyatini, o'z tarixini bilmaslik ko'plab odamlarning shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi”.

O'sha davrda millatimizga, milliy g'ururimizga nisbatan mehr uyg'otish o'rniga aksincha unga qarshi davlat siyosati darajasida dahshatli “axborot xurujlari” qilinar edi. “Milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilar edi. Navro'z, Ramazon, Qurbon Hayiti kabi ko'plab muqaddas bayramlar taqiq etilgan edi. Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Ahmad al-Farg'oniy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddiy Kubro, Mahmud az-Zamahshariy, Xoja Ahrori Valiy, Abdulxoliq G'ijduvoni kabi buyuk ajdodlarimizning, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Usmon Nosir kabi milliy-ozodlik harakati fidoyilarining nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qilinar edi”. Agarki bugungi chet el radiosidan tarqatiladigan ig'vo va boshqa buzg'unchi gaplarni “axborot xuruji” deb atasak, butun sobiq ittifoq miqyosida yuritilgan bunaqa “siyosat”ni nima deyish mumkin? O'sha davrda ongi shakllangan yoshlarda millatga mehr uyg'otish haqida gap bo'lishi ham mumkin emasdi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, sobiq imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashardi... “Bir eslang, sho'ro zamonida, 80-yillarda sobiq markaz “o'zbek ishi”, “paxta ishi” degan uydirmalarni bahona qilib, o'zbek millati vakillarini butun dunyoga qanday ko'rsatardi? Sochi taqir qilib olingan, qalpoq kiygan, belini bog'lagan, soqol qo'ygan odamlarni, mana, bularning basharasi, deb, peshonasiga tang'a qo'yib, matbuot orqali namoyish etardi,– deb ta'kidlagan davlatimiz rahbari Islom Karimov.– Men o'sha paytda – 1989 yilda respublika rahbari bo'lib kelishim bilan, avvalambor, o'zbek xalqini shunday uydirma va tuhmatlardan saqlash, uning sha'nini asrash maqsadida, millatni dog' ostida qoldirishga qaratilgan urinishlardan xalos qilishga kirishdim. Va hozirgacha o'zbek millati hech qachon qul bo'lmagan, hech qachon bosmachi bo'lmagan, hech qachon qon to'kish tarafdori bo'lmagan, deb butun dunyoga shu fikrni anglatishga harakat qilib kelyapman. Bugun jahonda o'zbek nomi, o'zbek millatining obro'-e'tibori tan olingani shuning isboti emasmi?”.

Sobiq mustabid tuzum davrida ham millatimizga qarshi ommaviy tus olgan bunday “axborot xurujlari”ga qarshi ko‘pgina ijodkorlar dadil kurashganlar. Jumladan, atoqli shoirlar Erkin Vohidovning “O‘zbekim”, Abdulla Oripovning “O‘zbekiston – Vatanim manim” she‘rlari o‘zbek elimizga otilgan toshlarga qarshi qaratilgan edi! Yurtimiz istiqlolining dastlabki yillaridayoq milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, bobokalonlarimiz aslida qanday buyuk zotlar bo‘lgani, betakror urf-odatlar, bayram va an‘analarimiz haqida baralla ayta boshladik. Diniy qadriyatlarimiz ham ijtimoiy voqelikka aylanib ketdi. O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tutishi barobarida dunyo bilan bo‘ylasha boshladi. Kompyuter texnologiyasining ajib mo‘jizasi bo‘lmish internet kurrai zaminni yagona axborot makoniga aylantirdi. Buning ko‘pgina ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham borligini angladik. O‘sha salbiy holatlarning bitta ko‘rinishi – “axborot xuruji”dir. Oilada ana shu “axborot xuruji”ga qarshi qay tariqa immunitet paydo qilingan bo‘lsa, Vatanga qarshi xurujlarga nisbatan ham o‘z vaqtida yosh avlod ongida to‘g‘ri tasavvur hosil qilib borish ulkan zaruriyatga aylandi. Bu ijtimoiy hodisa ilmiy tadqiq qilinishi va o‘z navbatida uning siru sinoati ta’lim muassasalarida yosh avlodga o‘rgatilayotgani ham bejiz emas. Zero, davlat rahbarining iborasi bilan aytganda, “Bolalarimizning ongini va hayotini buzadigan, ertangi kuniga mutlaqo ishonchini yo‘qotadigan mana shunday g‘oyalarga qarshi biz qurol bilan emas, g‘oya bilan kurashishimiz zarur.

Bizning g‘oyamiz kuchli bo‘lishi lozim. Avvalombor, o‘zimiz, hayotning o‘zida sinalgan o‘z g‘oyamizga ishonib maydonga chiqishimiz darkor”. Sinalgan g‘oyalarimiz esa oilalarda mudom kurtak otadi. E’tibor bergan bo‘lsangiz, nuroniylar yaratgandan asosan tinchlik-xotirjamlik tilab duo qiladilar. Oila – kichik Vatan, o‘z navbatida Vatan – umumiy oilamizdir! Jonajon Vatan sarhadlari qanchalik bepoyon bo‘lsa, undagi muammolar, turfa ishlar, hatto gap-so‘zlar ham shunga yarasha bo‘lishi shak-shubhasiz. Yurtimiz istiqloli tufayli beqiyos baxtga erishdik. Endi ana shu baxtimiz poydevorini har tomonlama mustahkamlash yo‘lida qo‘lni qo‘lga berib, elkama-yelka turib kurashmog‘imiz lozim. “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi

uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin,— deb alohida ta'kidlagan davlat rahbari.— El-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida bunday mash'um xatarlarni necha bor ko'rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz”.

Demak, bunday fojiali o'tmish bugungi avlodlar uchun ham saboq bo'lishi tabiiy. Shunga yarasha yagona axborot makonida mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lish hayotiy zaruratga aylangan. Shuni aytish joizki, mamlakatimiz taraqqiyotiga, xalqimiz farovonligi yo'lidagi ulug'vor ishlarimizga to'g'anoq bo'ladigan, xalal beradigan qora kuchlar o'z maqsadlarini “axborot xurujlari” orqali amalga oshirishlari mumkinligini ayniqsa yoshlar teran anglab etmoqlari zarur. Bu boradagi oila tarbiyasi ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlariga ulanib ketayotgani ayni muddaodir.

9.2. Internetda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari.

Bugungi kunda Internetdan vaqtichog'lik va pochta xizmatidan tashqari, turli kuch va manfaatlar to'qnashuvidagi axborot quroli sifatida samarali foydalanib kelinayotganini ko'rish mumkin. Internet tarmog'ining mohiyatini tushuntirish uchun uning mantiqiy tuzilishini anglab olmoq kerak. Internetda axborotni paketli uzatish tamoyilidan foydalaniladi. Internetda tarmoqning samarali ishlashi uchun mavjud axborotni qanday qilib paketlar holatiga uzatish va yetkazilgan axborotni qayta tiklash hamda bo'laklangan paketlarni foydalanuvchiga qanday yetkazish kerakligi muammosini hal qilish lozim bo'ladi.

Internet (International Network— xalqaro kompyuter tarmog'i) butundunyoni qamrab qolgan global kompyuter tarmog'idir. Hozirgi kunda Internet dunyoning ko'plab

(150 dan ortiq) mamlakatlarida 100 millionlab abonentlarga yega. Internet dastlab faqat tadqiqot va o'quv yurtlariga xizmat qilgan bo'lsa, u ishlab chiqarish doirasida ham keng tarqalmoqda. Internet bir qancha qulayliklarga yega yekanligi bilan ajralib turadi. Bular tarmoqning tezkorligi, arzonligi, aloqaning keng qamrovli ekanligidir.

Postnoklassik fanlarda sinergetika, virtualistika, global evolyusionizm, inson muammosi yangi shaklanayotgan postnoklassik tafakkur tarzining xarakterli jihatiga aylanli. Umuman olganda internet vaqtni va mablag'ni tejashga yordam berishidan tashqari axborotlarni juda tez uzatish va qabul qilish, kerakli ma'lumotlarni juda tez izlab topish, uzogimizni yaqin qilish, onlayn suhbatlar qilish, dunyo voqealaridan qisqa fursatlarda xabardor bo'lish kabi ko'plab imkoniyatlarni yaratib beradi.

Inson internet olamida o'zini istagan qiyofada, hohlagan holatda namoyon qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan inson internet olamida, ya'ni virtual reallikda "menga hamma narsa ravo" g'oyasi asosida ish tuta boshladi. Har bir qiladigan ishimiz konstitutsiya va qonunlar bilan tartibga solinib turiladi, ammo virtual olam qonuniyatlari ba'zida real olam qonunlariga zid tarzda harakat qilishini ko'rmoqdamiz. Virtual reallikda bo'ladigan voqeya hodisalarga insonda birinchi taqlid paydo bo'ladi. Lekin inson psixikasidan bizga ma'lumki, u har doim "minus" tomonini tez ko'radi va tez o'zlashtiradi. Fikrimizning isboti sifati quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. Shunday ekan, o'zbek xalqini tanlagan yo'lidan chalgitish uchun internet orqali qilinayotgan mafkuraviy xurujlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq amalga oshiriladi.

Bugungi kunda internetda xavfsiz ishlashga quyidagi asosiy xavf va tahdidlar sabab bo'lmoqda:

- a) ma'lumotlarning, shu jumladan maxfiy ma'lumotlarning tarqalishi;
- b) xakerlik hujumlari natijasida odamlar, korporatsiyalar va butun mamlakatlar har yili jabr ko'radi, milliardlab mablag'lari, ba'zan esa hayotdan ham mahrum bo'ladilar;
- c) qonun, xavfsizlik va inson huquqlari nuqtayi nazaridan qabul qilinishi mumkin bo'lmagan tarkibni o'z ichiga olgan manbalarga ma'lum tarmoqlardan foydalangan holda kirish (masalan, "darknet" ("qorong'u veb") - "chuqur Internet" ning bir qismi ("deepweb"))»;

d) yoshlarni o‘z joniga qasd qilish, diniy, terroristik va boshqa tarmoq jamoalariga jalb qilishga urinishlar va boshqalar.

Bugungi kunda ma’lumotlaringizni himoya qilish, ijtimoiy tarmoqlarda xavfsiz muloqotni ta’minlash va kiberfazoda ishlash usullarini taklif qiluvchi ko‘plab Internet saytlari mavjud. Quyida tavsiya etiladigan bir nechta oddiy muhim qoidalar xavf va tahdidlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Ularni eslab qolish va ularga rioya qilish foydadan holi emas, deb o‘ylaymiz.

1. Ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlaringiz va istalgan saytdagi shaxsiy kabinetlaringiz uchun murakkab va noyob parollardan foydalaning.

Ularni yaratishda o‘zingiz yoki yaqinlaringizning ismlarini, tug‘ilgan sanalarini ishlatmaslikka harakat qiling. Murakkab parollarni eslab qolish qiyin bo‘lgani uchun siz maxsus ilovalarga - parol menejerlariga murojaat qilishingiz mumkin. Hisobingiz yoki shaxsiy hisobingiz uchun parolingiz kamida 10 belgidan iborat bo‘lishi va katta va kichik harflar, raqamlar va maxsus belgilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlardan iloji boricha ehtiyot bo‘ling. Hech qanday holatda maxfiy va shaxsiy ma’lumotlarni siz tanimagan odamlar bilan baham ko‘rmang. Ijtimoiy tarmoqlarda kimni do‘st sifatida taklif qilayotganingizdan kim sizning shaxsiy ma’lumotlaringizga kirishi mumkin: yashash joyi, telefon raqami va boshqa shaxsiy ma’lumotlar bilan tanishtirishga xushyor bo‘ling.

3. Maxfiylik sozlamalarini o‘zgartirishga vaqt ajrating, operatsion tizim va antiviruslarni yangilab turing, muntazam foydalanadigan brauzer va ilovalarning maxfiylik sozlamalarini tekshirishni unutmang.

4. Xavfsiz Wi-Fi ni tanlang. Umumiy tarmoqlarda hech kim sizning ma’lumotlaringiz xavfsizligini kafolatlay olmaydi. Umumiy Wi-Fi tarmoqlaridan foydalangan holda siz ulanish xavfsizligini nazorat qila olmaysiz, shuning uchun biz faqat parol bilan himoyalangan tarmoqlardan foydalanishni tavsiya qilamiz. Va agar bunday sharoit bo‘lmasa, uyga yoki ishxonadagi xavfsiz Internetga qaytish yaxshiroqdir.

5. Onlayn to'lovlar xavfsizligini ta'minlang. Agar siz nimalarnidir onlayn-do'konlarda tez-tez xarid qilsangiz, buning uchun alohida yoki virtual bank kartasini olganingiz ma'qul. Agar siz Internetdagi xaridlar to'lovi uchun asosiy kartangizdan foydalansangiz, unda katta miqdordagi pulni saqlamaslikka harakat qiling va barcha karta va hisob operatsiyalari uchun SMS yoki push-xabar berish xizmatini faollashtirganingizga ishonch hosil qiling.

6. Shuni unutmangki, Internet har qanday boshqa jamoalar to'planadigan joy, maydondek jamoat joyidir: siz joylashtirgan ma'lumotlar sizning xohishingizdan qat'i nazar, boshqalar bilan baham ko'rilishi mumkin va ularni yuzlab odamlar kuzatishi mumkin. Internetga o'zingizga, yaqinlaringizga tegishli ma'lumotlarni chiqarishdan oldin, o'ylab ko'ring, bu ma'lumot sizni boshqalar oldida xavf ostiga qo'yadimi, kelajakdagi ish beruvchingiz, potensial mijozlaringiz yoki hatto qarindoshlaringiz bu haqda bilishlarini xohlaysizmi? Axir, hatto uy manzili yoki geolokatsiya ma'lumotlari kabi narsalar ham yomon niyatli odamlarning qo'lga tushib qolsa, zarar uchun ishlatilishi mumkin.

7. O'zingiz bilmagan jamoalarga qo'shilmang. Do'stlaringiz yoki yaxshi tanishlaringiz buni so'rasa ham, birovning iltimosiga binoan axborot, provokatsion va tajovuzkor materiallar va xabarlarini tarqatmang. Esingizda bo'lsin, Internetda o'qishingiz yoki ko'rishingiz mumkin bo'lgan narsalar har doim ham haqiqat emas. Iloji bo'lsa, ma'lumotlarni boshqa qidiruv tizimlaridan foydalangan holda qayta tekshirib ko'ring. Bu juda muhim.

Shu yerda e'tirof etish joizki, mazkur qoidalarni bilish va ularga rioya qilish Internetda to'g'ri, xavfsiz muloqot qilish uchun yetarli emas. Tez rivojlanayotgan asrimizda axborot jamiyati talablariga javob beradigan internet savodxonligi va kibernetika, ya'ni kibermakonda to'g'ri xulq-atvorning yangi, yanada yuqori darajasi zarur. Axborot makonida, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot jarayonida o'zini qanday tutishni - to'g'ri, tajovuzkor bo'lmaslik, o'zining va boshqalarning ma'lumotlarining maxfiyligini hurmat qilishni o'rganish juda muhimdir.

Ehtiyot choralarini ko'rilgan holda ham kiberxuruj yoki ma'lumotlarning sizib chiqishi xavfini topsangiz, ichki axborot xavfsizligi islohotini amalga oshirishingiz kerak. Avvalo, qanday ma'lumotlar va qancha miqdorda maxfiy bo'lishni to'xtatganini, axborotning sizib chiqishi qanday usul va yo'llar bilan va qanday maqsadlarda tashkil etilganligini, maxfiy ma'lumotlar qanday va kim tomonidan ishlatilganligini aniqlash kerak.

Vaziyatga aniqlik kiritilganda, uni to'g'rilash uchun shoshilinch choralar ko'rish kerak bo'ladi. Nafaqat ma'lumotlar sizib chiqishi oqibatlarini bartaraf etish, balki kelajakda bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik va yuqorida aytib o'tganimiz axborot xavfsizligi choralarini kuchaytirish zarur. Ma'lumotni o'g'irlash qonunga zid ekanligini unutmaslik juda muhim va bunday harakatlar uchun haqiqiy qamoq muddatini olish mumkinligini har bir foydalanuvchi bilishi va uning oqibatlarini chuqur anglashi kerak.

9.3. Axborot xavfsizligini ta'minlashda nazariy asoslarning o'ziga xos jihatlari.

Tarixdan ma'lumki, axborotning maxfiylik darajasi juda muhim hisoblanadi va axborot uchun kata e'tibor va ahamiyat qaratib kelinadi. Shu sababli ham qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri - sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan. Asrlar davomida bu san'at - sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixonalar rezidensiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatishadi, sotadilar va sotib oladilar. Bulardan tashqari uni o'g'iraydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi. Axborotni qayta ishlash sanoatining paydo bo'lishi axborotni himoyalash sanoatining paydo bo'lishiga olib keladi.

Axborot xavfsizligi deb, ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossalari tasodifiy va qasddan ta'sirlardan xar qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi. Tarixdan ma'lumki, ilgari xavf faqatgina

maxfiy xabarlar va xujjatlarni o'g'irlash yoki nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsat so'ramasdan foydalanishdir. "Bulardan tashqari, bu xarakatlardan moddiy foyda olishga intilish ham rivojlandi"1. Bunday jarayonlarda albatta axborot muhofazaasi tashkil etilishi kerak bo'ladi.

"Axborotning himoyasi" deb boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xavfsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zaxiralarining yaxlitligi, ishonchliligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi". Axborotning egasiga, foydalanuvchisiga va boshqa shaxsga zarar yetkazmoqchi bo'lgan nohuquqiy muomaladan xar qanday xujjatlashtirilgan, ya'ni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- axborotning kelishuvsiz chikib ketishi, ugirlanishi, yo'qotilishi, o'zgartirilishi, soxtalashtirilishlarning oldini olish;
- shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligiga bulgan xavf - xatarning oldini olish;
- axborotni yo'q qilish, o'zgartirish, soxtalashtirish, nusxa kuchirish, tusiklash buyicha ruxsat etilmagan xarakatlarning oldini olish;
- hujjatlashtirilgan axborotning miqdori sifatida huquqiy tartibini ta'minlovchi, axborot zahirasi va axborot tizimiga har qanday noqonuniy aralashuvlarning ko'rinishlarining oldini olish;
- axborot tizimida mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarning shaxsiy maxfiyligini va konfidentsialligini saqlovchi fuqarolarning konstitutsion huquqlarini himoyalash;
- davlat sirini, qonunchilikka mos hujjatlashtirilgan axborotning konfidentsialligini saqlash;
- axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta'minlovchi vositalarni yaratish, ishlab chiqish va qo'llashda sub'ektlarning huquqlarini ta'minlash.

Axborot xavfsizligiga tahdid deganda "axborotning buzilishi yoki yo'qotilishi xavfiga olib keluvchi himoyalanuvchi obyektga qarshi qilingan harakatlar tushuniladi"3. Zamonaviy korporativ tarmoqlar va tizimlar duchor bo'ladigan keng tarqalgan tahdidlarni tahlillaymiz. Hisobga olish lozimki, xavfsizlikka tahdid manbalari

korporativ axborot tizimining ichida (ichki manba) va uning tashqarisida (tashqi manba) bo'lishi mumkin. Bunday ajratish to'g'ri, chunki bitta tahdid uchun (masalan, o'g'irlash) tashqi va ichki manbalarga qarshi harakat usullari turlicha bo'ladi. Bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlarni hamda korporativ axborot tizimining zaif joylarini bilish xavfsizlikni ta'minlovchi eng samarali vositalarni tanlash uchun zarur hisoblanadi. "Umumjahon axborot globallashuvi jarayonlari axborot -kommunikatsiya texnologiyalarini nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti va boshqa sohalariga joriy etish, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlashni ham taqozo etayapti".

Mamlakatimizda axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning asosiy manbayi bu O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi hisoblanadi. Davlat va jamiyat hayotining eng muhim va istiqbolga mo'ljallangan reja va oliy maqsadlari ham aynan asosiy qonunda belgilab qo'yiladi. Jumladan, axborot va u bilan bog'liq munosabatlar ham asosiy qonunimizning "Shaxsiy huquq va erkinliklar" bobida belgilab qo'yilgan. Qolgan barcha axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlari asosiy qonunimiz bo'lmish Konstitutsiyamiz asosida va unda belgilab qo'yilgan normalarni mustaxkamlash uchun qabul qilingan. Davlat va jamiyatning eng muhim jabhalarini dastlabki tarzda tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy hujjat hisoblanmish konstitutsiyamizning ko'plab normalarida ham aynan axborot havfsizligining huquqiy jihatdan dastlabki tarzda tartibga solinganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, konstitutsiyamizning 27, 29, 67 moddalaridagi normalar mamlakatimizdagi axborot sohasiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi dastlabki bosh huquqiy manba, asos hisoblanadi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 67-moddasini, ya'ni "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi" deb mustaxkamlangan normada ham axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normani ko'rishimiz mumkin.

Ushbu norma orqali mamlakatimizda axborot bilan uzviy ravishda faoliyat olib boruvchi soha vakillarining va sektorlarning o'zlari yig'ayotgan, tarqatayotgan axborotlarining ishonchligi va asoslanganligi, axborot va unga qo'yilgan talab va me'yorlarga rioya qilinganligi uchun bevosita ma'suldirlar. Ya'ni uzatilayotgan axborot haqiqatga to'g'ri kelishligi va chinligi uchun ommaviy axborot vositalari bevosita javobgardirlar. Bundan tashqari Konstitutsiyamizning 27 va 29-moddalaridagi quyidagi normalar ham axborot xavfsizligini bevosita ta'minlashga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy norma hisoblanadi: "Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibidan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas", bu konstitutsiyaviy normada ham axborotning xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarning axborot sohasidagi xavfsizligini himoya qiluvchi norma mustahkamlangan.

Yuqoridagi normalarning buzilishi oqibatlari esa belgilangan tartibda javobgarlik keltirib chiqaradi. Konstitutsiyamizdagi 29-moddada ham aynan shu munosabatlarning huquqiy tartibga solinganligini ko'rishimiz mumkin. "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan ahborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklovlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taaluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin".

Ushbu konstitutsiyaviy normada ham ko'rishimiz mumkinki, axborot va u bilan bog'liq munosabatlar yana o'zga qonun hujjatlari bilan ham tartibga solonadi. Xususan, 1993-yil 7-mayda qabul qilingan "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida" gi qonunda ham axborotlarning, jumladan maxfiy hisoblanadigan axborot va sirlarning saqlanish tartibi belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunda ma'lumotlarning mahfiylik darajasini aniqlash va belgilash tartibi, O'zbekiston Respublikasida maxfiylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ro'yxati, O'zbekiston Respublikasining alohida tartibga bo'ysunuvchi, alohida muhim va muayyan tartibga bo'ysunuvchi obyektlar ro'yxati; O'zbekiston Respublikasida maxfiylikni saqlash tartibini ta'minlashga doir chora tadbirlar belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagi konstitutsiyaviy normalarni rivojlantiruvchi va to'ldiruvchi yana bir qancha qonun hujjatlarini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi deyish mumkin".

Ushbu qonunga ko'ra axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash; axborot resurslarining tarqalib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, buzib talqin etilishi, to'sib qo'yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish; axborotni yo'q qilish, to'sib qo'yish, undan nusxa olish, uni buzib talqin etishga doir ruxsatsiz harakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish; axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash.

Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborotni muhofaza qilish esa davlatning birlamchi masalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanmoqda. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini ta'minlashi shart. Axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi ularning mulkdorlari, egalari tomonidan mustaqil belgilanadi. Davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini tartibga soluvchi yana bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari mavjud bo'lib, ular jumlasiga 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni ham ta'kidlab o'tish joiz. Shaxsga doir ma'lumotlar deganda jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot nazarda tutiladi.

Ushbu qonunning amal qilishi:

1. jismoniy shaxs tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarga shaxsiy, maishiy maqsadlarda va o'z kasbiy yoki tijorat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda ishlov berish;

2. Milliy arxiv fondi hujjatlarini va shaxsga doir ma'lumotlarni o'z ichiga olgan boshqa arxiv hujjatlarini shakllantirish, saqlash va ulardan foydalanish;

3. davlat sirlarini tashkil etadigan ma'lumotlar jumlasiga kiritilgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish;

4. tezkor-qidiruv, razvedka va kontrrazvedka faoliyati, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni saqlash jarayonida, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish doirasida olingan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Hukumat huzuridagi Davlat personallashtirish markazi shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilandi. Shaxsga doir ma'lumotlar davlat boshqaruvi organlariga bepul beriladi. Shaxsga doir ma'lumotlar deyilganda - muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot tushuniladi. Shaxsga doir ma'lumotlar sub'ekti - shaxsga doir ma'lumotlar o'ziga taalluqli bo'lgan jismoniy shaxs tushuniladi. Shaxsga doir ma'lumotlar sohasini davlat tomonidan tartibga solish Vazirlar Mahkamasi va shaxsga doir ma'lumotlar sohasidagi vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Mulkdorning, operatorning va uchinchi shaxsning faoliyati maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan harakatlar shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishdir. Shaxsga doir ma'lumotlarni muayyan shaxsga oshkor etishga qaratilgan harakatlar shaxsga doir ma'lumotlarni berish hisoblanadi.

Shaxsga doir ma'lumotlarni davlat boshqaruvi organlariga berish bepul asosda amalga oshiriladi. Sub'ekt o'zining shaxsga doir ma'lumotlarini berishni rad qilgan taqdirda, o'zining rad qilish sabablarini ko'rsatmaslik huquqiga ega. Shaxsga doir ma'lumotlar bazalari Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reestrda ro'yxatdan

o'tkazilishi lozim. Shaxsga doir ma'lumotlar bazasini ro'yxatdan o'tkazish ariza berish printsipli orqali xabardor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Axborot tizimidan davlat reestrini yuritish uchun foydalanish, shu jumladan ariza berish uchun tizimga kirish "Elektron hukumat" yagona axborot tizimi orqali amalga oshiriladi. Shaxsga doir ma'lumotlar bazalari davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazish sxemasi. Davlat reestrda ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslar tanishishi uchun ochiq hisoblanadi. Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish, belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan "Axborotlashtirish to'g'risida" gi qonunda ham axborot va u bilan bog'liq munosabatlarning tartibga solinganligini ko'ramiz. Jumladan, ushbu qonunning 19-moddasida axborot resurslari va tizimlarini muhofaza qilish qoidalari mustaxkamlangan bo'lib, unga ko'ra:

- ❖ axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:
- ❖ shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash;
- ❖ axborot resurslarining tarqalib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, buzib talqin etilishi, to'sib qo'yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish;

Axborotni yo'q qilish, to'sib qo'yish, undan nusxa olish, uni buzib talqin etishga doir ruxsatsiz harakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi. axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash. Yuqoridagi qonunning 20-moddasida esa axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish masalalari belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra: Axborot resurslari va axborot tizimlari, agar ular bilan g'ayriqonuniy munosabatda bo'lish natijasida axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdorlariga, egalariga yoxud boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslarga zarar yetkazilishi mumkin bo'lsa, muhofaza qilinishi kerak. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini ta'minlashi shart. Axborot resurslari va axborot

tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi ularning mulkdorlari, egalari tomonidan mustaqil belgilanadi. Davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Axborotlashtirish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va u maxsus vakolat bergan organ amalga oshirishi belgilab qo'yilgan. Mazkur qonundagi davlat sirlari to'g'risidagi axborotni va maxfiy axborotni yoki erkin foydalanilishi axborot resurslarining mulkdorlari tomonidan cheklab qo'yilgan axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari erkin foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga kiradi va axborot resurslarining mulkdorlari va egalari hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslaridan yuridik hamda jismoniy shaxslarning teng huquq asosida erkin tarzda foydalanishini ta'minlashi kerak, axborot resurslarini erkin foydalanish toifalariga kiritish qonunchilikda belgilangan tartibda axborot resurslarining mulkdori tomonidan aniqlanadi deb belgilab qo'yilgan norma orqali mamlakatimizda axborotlarning turkumlanishiga guvoh bo'lamiz.

Tayanch iboralar: axborot, xavfsizlik, ma'naviy, huquq, elektiron hukumat, resurus.

Nazorat savollari:

1. Axborot xavfsizligi ishlab chiqish asoslari.
2. Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish bosqichlari.
3. Axborot xavfsizligi siyosatini qayta ko'rib chiqish.

X. BOB. O‘ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING MA’NAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI.

10.1. Axborot xavfsizligini ta’minlash markazining vazifalari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi PQ-1989-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 16-sentyabrdagi 250-son Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzuridagi Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi tashkil etilgan. Markazning asosiy vazifalari:

- "Elektron hukumat" tizimi axborot tizimlari komplekslari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta’minlash;
- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq "Elektron hukumat" tizimini joriy etish doirasida axborotlashtirish ob’ektlarini attestatsiyadan o‘tkazish;
- davlat organlarining axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashish;
- axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va to‘plash, "Elektron hukumat" tizimi axborot tizimi, resurslari va ma’lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta’minlaydigan tashkiliy va dasturiy-texnik echimlarni samarali qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish;
- "Elektron hukumat" tizimining axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining, shuningdek Internet tarmog‘i milliy segmentining axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari bilan hamkorlik qilish, davlat organlarining kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish masalalari bo‘yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog‘i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo‘laётgan tahdidlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor

qilish, shuningdek axborotlarni muhofaza qilish bo'yicha konsultatsiya xizmatlari ko'rsatish;

- qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz èxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish;

Tashkilotda axborot xizmatini tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishda uning huquqiy asoslari g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot xizmatining huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari tashkil etadi. Aytish joizki, mamlakatimizda jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va shu maqsadda tashkilotlarda axborot xizmatlarini tashkil etishda dastlab Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 22-sentyabrda qabul qilingan "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 203-qarori muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilgandi.

Qarorda, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatining oshkoraligini ta'minlash, keng jamoatchilik va aholining O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning borishi to'g'risida muntazam xabardor qilish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashning, oshkora fuqarolik jamiyati qurishning muhim yo'nalishi hisoblanishi qayd etilgan holda, "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, agentliklar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, xo'jalik boshqaruvi organlari (keyingi o'rinlarida idoralar deb yuritiladi) tarkibida xodimlarning umumiy soni doirasida axborot xizmatlari tashkil etilsin" deb belgilangan.

Aytish joizki, o'tgan yillar mobaynida mazkur qarorda belgilangan qator vazifalar ijrosi ta'minlandi. Chunonchi, barcha vazirlik, tashkilot, muassasa va boshqa idoralarda axborot xizmatlari tashkil etildi va ular faoliyati yo'lga qo'yildi, internet tarmog'ida veb-resurslari tashkil etildi. Shu tariqa bugungi kunga qadar axborot xizmatlari muayyan vazifalarni amalga oshirib kelayotir. Biror huquqiy asosga ega bo'lmasdan bunday muhim vazifalarni amalga oshirish mushkul edi, albatta.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevral kuni e‘lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori sohani yanada takomillashtirishda muhim qadam bo‘ldi.

Qarorda qayd etilganidek, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda axborot va bilim eng muhim milliy resurslarga, ularni yaratish va tarqatishni ta‘minlovchi tizimlar esa – barqaror rivojlanishning strategik omillariga aylanmoqda. Ushbu sharoitlarda O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlatni va ochiq adolatli fuqarolik jamiyatini qurish, shuningdek, insonning huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta‘minlashdek strategik maqsadga erishish, davlat boshqaruvining sifati davlatning axborot, bilim va innovatsiyalarga asoslangan modeliga o‘tishini ta‘minlaydigan axborotni va bilimni yaratish, qabul qilish va tarqatish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan davlat va xo‘jalik boshqaruvi sohasida ochiqlik va shaffoflikka asoslangan samarali qarorlar qabul qilish tizimini joriy etish, axborot olishda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi hisobdorligi, ochiqligi va mas‘uliyatini ta‘minlash zarur.

Bu davlat va xo‘jalik boshqaruvi apparatining samarali faoliyat yuritishi hamda jamiyatda adolatni qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi. Bunda jamiyatni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatidan keng xabardor qilish, ularning aholi oldidagi hisobdorligini ta‘minlash «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir» degan konstitutsiyaviy normani amalga oshirishning, «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ezgu g‘oyani ro‘yobga chiqarishning muhim sharti hisoblanadi.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot jihatidan ochiqligini yanada oshirish, jamoatchilikka amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning maqsadlari, vazifalari, borishi hamda natijalari, mamlakatning global axborot jamiyatiga uyg‘un integratsiyalashuvi haqida o‘z vaqtida, xolisona va to‘laqonli axborotni tezkorlik bilan etkazish, shuningdek, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari axborot xizmatlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining mazkur qarorida quyidagi huquqiy normalar hamda vazifalar belgilangan:

1. «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning samarali mexanizmlari va usullarini joriy etishga, jismoniy va yuridik shaxslarning davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini ta'minlashga qaratilgan normalari ijrosini so'zsiz va sifatli ta'minlash barcha darajalardagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining eng ustuvor vazifalaridan biri deb hisoblansin. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organi rahbari ushbu vazifalar amalga oshirilishi uchun shaxsan mas'ul ekanligi belgilab qo'yilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari (matbuot xizmatlari, jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlari) (keyingi o'rinlarda axborot xizmati deb yuritiladi) davlat va xo'jalik boshqaruvi organi xodimlarining umumiy soni doirasida tashkil etiladi hamda shu organ rahbariga bevosita bo'ysunadigan alohida mustaqil bo'linma hisoblanadi.

Quyidagilar axborot xizmatining asosiy vazifalari etib belgilansin:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organi rahbariyati tomonidan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish;
- axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining axborot xizmatlari bilan samarali va amaliy hamkorlikni ta'minlash;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organining faoliyati, uning faoliyat sohasiga doir normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida keng jamoatchilikni xolisona, sifatli va tezkor xabardor qilish;
- ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilish, axborot xizmati bilan doimiy hamkorlikda ishlaydigan jurnalistlar doirasini shakllantirish, axborot xabarlarini (matbuot uchun axborotlar, byulletenlar va shu kabilarni) tarqatish, ommaviy tadbirlarni tashkil etish;

- axborotni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rasmiy veb-saytida tezkor joylashtirish va o‘z vaqtida yangilab borish, Internet tarmog‘idagi veb-resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy va mobil tarmoqlarni rivojlantirish;
- axborot maydoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, ularga munosabat bildirishning turlari, usullari va darajasi bo‘yicha ekspertlar bilan birgalikda takliflar tayyorlash, ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet tarmog‘ida materiallar tarqatish bo‘yicha kompleks ishlarni tashkil etish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan birgalikda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida tarqatish uchun xabar, axborot-ma’lumot tusidagi materiallar, sharhlar va axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatini xorijiy ommaviy axborot vositalarida sifatli yoritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O‘zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (kino, foto, audio va videomateriallar, bosma mahsulotlar va shu kabilar) bilan ta’minlash;
- idora faoliyatiga nisbatan jamoatchilik fikrining holatini hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari pozitsiyasini tahlil qilish va ular to‘g‘risida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyatiga axborot berish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyat sohasiga aloqador matnli, foto, audio va videomateriallardan iborat ma’lumotlar bankini shakllantirish va yuritish.

3. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Shuningdek qarorda, axborot xizmatlari kadrlarining malakasini oshirish va Xizmatlarni jurnalist kadrlar, jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etish va boshqa sohalardagi yuqori malakali mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash, shuningdek, axborot xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur zamonaviy moddiy-texnik bazani shakllantirish bo‘yicha «yo‘l xaritalari»ni ishlab chiqish;

axborot xizmatlari tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan, shu jumladan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari ishtirokida muntazam ravishda (bir oyda kamida bir marta) matbuot anjumanlari, brifinglar o‘tkazilishini hamda ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan ishlashning boshqa zamonaviy shakllarini amaliyotga joriy etish vazifalari ham belgilangan.

Har bir tashkilotning Nizomi uning huquqlari, vazifalari, burchlarini kafolatlovchi asosiy huquqiy hujjati hisoblanadi. Axborot xizmati aslida tashkilot markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblansa-da u ham alohida Nizomiga ega bo‘ladi. Axborot xizmati xodimlari Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 125-son qaroriga ilova tarzida berilgan quydagi hujjatga ham alohida e‘tibor qaratishlari zarur:

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmati to‘g‘risida

NAMUNAVIY NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Axborot xizmati (matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar xizmati) (keyingi o‘rinlarda Xizmat deb ataladi) davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi markaziy apparatining mustaqil tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi hamda bevosita uning rahbariga bo‘ysunadi.

2. Xizmat o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

3. Xizmat o‘z faoliyatini davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hamda boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tegishli xizmatlari bilan o‘zaro yaqin hamkorlikda amalga oshiradi.

2-bob. Xizmatning asosiy vazifalari va funksiyalari

4. Quyidagilar Xizmatning asosiy vazifalari hisoblanadi:

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyati tomonidan zamonaviy talablarga muvofiq belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish;

axborot sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati, davlat va xo‘jalik boshqaruvi boshqa organlarining axborot xizmatlari bilan samarali va amaliy hamkorlikni ta’minlash;

keng jamoatchilikni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyati, uning sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlari to‘g‘risida xolisona, sifatli va tezkor xabardor qilish;

ommaviy axborot vositalari (keyingi o‘rinlarda OAV deb ataladi) bilan o‘zaro hamkorlik qilish, Xizmat bilan doimiy hamkorlikda ishlaydigan jurnalistlar doirasini shakllantirish, axborot xabarlarini (matbuot uchun axborotlar, byulletenlar va shu kabilarni) tarqatish, ommaviy tadbirlarni tashkil etish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rasmiy veb-saytida axborotni tezkorlik bilan joylashtirish va o‘z vaqtida yangilab borish, Internet tarmog‘idagi veb-resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy va mobil tarmoqlarni rivojlantirish;

axborot maydoni monitoringini olib borish va tahlil qilish, ularga munosabat bildirishning turlari, usullari va darajasi bo‘yicha ekspertlar bilan birgalikda takliflar tayyorlash, OAV, shu jumladan, Internet tarmog‘ida materiallar tarqatish bo‘yicha kompleks ishlarni tashkil etish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan birgalikda milliy va xorijiy OAVda tarqatish uchun xabar, axborot-ma’lumot materiallar, sharhlar va axborot-tahliliy materiallar tayyorlash;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatini xorijiy OAVda sifatli yoritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarini, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning O‘zbekistondagi diplomatik vakolatxonalarini axborot materiallari (foto, audio va videomateriallar, bosma mahsulotlar va shu kabilar) bilan ta’minlash;

idora faoliyatiga nisbatan jamoatchilik fikrining holati hamda milliy va xorijiy OAV pozitsiyasini tahlil qilish va ular to‘g‘risida davlat hokimiyati va boshqaruvi organi rahbariyatiga axborot berish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyat sohasiga aloqador matnli, foto, audio va videomateriallar ma’lumotlar bankini shakllantirish va yuritish.

5.Xizmat yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

OAVda, shu jumladan, Internet tarmog‘ida axborot e’lon qiladi (chop etadi), shuningdek, ularni rasmiy veb-saytlarda, hamma kirishi mumkin bo‘lgan xonalar va joylarga joylashtirish va yangilab borishni ta’minlaydi;

ommaviy tadbirlarni, shu jumladan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbarlari ishtirokidagi tadbirlar (majlislar, yig‘ilishlar, uchrashuvlar, matbuot anjumanlari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqalar)ni tashkil etadi va o‘tkazadi;

OAV va jurnalistlarning so‘rovi asosida ularga og‘zaki va yozma shaklda (shu jumladan, elektron hujjat shaklida) axborot taqdim etadi;

qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik muhim dasturlar hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida huquqni qo‘llash amaliyoti holati monitoringini olib boradi va keng jamoatchilikni xabardor qilib boradi;

Xizmat oldida turgan vazifalarni samarali hal etish uchun zarur bo‘lgan axborotni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlikda to‘playdi va ularni puxta ishlaydi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatiga doir masalalar bo‘yicha bosma materiallarni tayyorlaydi hamda milliy va xorijiy nashrlarda e’lon qiladi, teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlarni tashkil etadi, tegishli sohada davlat siyosatini amalga oshiradi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatiga doir masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikrini hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari pozitsiyasini o‘rganishga doir tahliliy ishlarni amalga oshiradi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi rahbariyatiga axborot berish uchun e’lon qilingan dolzarb materiallar sharhlarini tayyorlaydi;

OAV bilan axborot-ma’lumotnoma ishlarini amalga oshirish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha tahliliy, statistik va boshqa materiallarning tizimlashtirilgan ma’lumotlar banki tashkil etilishi va yuritilishini ta’minlaydi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatini eng to‘liq va xolisona yoritish maqsadida milliy va xorijiy OAV hamda jurnalistlar bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining veb-sayti tashkil etilishini va uni zamonaviy darajada yuritishni ta’minlaydi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi tomonidan tashkil etiladigan rasmiy tadbirlardan teledasturlar, roliklar va lavhalar tayyorlashda va ularni montaj qilishda ishtirok etadi hamda ushbu materiallarni belgilangan tartibda saqlash uchun ularning arxivlashtirilishini ta’minlaydi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatiga doir foto, audio va videomateriallarni tayyorlaydi hamda ularni tayyorlash jarayonida davlat va nodavlat OAV bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining faoliyat sohasiga aloqador foto, audio va videomateriallar ma’lumotlar banki shakllantirilishi va yuritilishini ta’minlaydi.

6. Xizmat o‘z vakolatlari doirasida milliy va xorijiy axborot agentliklari hamda OAVning davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyati to‘g‘risidagi materiallarni tayyorlashda ko‘maklashish to‘g‘risidagi buyurtmanomalari va so‘rovlarini ko‘rib chiqadi.

3-bob. Xizmatning huquqlari va javobgarligi

7. Xizmat o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

xizmatning vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalaridan, idoraviy mansub tashkilotlardan belgilangan tartibda so‘rab olish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining yig‘ilishlarida, majlislarida va boshqa tadbirlarida qatnashish;

qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari bilan kelishgan holda idoraning boshqa bo‘linmalari xodimlarini jalb etish, shuningdek, boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va malakali ekspertlarini, shu jumladan, shartnoma asosida jalb etish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi boshqa organlarining axborot xizmatlari bilan belgilangan tartibda o‘zaro hamkorlik qilish;

rahbariyatning topshirig‘iga ko‘ra davlat organlarida respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlarda Xizmat vakolatiga taalluqli masalalar bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi nomidan vakillik qilish;

o‘z vakolatlari doirasida bosma nashrlarni nashr etish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining axborot siyosatini takomillashtirishga doir takliflarni, Xizmat faoliyati masalalari bo‘yicha normativ hujjatlar loyihalarini rahbariyatning ko‘rib chiqishi uchun kiritish.

8. Xizmat:

o‘ziga yuklangan vazifalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyatining milliy va xorijiy OAVda xolisona, sifatli va tezkor yoritilishini ta‘minlash uchun javob beradi.

4-bob. Xizmat faoliyatini tashkil etish

9. Xizmat xodimlari soni u amalga oshiradigan vazifalarning murakkabligi va hajmiga ko‘ra davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari tomonidan, xodimlarning tasdiqlangan umumiy soni doirasida belgilanadi.

10. Xizmat faoliyati davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari tomonidan tasdiqlanadigan ish rejasi asosida tashkil etiladi.

11. Xizmatga davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan rahbar boshchilik qiladi.

12. Xizmat rahbari bevosita davlat va xo‘jalik boshqaruvi organining rahbariga bo‘ysunadi va ayni vaqtda uning matbuot kotibi hisoblanadi.

13. Xizmat rahbari: xizmat faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda Xizmatga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

xizmat faoliyatini tashkil etadi, rejalashtiradi va nazorat qiladi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organining boshqa bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi;

xizmatda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishni ta‘minlaydi, xodimlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

xizmat xodimlarining malakasini va kasbiy saviyasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

14. Xizmat xodimlari Xizmat rahbarining taqdimnomasiga ko'ra belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

15. Xizmat faoliyatini axborot, huquqiy, moddiy-texnik va transport bilan ta'minlash, shuningdek, uning xodimlariga ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish davlat va xo'jalik boshqaruvi organining tarkibiy bo'linmalari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Shu asosda respublikamizdagi barcha tashkilotlarning axborot xizmati Nizomi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Demak, axborot xizmati shu Nizom asosida faoliyat ko'rsatishi uning huquqiy asoslari qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Axborot xizmati qaysi idora yoki tashkilotga tegishli bo'lishidan qat'i nazar u asosan axborot to'plash va tarqatish bilan shug'ullanadi.

Modomiki, tashkilotning axborot xizmati axborot to'plash va tarqatish bilan ham shug'ullanar ekan, demak, O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni ham uning huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi. Mazkur qonunning 6-moddasi "Axborotning ochiqligi va oshkoraligi" deb nomlanib, unda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari jamiyat manfaatlariga taalluqli voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga xabar berishi shart, deb belgilab qo'yilgan. Qonunning "Axborot erkinligi kafolatlari" deb nomlangan 8-moddasida esa, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har kimga o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan axborot bilan tanishib chiqish imkoniyatini ta'minlab berishga, maqbul axborot resurslari yaratishga, foydalanuvchilarni fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlariga, ularning xavfsizligiga doir hamda jamiyat manfaatlariga taalluqli boshqa masalalar yuzasidan axborot bilan ommaviy tarzda ta'minlashga majburdirlar, deb belgilangan.

Xo'sh, bu vazifalarni kim va qanday yo'sinda amalga oshiradi? Jahon tajribasiga ko'ra, rivojlangan davlatlarda tashkilotlar tomonidan asosiy axborotlar aynan axborot xizmati tomonidan tarqatilishi yo'lga qo'yilgan. Axborot xizmati avvalo jurnalistlar kabi axborot to'plashi, qayta ishlashi (ommabop janrda yozishi yoki teleko'rsatuv, radioeshittirish tayyorlashi) talab etiladi. So'ng, o'sha axborotini ommaviy axborot vositalari orqali tarqatishi mumkin. Demak, bu o'ta mas'uliyatli ishlarni amalga oshirishida axborot xizmati uchun o'sha qonun g'oyat muhim asosdir.

Axborot xizmat xizmati xodimi axborot to'plash va tarqatish borasida jurnalistlar kabi faoliyat ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni ham uning huquqiy asoslaridan hisoblanadi. U ham jurnalistning majburiyatlarini bilishi va unga amal qilishi zarur. Qonunning 6-moddasi "Jurnalistning majburiyatlari" deb nomlanib, unda bajarishi shart bo'lgan majburiyatlar ham belgilab qo'yilgan²⁴. Ya'ni, o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida jurnalist:

- ❖ qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari talablariga rioya etishi;
- ❖ o'zi tayyorlayotgan materiallarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirishi va xolis axborot taqdim etishi;
- ❖ aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilishi;
- ❖ shaxsning huquqlari va erkinliklarini, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Jurnalist o'z kasbiga doir axborotdan shaxsiy maqsadlarda foydalanishi, axborot manbai yoki muallif roziligisiz jismoniy shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlarni e'lon qilishi, shuningdek audio va video yozish vositalaridan foydalanishi mumkin emas. Jurnalist qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajarishi shart.

Bu talablarning barchasi doimo axborot to'plash va tarqatish bilan shug'ullanuvchi axborot xizmati xodimlari uchun ham birdek taalluqlidir. Axborot xizmatlarining huquqiy

²⁴ www.uza.uz - O'zbekiston Miiliiy axborot agentligi (O'ZA)

asoslarini belgilovchi navbatdagi qonun – O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni bo‘lganini alohida qayd etish lozim. Qonunning 10-moddasi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot xizmati” (2014-yil 5-may) deb nomlanadi. Unda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni tayyorlash hamda tarqatish vazifalarini bajaruvchi, shuningdek ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan hamkorlikni ta’minlovchi tarkibiy bo‘linmasi yoxud ushbu vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining axborot xizmatidir, deb belgilab qo‘yilgan.

Ushbu moddaga binoan Axborot xizmati ommaviy tadbirlarni tashkil etish, axborot xabarlarini (press-revizlar, byulletenlar va hokazolarni) tarqatish, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining rasmiy veb-saytida ularning faoliyati to‘g‘risidagi axborotni joylashtirish va yangilab borish yo‘li bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish chora-tadbirlarini ko‘radi. Axborot xizmati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatishning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa usullaridan ham foydalanishi mumkin. Qonunda axborot xizmatining faoliyatini tashkil etish tartibi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan belgilanishi ham qayd etilgan.

Aytish joizki, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunning nomlanishidan ham ko‘rish mumkinki, qonun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur Qonun ham sodda va tushunarli tilda yozilganligi bilan barcha uchun birdek tushunarlidir. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilgan. Yangi Qonun ushbu normani to‘la-to‘kis amalga oshirishni ta’minlaydi.

Mazkur qonun aholining davlat tuzilmalari faoliyati haqida axborot olishida, ularning bu boradagi mas’uliyatini oshirishda, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ishlarimizni yaxshilashda va albatta, aholi farovonligini yuksaltirishda katta

imkoniyatlarni ochadi. Bu huquqiy hujjat fuqarolar xabardorligini ta'minlashning turli usullari nazarda tutilishi bilan ham biz uchun muhim ahamiyatga ega. Bu davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning mohiyati va ahamiyatini, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning borishi haqidagi axborotlarni har bir hudud, har bir mahalla aholisiga etkazish imkonini beradi. Ma'lumki, bizning vazifalarimizdan biri – bandlikni ta'minlashga ko'maklashishdir. Bugun bo'sh ish o'rinlari haqidagi axborotlar respublika tashkilotlaridan totib viloyatlar hokimliklari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari veb-saytlarida, ommaviy axborot vositalarida muntazam e'lon qilinmoqda. Bu, o'z navbatida, o'sha idora va tashkilotlar faoliyati ochiqligini ta'minlashda katta o'rin tutadi.

Ochiqlik va davlat organlari rasmiy manbalari axborotlarining to'la-to'kis mavjud bo'lishi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan tortib barcha-barchani ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkonini yaratishini izohlashga hojat bo'lmasa kerak. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari alohida o'rin tutadi. Chunki aynan ommaviy axborot vositalari globallashtirish sharoitida yurtimizda kechayotgan eng muhim voqealar, amalga oshirilayotgan yangilanishlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni keng yoritish orqali davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'priklar vazifasini bajarmoqda.

Demak, ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yana bir muhim qadam bo'ldi. Ommaviy axborot vositalari sohasida yurtimizda mustahkam qonunchilik asosi shakllantirilgan bo'lib, u izchil takomillashtirib borilmoqda, jurnalistlik faoliyatining erkinligi va kafolatlari ta'minlanmoqda. Mazkur qonun axborotdan foydalanish erkinligini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslarining jurnalistga zarur axborotni, qonunda belgilanganidek, 7 kunlik muddatda taqdim etish majburiyatini ta'minlash orqali ushbu kafolatlarni yanada mustahkamlaydi. Bunday yangilik faoliyatimizda uchrab turadigan axborot olishdagi ba'zi pajsalga solish holatlarini bartaraf qiladi, shuningdek, jurnalist materialining tezkorligini, ishonchliligini hamda sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlari vakillariga davlat organlari faoliyatiga oid axborotlarni to'siqsiz olishning mustahkam kafolati zarur. Bu borada mazkur qonunning

asosiy prinsiplari – axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o‘z vaqtida taqdim etilishi va ishonchliligi, oshkoralik, shaffoflik, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Qonunda mamlakatimizda oxirgi yillarda shakllangan jamoatchilikni davlat organlari faoliyati haqida boxabar qilish mexanizmlari belgilab qo‘yilgan. Ular orasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida axborot olishga doir so‘rovga javoblar, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hay’at yig‘ilishlarida ishtirok etishiga oid tartiblar muhim ahamiyatga egadir.

10.2. Talabalarda mediasavodxonlikni shakllantirishda zaruriy axborotlar.

Zamonaviy axbopot vositalari yordamida yaratilgan ko‘plab media mahsulotlar hamda ommaviy kommunikatsiya tizimlari insoniyat turmush tarzini, shuningdek shaxs dunyoqarashini tubdan o‘zgartirishga olib kelmoqda. Bunday axbopot muhitida samarali faoliyat yuritishi uchun har qanday mutaxassisda eng zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalardan biri bu mediasavodxonlik bo‘lishi lozim. Mediasavodxonlik global axbopot makonidagi media-axbopot oqimlari bilan adekvat munosabatda bo‘lish, mavjud mediamatnlarni qidirish, tahlil qilish, tanqidiy baholash va yaratish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda oliy ta’lim tizimi jamiyatning turli xil kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy muammolarni hal qilishda mediamuhitidan samarali foydalana oladigan, tanqidiy fikrlaydigan mediasavodxon mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi kerak.

Bugungi globallashtirilgan dunyoda axbopot tobora o‘zining strategik resurs ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, xalqaro munosabatlar, xavfsizlik sohalarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Zero, zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyasini tushuntirishda yangi axbopot texnologiyalarining roli juda muhim. Axbopotga juda ko‘p ta’riflar berilgan bo‘lib, ularning aksariyatida axbopotning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi va yaxlit tizim sifatida himoyalanganlik holatiga urg‘u beriladi.

Hozirgi jamiyatni axbopotlashgirish jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biri ta’limni axbopotlashtirishdir. Ta’lim sohasini metodologiya, o‘qitish maqsadlarining psixologik-pedagogik tadbiriga yo‘naltirilgan yangi AKT vositalarini samarali foydalanish va yaratish amaliyoti bilan ta’minlash jarayonlari bu ta’limni axborotlashdir. Albatta, inson medialar bilan ishlashi jarayonida ziddiyatli axbopotga duch keladi. Ushbu holatlarda axbopotdan foydalanuvchi turli manbalardan ma’lumotni izlash ko‘nikmasini shakllantirishi lozim. Bu esa yangi axbopotni mavjud bilimlar orqali baholash hamda shaxsiy qarashlarni shakllantirishga zamin yaratadi.

“Media” atamasi (lotincha – medium, ya’ni vosita, vositachi, usul) turli ko‘rinishdagi axbopot va kommunikatsiya vositasini anglatib, u axbopotni yaratish, nusxalashtirish, tarqatish hisoblanadi. Media mazmuniga mualliflar va ommaviy auditoriya o‘rtasida ma’lumot almashinuvining texnik vositalari ham kiradi. Media, avvalo, OAV (gazeta, televidenie, radio, axbopot agentliklari, internet va hakazo)ni anglatadi, ikkinchidan, undan mediakontentni ya’ni yangiliklar, reklama e’lonlari, elektron o‘yinlar va filmlarni belgilash uchun foydalaniladi. Shuningdek, u mediakontentni ishlab chiqaruvchilar, jurnalistlar, fotosuratchilar, mediakompaniyalarni ham bildiradi. Undan foydalanuvchi auditoriya texnologiyalar, kontent va media ishlab chiqaruvchilari bilan turli interfaol munosabatda bo‘ladi. Bundan tashqari, media ko‘ngilochar funksiyani ham bajarib, foydalanuvchilarga faol ishtirok etishi uchun turli makonlarni, jumladan, virtual makonni taklif etadi.

Hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotiga medialarning ta’siri yil sayin oshib borib, ular vositasida insonlar atrof-voqelikni ijtimoiy va ruhiy jihatdan anglamoqda va baholamoqda. Zamonaviy medialarning asosiy jihatlari sirasiga tadqiqotchilar kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va innovatsiyalarni kiritmoqda. Media - ommaviy axbopot vositalari, maxsus va keng auditoriyaga mo‘ljallangan ko‘ngilochar takliflarni tavsiya etuvchi, yangilik, axbopot va reklama axbopotini tarqatishga yo‘naltirilgan ko‘p sonli va serqirra funksiyalarni amalga oshiruvchi kommunikatsiya kanallaridir. Aksariyat hollarda mutaxassislar media atamasi o‘zagida aynan ushbu tavsifni ko‘radi. Shunga qaramasdan, mazkur istilohning tor mazmuni ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar mazkur atama mazmunida alohida axbopot muhiti sifatida aynan OAVni, boshqalari esa – aniq

axbopot tashuvchini nazarda tutadi. Kommunikatsiya kanali sifatida media tarkibiga bosma va elektron OAV, shu jumladan Internet, reklamaning tashqi vositalari, pochta tarqatmasini ya'ni, tovar yoki xizmatlar sotuvchisi va iste'molchi o'rtasidagi munosabatni kiritadi.

Shu o'rinda mediasavodxonlikka to'xtaladigan bo'lsak, u axbopotga egalik, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanishning muhimligini anglatadi. Mediasavodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan aqliy ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi. Mediasavodxonlik axbopot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat'iy nazar, o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq.

“Mediaavodxonlik” (medialiteracy) tushunchasi haqida fikrlarni o'rganish jarayonida, G'arb mediashunoslari ushbu tushunchaga insonlarning hayotidagi medialar mazmunini tushunishda unga tanqidiy nuqtai nazar bilan qarashga yordam beradi degan izohni berishgan. B.Dankanning fikricha, mediasavodxon inson mediamatnlarga baho berishda tanqidiy va tahliliy yondashuvi, “ommaviy madaniyat” unsurlari bilan munosabatda manipulyatsiya jarayoniga qarshilik qilishi hamda tanqidiy masafada bo'lishi kerak deydi. S.Vorsnop mediasavodxonlikka mediamatnlarni sharhlash, yaratish va tahlil etish jarayoni deb ta'rif beradi. R.Kubey esa mediasavodxonlikni inson uchun turli shakllardagi ma'lumot va axbopotlarni olishlari, tahlil etishlari, baholash va uzatishga oid qobiliyatidir degan.

10.3. Tashkilotlarda axborot xizmati faoliyatining axborot texnologiyalari chambarchas bog'liqligi.

Hozirgi vaqtda korxonalarda yuzaga kelayotgan axborot xavsizligi tahdid turli hil omillar natijasida yuzaga keladi. Bularga misol qilib korxonada ishchilarning ichki axborot xavfsizligi qoidalariga rioya qilmasligi, axborotni qabul qiluvchi va uzatuvchi qurilmalarning nosozligi, internet tarmog'idagi turli xil spam va virusli xabarlar shular jumlasidandir. Ulardan himoyalashning bir qancha yo'llari bor quyida biz bularni

ko'rib chiqamiz. Avvalo korxonada axborot xavfsizligini ta'minlashda ichki muhitni inobatga olish kerak. Hodimlar boshqaruviga alohida e'tibor berish kerak.

Har bir xodim korxonaning ichki tartib qoidalariga so'zsiz bo'ysinishi kerak. Bularga biz quyidagilarni misol qilib keltirsak bo'ladi. Hodimlar korxonada ichki sirlarini tashqariga olib chiqmasliklari kerak. Ular korxonada qonun qoidalariga ro'yiya qilishlari kerak. Endi korxonada ishlatilyotgan axborot qurilmalarini axborot tahdidlaridan himoya qilish choralarini ko'rib chiqsak. Hozir sir emaski internet tarmog'i orqali turli xildagi kiberhujumlar uchrab kelmoqda. Bunda hakerlar korxonada axborot tizimiga internet tarmog'i orqali hujum uyushtirib kerakli ma'lumotlarni oladilar. Misol uchun bank hisob raqami to'g'risidagi ma'lumotlarni va o'z maqsadlari yo'lida foydalanadilar. Endi oddiygina kompyuter viruslari va spamlar korxonada axborot tizimiga qanday zarar keltirishi mumkinligi to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tsak.

Kompyuter viruslari ular zamonaviy biznes uchun haqiqiy xavf tug'diradi. Virusning korporativ tarmoq tugunlariga kirib borishi ularning faoliyatining buzilishiga, ish vaqtining ma'lumotlarning yo'qolishiga, maxfiy ma'lumotlarning o'g'irlanishiga va hatto pul mablag'larining bevosita o'g'irlanishiga olib kelishi mumkin. Korporativ tarmoqqa kirgan virusli dastur hakerlarga kompaniya faoliyatini qisman yoki to'liq nazorat qilish imkonini beradi. Spam bu bir necha yil ichida spam kichik bezovtalikdan xavfsizlikning eng katta tahdidlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda elektron pochta asosiy tarqatish kanaliga aylandi. Spam xabarlarini ko'rish va keyin o'chirish uchun ko'p vaqt talab etadi, xodimlarda psixologik noqulaylik hissi tug'diradi. Viruslardan saqlanishda biz antivirus dasturlaridan foydalansak bo'ladi. Lekin bu korxonada uchun qo'shimcha xarajat ta'lab etadi. Sababi kuchli antivirus dasturlari pullik. Spamlardan himoyalaniş esa oddiygina elektron pochta dasturidagi noma'lum xabarni ochmaslik bilan himoyalaniş mumkin.

Hozirgi vaqtda axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat korxonada faoliyatida, balki har bir informatsion texnologiyalardan foydalanuvchi boshqa soha vakillari uchun dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Shu bois korxonada faoliyatini bir maromda amalga oshirish uchun axborot xavfsizligini ta'minlash bu juda muhim masaladir. Gapimizni misollar bilan davom ettirmoqchimiz. Bugun kunda korxonalar o'rtasida

raqobatni har jabhada ko'rishimiz mumkin. Har bir korxonada raqobatda yutib chiqish uchun bor imkoniyatlarini ishga soladi. Bunga misol qilib bir korxonada ishlab chiqaryotgan mahsulot tannaxsinini sir saqlashini aytib o'tishimiz mumkin. Agar bu oddiy jadval raqamli axborot tarzda saqlanyotganini xisobga olsak, bu axborotni yaxlit saqlash korxonada uchun qanchalik muhimligini aytmasak ham bo'ladi.

Bundan tashqari hozirdalikda faoliyat olib borayotgan yirik banklar hakerlar hujumiga uchrab kelayotgani ham sir emas. Yana bir misol bugun axborot texnologiyalari bilan birga kiberhujumlar ham rivojlanib, turlari ko'payib boryapti. Ayniqsa, hozir ijtimoiy injiniringni qo'llagan holda amalga oshiriladigan kiberhujumlar soni ortmoqda. Ulardan himoyalaniish esa bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Umuman olaganda axborot xavfsizligini ta'minlashga to'siq bo'layotgan muommalardan misol keltirib o'tsak. Hozirgi vaqtda axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy muammolariga biz axborotning ko'pligi va qayta ishlashning murakkabligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Axborot oqimining ko'pligi uni himoya qilishga jiddiy to'sqinlik qiladi. Va asosiy muammolardan yana biri bu qaysi axborotni xavfsizligini ta'minlashni aniqlab olishdir.

Xavfsizlikni ta'minlashning asosiy muammolaridan yana biri bu xavfsizlikni ta'minlovchi yagona tizimning mavjud emasligidir. Avvala aytib o'tganimizdek tashkilot axborot xavfsizligini boshqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligi ko'p jihatdan nimani himoya qilish kerakligiga bogliq. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki hozirgi vaqtda korxonada axborot xavfsizligini himoya qilish bu korxonada faoliyatini bir maromda borishini ta'minlovchi asosiy omillardan bo'lib hisoblaniladi. Korxonada axborot xavfsizligini ta'minlashda hozirda zamonaviy qurilmalar va dasturiy ta'minotlar katta yordam beradi.

Buni biz quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin. Oddiygina korxonada hududida yuzni tanib olish qurilmasidan foydalanish korxonada axborot xavfsizligini ta'minlashda yuqori samara berishi mumkin. Lekin bunday vositalardan foydalanish korxonada uchun qo'shimcha harajat talab etishi mumkin. Bundan tashqari korxonadagi elektron qurilmalarga kalit so'zlarini o'rnatish ham elektron tarzda saqlanyotgan ma'lumotlarni himoya qilishda samara beradi. Endi biz qisqacha korxonada axborot

xavfsizlik tizimi to'g'risida to'xtalib o'tsak. Tashkilotning axborot xavfsizligi tizimi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi; tartibga soluvchi, tashkiliy (ma'muriy), texnik, dasturiy ta'minot. Har bir tarmoq o'zaro chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Ular o'zaro uzviy bog'liqdir.

Korxonada xavfsizlikning barcha sohalaridagi vaziyatni to'liq baholash uchun axborot resurslari xavfsizligi muammosiga tizimli yondashuvni belgilaydigan va maqsadlar, vazifalarni tizimli ravishda taqdim etadigan axborot xavfsizligi konsepsiyasini ishlab chiqish kerak. Albatta bu vaqt va xarajat talab etadigan jarayondir. Axborot xavfsizligini ta'minlash vazifasi tizimli ravishda hal qilinishi kerak. Bu shuni anglatadiki, turli xil himoya vositalari (apparat, dasturiy ta'minot, jismoniy, tashkiliy va boshqalar) bir vaqtning o'zida va markazlashtirilgan nazorat ostida qo'llanilishi kerak. Albatta bunga erishsa bo'ladi. Bu esa korxonada faoliyatining rivojida katta hissa qo'shadi. Yana biz shuni takidlab o'tishimiz kerakki bugungi kunda axborot xavfsizligiga katta e'tibor berishimiz kerak. Chunki hozir axborot oqimini tartibga solish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tayanch iboralar: korxonada, xavfsizlik, markazlashtirilgan, vaziyat, elektiron soha, dasturiy ta'minot.

Nazorat savollari:

1. Korxonada axborot xavfsizligini ta'minlashda nimaga qaratish lozim?
2. Axborot oqimini tartibga solishda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
3. Kompyuter viruslarini zamonaviy biznesni rivojlantirishdagi salbiy ta'siri?

XI. BOB. VIRTUAL O‘YINLARNING YOSHLAR ONGIGATA‘SIRI.

11.1.O‘yinlarining yoshlar tarbiyasiga salbiy ta‘siri.

XXI asrda dunyoning mafkuraviy manzarasi tubdan o‘zgarib, global integratsiya jarayonlarining jadallashuvi yangicha tafakkur uslubini taqozo qilmoqda. Yoshlar, o‘smirlar ongida Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish, mustaqillikning oliy ne‘mat ekanligini tushuntirish, millat va xalq manfaati yo‘lida kerak bo‘lsa fidoyilik ko‘rsata oladigan, mustaqilligimizning mohiyatini va qadrini anglaydigan, uni har qanday xavf-xatardan asrashni o‘zining muqaddas burchi deb biladigan, muayyan mutaxassislikni, kasb-hunarni chuqur egallagan, mustaqil, erkin fikrlaydigan, ma‘naviy va jismonan barkamol insonni tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylanib qolmoqda. Bu esa yoshlarda tarixiy voqelikka ob‘ektiv baho berish va to‘g‘ri xulosa chiqarish malakalarini shakllantirishni talab qiladi.

Ayni davrda yoshlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli xil vayronkor g‘oyalarning kirib kelishi ayniqsa, internet tarmog‘i orqali ko‘proq ko‘zga tashlanyapti. Bu jarayon farzandlarimizning kompyuter texnologiyalari, turli kompyuter o‘yinlariga qiziqishining ortishi bilan ham bog‘liq. Ularning bu qiziqishlaridan buzg‘unchi g‘oya targ‘ibotchilari o‘z maqsadlari yo‘lida samarali foydalanishga harakat qilmoqda. Boshqacha aytganda, «o‘yinbozlik» jamiyatning ma‘lum bir qismiga tahdid ekanligini yaxshi biladigan ekstremistlar o‘smirlar, yoshlar ongini shu yo‘l bilan egallashga harakat qilmoqda. «Olimlar I. P. Korolenko va T. A. Donskix o‘yinbozlik alomatlarini shunday tasniflashgan:

- 1.O‘smirning o‘yinda o‘tkazayotgan vaqti miqdorining oshib borishi
- 2.Oldingi odatlar, qiziqishlar doirasi torayib, o‘yin haqida ko‘proq o‘ylashi;
- 3.Yutsa ham, yutqizsa ham o‘yindan chiqa olmasligi;
- 4.O‘yin boshlanishini orziqib kutish, o‘yinsiz qolganda bezovta bo‘lib, asabiylashish;
- 5.Tobora ko‘proq o‘ynash istagi, o‘yinga tobora ko‘proq narsa tika borish;

6.O‘yindan o‘zini to‘xtata olmay qolishi. «Bo‘ldi, o‘yinni tashladim», – deydi, biroq oldin birga o‘ynagan sheriklarini ko‘rsa, o‘yin haqida gap ochilsa, o‘yingohning yonidan o‘tayotganda qaroridan tez aynib qoladi;

7.Ota-onasidan o‘yinga pul olish uchun yolg‘on gapirishi, o‘g‘irlik qilishi;

8.Oila a‘zolaridan, shifokorlardan va boshqalardan o‘zining o‘ta o‘yinparastligini yashirib, yolg‘on gapirishi kabilar o‘smirning o‘yinparastligidan dalolat beradi».

Ko‘rinib turibdiki, o‘smirlik davrida tarbiyaga jiddiy yondashmaslik, farzandning xatti-haraktlariga nisbatan befarqlik natijasida ko‘pchilik hollarda farzandni qo‘ldan chiqarish mumkin. Zero, «o‘yinbozlik»ning oqibati yoki turli informatsion o‘yinlarga mukkasidan ketish natijasida nafaqat mutaassiblik, balki turli xil kasalliklarning kelib chiqishi ham kuzatilyapti. Ya’ni internet o‘yinlariga ishqibozlik oqibatida miya faoliyati bilan bog‘liq insult, ludomaniya, ruhiy kasalliklar, aksariyat hollarda yuragi yorilib o‘lish kabi salbiy oqibatlar ko‘zga tashlanyapti. Bu esa rivojlanib borayotgan davlatimiz uchun eng katta tahdidlardan biri hisoblanadi.

Demak, tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish, farzand tarbiyasini doimiy nazorat qilish g‘oyat muhim. Farzandga internetni butunlay cheklash mumkin emas. Ta’qiqlangan narsaga nisbatan bolada qiziqishning kuchayishi tabiiy. Turli xil kompyuter o‘yini, ya’ni «aksion», «strategiya» yoki «shuter» kabi bir qator o‘yinlarning qay biri bo‘lishidan qat’iy nazar bolani jazavaga tushish, tajovuzkorlik, ruhiy buzilishlardan asrash uchun internetdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish muhim. Boshqacha aytganda, internet global tarmog‘i insoniyat hayotiga qandaydir o‘yinlarni o‘ynab huzurlanish uchun emas, balki ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiladigan ilmiy ma’lumot va axborotlarni olish imkonini yaratish maqsadida kirib kelgan.

Darhaqiqat, bolaning fiziologik va aqliy rivojlanishi bevosita tarbiya jarayoniga bog‘liq. Bu jarayonni ota-onalar mas’uliyat bilan sidqidildan amalga oshirishga majburdirlar. Azaldan farzand tarbiyasida muhim o‘rin egallab kelgan, uning dunyoqarashi shakllanishiga xizmat qiladigan, faoliyat mezonini ezgulikka yo‘naltiradigan milliy o‘yinchoqlar o‘rnini qandaydir odam o‘ldirib huzurlanishga yo‘naltirilgan internet o‘yinlari egallab olishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ma’lumki, o‘sib

kelayotgan bola beg‘ubor bo‘lgani bois ro‘parasidagi odamdan yomonlikdan kutmaydi. Xuddi shu tariqa bola uchun qiziqarli bo‘lgan o‘yinlarning salbiy oqibatlarga olib kelishi uning xayoliga ham kelmaydi. Ularni hushyorlikka o‘rgatish, tushuntirish ishlarini olib borish, eng asosiysi, ko‘ziga chiroyli ko‘ringan narsalarga mahliyo bo‘lib ketadigan darajada nodonlik botqog‘iga botmasligining oldini olish ota-ona va pedagoglarning jamiyat oldidagi ajralmas burchidir.

N. Komilov ta’kidlaganidek: «Odam qanchalik nodon bo‘lsa, u xurofotga, so‘zlar sehriga, shakllarga mahliyo bo‘ladi, rasm-rusumga, aqidalarga shuncha beriluvchan bo‘ladi. Va, aksincha, odamning ma’rifati, bilimi oshgan sari, u ...mazhabparastlikdan, aqidaparastlikdan yuqori ko‘tarilaveradi...».

Barkamol avlod tarbiyasida oila ilk maktab vazifasini o‘taydi. Bolani yoshligidan yolg‘on gapirmaslikka, to‘g‘ri fikrlashga, har bir narsadan to‘g‘ri foydalanishga o‘rgatish, Vatanga muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish dastlab oilada amalga oshiriladi. Farzandlarimizni internet boshqarishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Shunday ekan, farzandlarimizni ko‘zlariga chiroyli ko‘ringan narsaning tashqi tomoniga emas, balki mohiyatiga e’tibor berishga o‘rgatish, “o‘yinbozlik” kasaliga duchor bo‘lishdan asrash uchun barchamiz birdek mas’ulmiz.

Internet-bu davr talabidir. Hozirgi kunda internet hayotimizning bir bo‘lagiga aylangan. Internet-bizlar uchun juda ham engilliklar va qulayliklarga egadir. Uzog‘imizni bizga yaqin qiladi va o‘zimiz uchun kerakli barcha ma’lumotlarni internet orqali izlab topmoqdamiz. Internetdan qanday foydalanish o‘zimizning qo‘limizda. Har bir narsaning o‘ziga yarasha foydasi bo‘lgani kabi, shunga yarasha zarari ham bor. Hozirda internetdan hammaham yaxshi maqsadda foydalanmayapti. Internetdagi virtual video o‘yinlar yoshlariga o‘z ta’sirini o‘tkazyati. Ularning ma’naviy ongiga va ruhiyatiga futur etkazyapti. Bu virtual o‘yinlarni Amerika tibbiyot uyushmasi videoo‘yinlarga berilib ketishni rasman aqliy zaiflik kasalliklari qatoriga kiritish niyatida. Shifokorlarning fikricha, bu kasallik kuniga ikki soatdan ortiq o‘yin o‘ynaydigan har qanday kishi salomatligiga xavf soladi. Bu internetdan ko‘ngilxushlik izlaydiganlarga ham tegishli. Kompyuter o‘yinlarining keragidan ortiq mashhur bo‘lib, ommalashib ketgani va yoshlarga salbiy ta’siri tibbiyotchilarni ko‘pdan beri tashvishga

solib kelayotgan muammolardan biridir. Hozir dunyodagi juda ko'p mintaqalar, jumladan, Yevropa mamlakatlarida internetga asirlik xastaligini davolaydigan maxsus shifoxonalar bor. Bunga misol qilib Koreyada va Yevropa davlatlarida bo'lib o'tgan voqealarni aytib o'tishlikni joiz,-deb topdik.

Janubiy Koreyada harbiy-strategii o'yinlar kuliga aylangan 28 yoshli yigit olamdan o'tdi. Ma'lum bo'lishicha, u uch kecha-kunduz davomida o'yinxonadan chiqmagan. Faqat hojatxonaga chiqish va gohida ozgina mizg'ib olish uchun o'yin stolidan nari ketgan, xolos. Bungacha o'g'li necha kundan buyon bedarak ketganidan xavotirga tushgan ona yordam so'rab, bolasining sobis hamkasblariga murojaat qiladi. O'g'il o'yinlarga berilib ketgani otsibatida bir oy oldin ishdan haydalgan edi. Sobiq hamkasblar "o'yin bandasi"ni juda oson topishdi. U yaqin oradagi o'yinxonada edi. O'yinlar quli darhol uyga etib borishi kerakligi haqidagi iltimoslarga: "O'yinning shu bos'hichini oxiriga etkazib ko'yay, albatta boraman", - deb javob beradi. Birok, bu gapidan bir necha daqiqa o'tib, u yurak xurujidan vafot etadi. Tashxisga ko'ra, yurak xuruji qattiq charchoq holatining haddan ortiq cho'zilib ketishi bois yuzaga kelgan.

Kompyuterda soatlab, kunlab o'tirib, turli vertual mukofotchalarini, yutuqlarni "qo'lga kiritgan" kishi uchun ular chinakamiga qimmatli ma'no kasb eta bo'shlaydi. Bunday ball va yutuqlar "sodiq" o'yinchilar orasida sotiladi, xarid qilinadi. Bunday ishga esa pul ayamay sarflanadi. Masalan, "Rgojest Yentropia" o'yiniga mukkasidan ketgan avstraliyalik Devid Stor ismli talaba 35 ming AQSh dollari evaziga virtual orol sotib oldi. Bu orolda eski qal'a, bir qancha cho'milish va turli maxluqlarni ovlash uchun maxsus joylar bor. Lekin bu joylar faqat tasavvurda, kompyuter ekranidagina, xolos. Juda ko'p o'yinlar odamlarni, hayvonlarni shafqat- sizlarcha o'ldirish, qon to'kish sahnalari asosiga qurilgan. Bunday ayanchli lavhalar nafaqat yoshlarning, hatto yoshi kattalarning ongiga ham juda kuchli salbiy ta'sir ko'rsatadi. "STA", "Snayper" va "Qotil" kabi o'yinlarga berilganlarning ba'zilar keyinchalikhaqiqiy qotilga aylanishgani fikrimiz dalilidir.

— 2002-yili amerikalik Shon Villi ismli 21 yoshli yigit o'zini o'zi peshonasidan otib o'ldirdi. Aniqlanishicha, u "EverQuest" nomli kompyuter o'yiniga mukkasidan ketgan ekan. Uning o'sha o'yinda yutqazib, yig'gan ballari va mukofotlaridan

ajralganiga chidayolmay, o'z joniga qasd qilgani ma'lum bo'ldi. —2004 yili Buyuk Britaniyada 17 yoshli Uorren Leblan 14 yoshli Stefan Pakirning joniga qasd qildi. Sud jarayonida ayblanuvchi “MapNipS kompyuter o'yini ta'siriga tushib qolganini aytadi.

Bu hikoyalarning barchasining tub zamirida bizlar uchun hikmat bordir. Bularning barchasidan ibratlanishimiz kerak. Internetdan ham yaxshi tomonlama foydalanishimiz kerak. Chunki, har birimiz Qiyomat kunida qilib o'tgan yaxshi-yu yomon ishlarimizdan so'ralurmiz. Yaxshilik ham yomonlik ham o'zimizning qo'limizda. Hozir vertual o'yinlar keltirib chiqarayotgan illatlar, yoshlarni halokatga gririffor etayotgani va nobud qilayotgani haqida so'z yuritmoqchimiz. Shuningdek, Islom dinida bunday ishlarga berilmaslik haqidagi ko'rsatmalariga ham to'xtalmoqchimiz.

Hozirgi kunda Amerika tibbiyot uyushmasi videoo'yinlarga berilib ketishni ham rasman aqliy zaiflik kasalliklari qatoriga kiritish arafasida. Shifokorlarning fikricha, bu kasallik kuniga ikki soatdan ortiq o'yin o'ynaydigan har qanday kishi salomatligiga xavf soladi. Bu internetdan ko'ngilxushlik izlaydiganlarga ham tegishli albatta. Kompyuter o'yinlarining keragidan ortiq mashhur bo'lib, ommalashib ketgani va yoshlarga salbiy ta'siri tibbiyotchilarni ko'pdan beri tashvishga solib kelayotgan muammolardan biridir. Hozir dunyodagi juda ko'p mintaqalar, jumladan, Yevropa mamlakatlarida internetga qullik hastaligini davolaydigan maxsus shifoxonalar ko'paymoqda.

Ma'lum qilinishiga ko'ra, tadqiqotchi Hilmiy Xidir Soriy “internet orqali bog'lanishning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri” mavzuida 471 kishi o'rtasida o'tkazgan so'rovlar natijalariga ko'ra, internetga mutelik oqibatida ijtimoiy va ruhiy yolg'izlik muammosi ko'payayotgani aniqlangan. Sarosima, tushkunlik, xavotir, farzandlarning internet bilan mashg'ulligi sababli yosh oilalardagi kelishmovchiliklar, yoshlarning oila a'zolari bilan aloqalari beqarorlashuvi ushbu muammoning asosiy alomatlari sifatida ko'rsatilmoqda. Bunga Ustozimiz Aydarbek Tulepovning “Internetdagi tahdidlardan himoya” asarida keltirilgan voqiani misol qilib keltirish mumkin.

Janubiy Koreyada harbiy-strategik o'yinlar quliga aylangan 28 yoshli yigit olamdan o'tadi. Ma'lum qilinishiga ko'ra, u uch kun davomida o'yinxonadan chiqmagan ekan. Faqat hojatxonaga chiqish va gohida ozgina mizg'ib olish uchun o'yin stolidan nari ketgan, xolos. Bungacha o'g'li necha kundan buyon bedarak ketganidan

xavotirga tushgan ona yordam so‘rab, bolasining sobiq haskasblariga murojaat qiladi. O‘g‘il o‘yinlarga berilib ketgani oqibatida bir oy oldin ishdan haydalgan edi. Sobiq hamkasblar “o‘yin bandasi”ni juda oson topishadi. U yaqin oradagi o‘yinxonada edi. O‘yinlar quli darhol uyiga etib borishi kerakligi haqidagi iltimoslarga: “O‘yinning shu bosqichini oxiriga etkazib qo‘yay, albatta boraman”, - deb javob beradi. Biroq bu gapidan bir necha daqiqa o‘tib, u yurak xurujidan o‘ladi. Tashxisga ko‘ra, yurak xuruji qattiq charchoq holatining haddan ortiq cho‘zilib ketishi sabab yuzaga kelgan edi.

Kompyuterda soatlab, kunlab o‘tirib, turli vertual qo‘shirnoq ichidagi mukofotchallarni, yutuqlarni “qo‘lga kiritgan” kishi uchun ular chinakamiga qimmatli ma’no kasb eta boshlaydi. Mana shunday ball va yutuqlar “sodiq” o‘yinchilar orasida sotiladi, xarid qilinadi. Bunday ishga esa ayamay pul sarflanadi. Masalan, “Project Entropia” o‘yiniga mukkasidan ketgan avstraliyalik Devid Stor ismli talaba 35 ming AQSh dollari evaziga vertual orol sotib oladi. Bu orolda eski qal’a, bir qancha cho‘milish va turli maxluqlarni ovlash uchun maxsus joylar mavjud. Lekin bu joylar faqat tasavvurda, kompyuter ekranidagina, xolos.

Juda ko‘p o‘yinlar odamlarni, hayvonlarni shafqatsizlarcha o‘ldirish, qon to‘kish sahnalari asosiga qurilgan. Bunday ayanchli lavhalar nafaqat yoshlarning, hatto yoshi kattalarning ongiga ham juda kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. “GTA”, “Snaypir”, “Qotil” va boshqa ana shular kabi o‘yinlarga berilganlarning ba’zilari keyinchalik haqiqiy qotillarga aylanishgani fikrimizga yaqqol dalil bo‘ladi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari orqali tez-tez eshitib qolamiz: G‘arb mamlakatlarida maktab o‘quvchilari, o‘smir yigit-qizlar o‘z ota-onalari, o‘qituvchilari, tengdoshlari o‘limiga sabab bo‘lishmoqda. Bunday dahshatli voqealar G‘arb bolalariga vertual olam berayotgan “tarbiya”ning zaharli mevasi ekani achchiq haqiqatdir. Kompyuter o‘yinlari kabi behuda va talofatli ishlarga sho‘ng‘ishni Islom dini qoralaydi. Chunki buning natijasida bolaning imon-e’tiqodi zaiflashib, shaytonning quliga aylanadi va uning nayranglari bo‘yicha ish qiladi. Oqibatda o‘zi ham halok bo‘ladi. Shunday ekan, bu haqda tafakkur qilib, aql yuritishimiz lozim.

11.2. Virtual olamda tarbiya masalalarining muhim jihatlari.

Kompyuter avval maxsus zallarda paydo bo'ldi, ularda yuqori malakali mutaxassislar ishlay boshladilar. Asosan mudofaa va boshqa tadqiqotchilik masalalari bilan shug'ullandilar. Ko'pincha hisoblash texnikasi matematika, mantiq, ratsional g'oyalar bilan bog'liq masalalar ustida ish yuritdilar. Insonlar undan umuman oddiy maqsadlarda (masalan, o'yinlar uchun) foydalanishlari mumkinligi hech kimning xayoliga ham kelmagan. «Kompyuter o'yinlari» iborasi esa bema'ni xayoldek tuyulishi mumkin edi. Shunday bo'lsa ham monitor oldidagi jiddiy, zavqsiz, sovuqqon olimlarning o'rinlarini zavqli, qiziquvchan o'yinchi bolalar egalladi.

Bugungi kunda kompyuter o'yinlari faqatgina o'yin emas, balki madaniyat, bilim, ta'lim va tarbiya masalalari targ'ibotchisiga aylandi. O'yinlar sahnaga, kartinalar ko'rgazmasiga yoki kitob sahifasiga o'xshamaydi, ammo xuddi shular kabi zamonaviy ma'naviyatni, axloqiy xususiyatlar, xayollar, orzu va tasavvurlarni ifoda etadi. Har qanday madaniy ijod kabi o'zini ifoda etish uchun ba'zi imkoniyatlarni yaratadi, boshqalarini cheklaydi. Ilgari yozuvchi yoki ssenariy mualliflari syujet rivojlanishining bir variantini yaratgan bo'lsalar — endilikda kompyuter vositasida uni turli yo'nalishlarda yaratish mumkin. Ilgari kompozitor kuy ijrosining bir variantini yozib olgan — bugungi kunda esa prodyuserlar bir mavzuning 5-6 turli variantlarini bajarishi mumkin. Ilgari rassom harakatsiz kartina bilan cheklangan — hozirga kelib, kartinada bulutlar suzib yurishi, daryolar oqishi, harakat ifoda etilishi mumkin. Kompyuter va axborot texnologiyalari tufayli barcha sohalarda texnik cheklanishlar asta kamayib bormoqda.

Kompyuter o'yinlari insonlarga xayollar va orzular olamiga kirish imkonini beradi. Ilgari hech qachon haqiqiy bo'lmagan olamga bunday chuqur kirib borish va unda ishtirok etishning shunchalik katta erkinligiga ega bo'lish mumkin bo'lmagan. Kompyuter o'yinlarining interfaolliigi uning kino, teatr va kitoblardan ustunlik jihatini namoyon etadi: o'yinlar hamkorlikdagi faoliyatga chorlaydi, o'yinchi passiv kuzatuvchi bo'lib qolishi mumkin emas, ya'ni u sodir bo'layotgan hodisalarga faol ta'sir ko'rsatadi. Odatda, sport musobaqalari yoki o'yinlari ham hamkorlikdagi faoliyatga chorlaydi, ammo u yerda o'yinchining o'zini ifoda etishi erkinligi murakkab taqiqlar tizimi bilan

chegaralanadi. Kompyuter o'yinlari esa «Shaxsiy faollik»ni ifodalab, ba'zan odob qoidalari kabi cheklashlardan holi qiladi.

Grafik harakatlarning vazifasi — virtual olamda mavjudlik hissini yaratish bo'lib hisoblanadi. Odatda atrof-olam to'g'risidagi axborotlarning katta qismini inson o'z ko'zi yordamida oladi, shuning uchun mavjudlik hissini yaratishda kompyuter grafikasi asosiy o'rin tutadi. Hech qachon o'zi his qilmagan insonga virtual olam o'yinlarida mavjudlik hissi nima ekanligini tushuntirish qiyin. Ko'pchilik o'yinchilar yarim soat o'yindan so'ng o'yin qahramoni bilan bir insonga aylanishlarini aytadilar. O'yinchi insonligicha qoladi, ammo atrofi xona emas, balki umuman boshqa olamga aylanadi. Shu olamni u o'yindan tashqari hayot — haqiqiy hayot kabi aniq his etadi.

Kompyuterdan tashqari virtual olamda mavjudlik hissini yaratishning boshqa usullari ham mavjud. Ular juda ham ko'p bo'lib, ba'zi mamlakatlarda milliy muammoga aylangan. Bugungi kunda aynan kompyuterning ongga ta'sir etish xavfi yuzaga kelishining oldini oluvchi hamda undan o'sib kelayotgan avlod tarbiyasiga ijobiy ta'sir etuvchi ta'limiy kompyuter o'yinlari ham mavjuddir. Kompyuter xayollari inson organizmini kamroq buzadi, biroq ko'zning charchashi va kam harakatli hayot tarzi zarari ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Uni boshqarish osonroq — o'yinchi xohlagan paytida monitorga qaramasligi yoki ko'zini yumishi mumkin.

Dastavval kompyuter industriyasida mavjudlik hodisasi inson har bir ko'ziga sintez qilingan televizion tasvirni alohida yetkazish yordamida hosil qilingan. Birinchi bo'lib amaliyotda ushbu metodni 1984-yilda Silikon vodiysida «Visual Programming Language Research, Inc» yaratgan amerikalik tadbirkor Jaron Lanye qo'llagan. Ushbu korxonada metodning asosiy texnik komponentlarini — «qo'lqopni», «virtual reallik shlemi» va zarur dasturiy ta'minotni yaratadi. «Virtual reallik» tushunchasining o'zini birinchi bo'lib, Lanye kiritgan.

Shlemni boshga kiyib va virtual reallik tizimi ishga tushirilgandan so'ng maxsus datchik o'yinchining bosh harakatlarini qayd etib boradi. Kompyuter mana shu ma'lumotlar asosida virtual muhitning aynan mana shu nuqtasidan va aynan mana shu ko'rish burchagida ko'rilayotgan virtual olamning ko'rinishini paydo qiladi. Shlemdagi ikki televizor (har bir ko'zga bittadan) mana shu tasvirlarni insonga ko'rsatadi. Agar u

boshini bursa — kompyuter olamning yangi ko‘rinishini quradi. Virtual reallik sanoatning turli sohalarida qo‘llaniladi. Ushbu texnologiya yordamida amerikalik astronautlar manipulyator bilan «Space Shuttle» yuk kabinasini boshqarishni mashq qilganlar. Vaznsizlikni basseynda mashq qilish mumkin, ammo unda manipulyator va harakatlantirayotgan obyektga suvning bosimi ta’sir ko‘rsatadi. O‘zlashtirilgan ko‘nikmalardan haqiqiy kosmik parvozda foydalanish mumkin bo‘lmaydi. Virtual reallikda esa manipulyatorning harakatlari faqatgina dasturga bog‘liq bo‘ladi.

O‘yinlar rivojlanishi davom etmoqda. Texnika qanchalik mukammal bo‘lsa, u shunchalik kam cheklanishlarga ega bo‘ladi — mashhur o‘yinlar insonning ehtiyojlarini va qalbi xususiyatlarini shunchalik aniqroq aks ettiradi. Yangi o‘yinlar hozircha hech kim e’tibor bermayotgan ong va beixtiyorlik nisbatlari to‘g‘risida, ko‘rib idrok etish, inson psixikasidagi tushunarsiz va yaqqol holatlar to‘g‘risida yanada aniqroq fikr yuritishga imkon berishiga shubha yo‘q. Nima bo‘lganda ham bugungi kunda kompyuter o‘yinlari — psixologik xususiyatdagi eng yangi axborot manbai hisoblanadi.

Kompyuter o‘yinlari pedagogikaning interfaol ta’lim texnologiyalari va psixologiyani amaliy qo‘llash eng katta va rivojlangan sohalaridan biri bo‘lib qoldi: ularda psixologik bilimlar hamda metodlardan jadal foydalanilgan, zamonaviy inson esa siyosiy saylovlarda ishtirok etish yoki psixoterapevtga murojaat etishdan ko‘ra ko‘proq o‘yin o‘ynamoqda. O‘yinlarning mashhurligi elektron texnologiya yutuqlaridan ko‘ra ko‘p jihatdan ularning «psixologik jihatiga» bog‘liq bo‘lmoqda. Shuning uchun insoniyat madaniyat taraqqiyotining ushbu yangi sohasida interfaol ta’lim texnologiyalari va psixologiyadan foydalanish hajmi ham, darajasi ham va foydalanish sifati ham uzluksiz o‘sib bormoqda. Qachondir bu mehnat psixologiyasi yoki klinik psixologiya paydo bo‘lgani kabi «Kompyuter o‘yinlari psixologiyasi» paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

Ma’lumki, inson bolalikdan o‘yinlar asosida tarbiyalanib, voyaga etadi. O‘yin — bu faqatgina o‘ynash kerak bo‘ladigan joy emas, balki unda g‘alabaga erishishga harakat qilish kerak bo‘ladi». Virtual olam — bolalar ham va kattalar ham o‘ynaydigan, o‘ynayveradigan kompyuter o‘yinlari. Bolalar juda yoshligidan o‘yin o‘ynay boshlaydilar: uch va to‘rt yoshlaridan... Besh yoshlilarning donolarcha fikr yuritib,

kompyuter to'g'risida gapirishlari esa hatto g'alati tuyuladi: kompyuter oldida ular biz, kattalarga qaraganda, ancha yaxshi, xotirjam va ishonchli o'tiradilar. Bizga kitob o'qish qanchalik odatiy bo'lsa, ularga kompyuter oldida o'tirish shunchalik odatiy hisoblanadi.

Kompyuter o'yinlarini o'ynaganimizda qanday xavf va qiyinchiliklar bizni kutib turadi? Birinchi navbatda, virtual olamda quyidagilarni tushunib olish muhim: bola kompyuter muhitida bo'lib qolganida bu o'yin uni qay tomonlarga olib ketishi mumkin? U tajovus maktabi bo'ladimi yoki dunyoga insonparvarlik munosabati maktabi bo'ladimi? Ba'zan ota-onalar bolalariga qo'shni xonada, deyarli virtual olam yaratilgan xonada o'ynashni taqiqlaydilar. U yerdan, bolalar xonasidan har kuni ota-onalarga juda tanish bo'lgan tovushlar, baqirishlar, jo'shqin hayqiriqlar eshitiladi. Ularga bu miyalariga o'tirib qolgan gallyutsinatsiya kabi tuyula boshlaydi. Lekin shu paytlarda ota-onalar takrorlashda davom etadilar: «O'ynashni to'xtat... Darsing bilan shug'ullan... Boshqa ishni bajar, o'ynama!..» — va bolalar olamini ketma-ket taqiqlaydilar. Mana shunda qo'shni xonadan har kuni bolalari qanday tarbiya olayotganlarini juda kech tushunib qoladilar. Virtual olam bu avlodlar — kattalar va bolalar o'rtasidagi uzilish muhitidir, ular ortida avlodlar nizolari yotgan bo'lishi mumkin. O'sib kelayotgan avlod virtual olamlarga ketib qolmaydilar, ular qaytib keladilar yoki yo'qmi, buni tushunish qiyin. Bolalarning xayolida yer yuzini virtual olamlar qamrab olgan.

Kompyuter o'yinlari o'ynaydigan inson to'g'risida psixologlar fikri qanday? Kompyuter o'yinlari hozirgi kunda shaxsiy kompyuterning asosan inson qalbi: tana uchun kerakli bo'lgan barcha a'zosi — ko'z, quloq va barmoq-larining nozik harakatlari bilan ishlashi xususiyati sababli psixologik xususiyatdagi eng yangi axborotlar manbai bo'lib qolgan. Kompyuterlar kasbiy foydalanishda inson tabiatining namoyon bo'lishini tegishli texnologiyalar doirasi bilan chegaralaydi. Kompyuter o'yinlarida esa bunday cheklashlar yo'q. Fan sifatida interfaol ta'lim texnologiyalari va psixologiyaning xususiyati — obyektiv va subyektiv yondashuvning birligi hisoblanadi. Birinchisi testlar o'tkazish natijalarini tahlil qilishda ko'proq namoyon bo'ladi, ikkinchisi psixoterapevt tomonidan bemor (mijoz) bilan ishlash davomida yuzaga keladigan shaxsiy sezgilaridan foydalanishi hisobiga davolash samaradorligini oshirishga imkon beradi. Kompyuter

o‘yinlariga obyektiv yondashuv — iqtisodiy statistikaga tayanish, subyektiv yondashuv — o‘yinchining taassurotlari va sezgilarini tahlil qilishdan iborat.

Bir tomondan, bu ularga ommaviy qiziqish manbaidir. Boshqa tomondan, bu o‘yinlar ko‘rib idrok etish psixologiyasidan tortib, (fiziologiya bilan chegaradosh) to shaxsning chuqur psixologiyasiga bo‘lgan (falsafiy jihatga ega) ta’limiy jihati bilan juda keng axborot doirasini beradi. O‘yinlar — asosan faqatgina ikkinchi jihati bo‘yicha axborot manbaidir. Kitoblar, ta’limiy o‘yinlar hayotning eng odatiy qonuniyatlari to‘g‘risida hikoya qiladi, shuning uchun eng ko‘p tarqalgan kompyuter o‘yinlari ham tahlil qilishga asoslangan.

Mamlakatimiz dasturchilari oldida millatimizga xos ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda turli ta’limiy va tarbiyaviy o‘yinlar dasturini yaratishdek dolzarb vazifa turibdi. Chetdan kirib kelgan ma’naviyatimizga yot o‘yinlar bilan farzandlarimizning ongini chalg‘itmaylik. Qadimdan ota-bobolarimiz tarbiyaviy o‘yinlar vositasida avlodlarimizni tarbiyalab, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibatlilik xislatlarini shaklantirganlar. Bolalarimiz sevib o‘ynaydigan o‘yinlari ularga zarar emas, balki bilim, ta’lim va tarbiya manbai bo‘lib xizmat qilsin.

11.3. Virtual maydonlardagi o‘yinlarning asl qiyofasi.

Tabiatda «yorug‘lik tezligi» hodisasiga moddaning eng tez harakati sifatida qaraladi. Boshqa narsalar shunga qiyosan tushuntiriladi. Nazarimda, bugun undan ham tezroq vositalar borday. Masalan, bugun dunyoning bir burchagida yuz bergan voqeadan bir zumda butun dunyo xabar topadi. Bu paytda yorug‘lik manbai hisoblangan Quyoshning nuri Yer sharining ikkinchi bo‘lagini hali yoritib ulgurmagan bo‘ladi. Ayniqsa, o‘sha xabar biron negativ hodisa haqida bo‘lsa-ku, har qanday tezlikni dog‘da qoldirib tarqaladi. Bir daqiqa ichida millionlab o‘quvchisini topadigan bunday xabarlarning voqelikka qanchalik uyg‘unligi, omma uchun qay darajada muhimligi, xalqqa nima berishi, shuncha insonning vaqti va mablag‘i evaziga taqdim etilgan xabar biron foyda bera olish-olmasligi ko‘pda o‘ylab o‘tirilmaydi. Odatda bir sho‘rpesonaning boshiga tushgan musibat haqidagi mash’um xabar tarqatiladi va keng miqyosda yoyilib boraveradi.

«Yigirma bir yashar kelin turmush o‘rtog‘ini pichoqlab qo‘ydi», kabi virtual axborot olamida juda bozorgir xabarlar aslida o‘quvchiga nima beradi? Bunday xabarni tarqatishdan ko‘zlangan maqsad ne? Ayollarni erga bo‘sh kelmaslikka targ‘ib etish, o‘rni kelganda shunday usuldan ham foydalansa bo‘lishi haqida tavsiya berishmi? Yoki erkaklarga o‘z rafiqasidan hayiqib, ishonch-sizlik bilan kun kechirishga o‘rgatishmi?

Odatda, bunday xabarlarda kelinning qayerdanligi, millati, ijtimoiy mansubligi, dini kabi bir qancha jihatlar ham aniq ta’kidlangan holda ko‘rsatib o‘tiladi. Qarabsizki, o‘sha hududda yashaydigan hamma ayollar haqida omma orasida negativ fikr paydo bo‘ladi.

Shu zayl insonning sha’ni behurmat qilinadi. Hatto ba’zi bir og‘ziga kuchi yetmaydiganlar bu xabarni yanada o‘zgartirib, bo‘rttirib: «falon joyda ayollar erkaklarni so‘yib ketayotgan ekan», qabilidagi asossiz, bo‘hton va uydirma xabarlarni ham tarqatishga kirishib ketadi. Ulardan «siz ko‘rsatgan manbada unday deyilmagan-ku, nega bo‘hton tarqatyapsiz?» deyilsa, «biz o‘quvchiga qiziqarliroq bo‘lishi, uning e’tiborini jalb qilish uchun xabarning shaklini ozgina o‘zgartirdik, xolos», deb javob berishadi. Bunday kimsalarning maqsadi aniq: shov-shuvli, oldi-qochdi gaplar bilan ommaning e’tiborini o‘ziga jalb etish, vahima tarqatish.

«Qo‘rqsa, hurmat qiladi», degan noxolis yondashuv bundaylar faoliyatida asosiy o‘rinda turadi. Ular o‘quvchiga ijtimoiy foydali ma’lumotni yetkazishni emas, ommani o‘zlariga tobe qilib turishni ko‘zlashadi. Tarqatilayotgan ma’lumotlar noto‘g‘riligi isbotlab berilsa, birpasda virtual maydondagi o‘sha xabarning bahridan o‘tish, uni lentadan osongina olib tashlash mumkin. Lekin uni rost deb qabul qilgan, aldanib qolgan va sarosimaga tushgan ming-minglab o‘quvchining holi nima kechadi? Uning yetkazgan ruhiy-psixologik zarari-chi?

Bunday holatlarni internet saytlari, blogerlarning sahifalari, ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar yoki shaxsiy sahifalarda ham istagancha uchratish mumkin. Xalqning nazaridagi biron e’tiborli shaxsning yuziga loy chaplab, yomonotli qilish, uning «qilmishlari»ni o‘zlaricha «fosh etish» orqali «qahramonlik» ko‘rsatish bemaza qovunning urug‘iday ancha palak otib ketmoqda. O‘rmonga o‘t ketsa, ho‘lu quruq baravar, deyilganidek, orqa-oldiga qaramasdan «fosh etish estafetasi» boshlandi. Bu ishlardan kimga qanday naf borligiga birov bosh qotirib o‘tirmaydi. Hatto birovni

badnom qiluvchi, shov-shuvlarga sabab bo'luvchi, ko'proq ommani jalb etuvchi xabarlarni tarqatish ishlari quruq bo'lmasligi ham hammaga kunday ravshan. O'z oilasi, mahallasi, yurti, Vatani, millati sha'nini sotish evaziga bo'lsa-da, o'z maqsadiga erishayotgan kimsalarning yugurgani somonxonagacha bo'lishi ham ma'lum aslida. Ammo ularning yonida ko'r-ko'rona taqlid ortidan chopib, «so'z erkinligi shu ekan-da», deb aldanib qolayotganlar ham, afsuski, yo'q emas. Avvaliga, shunchaki, mayda-chuyda kundalik maishiy holatlar bilan boshlangan faoliyat keyinchalik hatto jinoyat darajasidagi tajovuzkor harakatga aylanishi mumkinligini sodda fuqaro ba'zan chuqurroq o'ylab ko'rmaydi.

Bu o'rinda yana bir nozik masala bor. Yuqoridagi kabi bo'lmag'ur xabarlarni bo'yab-bejab tarqatayotganlar bir narsani iddao qilishadi: «Bor haqiqatni nega yashirishimiz kerak? Qachongacha elning og'ziga elak tutib yashaymiz? Bunday xabarlarni biz aytmasak ham hamma ko'rib-bilib yuribdi-ku?»...

Bir qarashda bu iddaoda jon borday. Lekin...

Shukrki, bizning ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan yuksak hayotiy tutumlarimiz, milliy hayot tarzimiz bor. Unda nuroniy yoshdagi onamizning qo'liga og'ir yuk ushlatib qo'yib, telefonga videoga olish, keyin onamiz muvozanatni yo'qotib yiqilib tushsa, ustidan xandon otib kulish kabi ishlar insongarchilikka zid va bema'ni harakat hisoblanadi. Bor narsani boriday ko'rsatish hamisha ham to'g'ri bo'lavermasligiga insonning o'z farosati yetishi kerak. Bu haqda millatimizning ma'naviy rahnamolaridan biri – Alisher Navoiy hazratlari «Mahbub-ul-qulub» asarida shunday deganlar:

«Oqil chindin o'zga demas, ammo barcha chinni ham demak oqil ishi emas...»

«Xiradmand chin so'zdin o'zga demas,

Vale bari chin ham degulik emas.

Kishi chin so'z desa zebo durur,

Necha muxtasar bo'lsa, avlo durur».

Navoiyning bu so'zlari shunchaki so'zlar emas. Odam bolasining so'z aytish, xabar berish va ma'lumot yetkazishda aslida qaysi yo'ldan borishi kerakligi haqidagi eng tugal hayotiy ko'rsatmadir.

Bugun hamma ham o'zining hayotida, mahallayu qishlog'i, qolaversa shu yurtda nimadir o'zgarish bo'lishi, kechagidan ko'ra yaxshiroq kun kechirish umidida mehnat qiladi, tirashib-tirmashadi. Taraqqiy etish ilinjida bel bog'lagan. Barcha sohalarda qilinayotgan islohotlar ham ayni shu maqsadga qaratilgan. Dunyoning Vatanimizga bo'lgan ijobiy munosabatini o'stirish, yurtimizga ilg'or sarmoyador, ishbilarmon va sayyohlarni faol jalb qilish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Shunday bir paytda millat uchun ham, davlat uchun ham yoki biron shaxs uchun ham hech qanday foydasi bo'lmagan, lekin behuda shov-shuvga sabab bo'ladigan ma'lumotlarni yoyish bizga nima beradi? Bu o'zimizni o'zimiz badnom qilish emasmi? Hammaning ko'zi oldida o'zimizni o'zimiz badnom qilishdan biron maqsad hosil bo'ladimi?

Yo'q! Bu bilan dunyo ahlida o'zimiz haqimizda badbin taassurotlar qoldiramiz xolos.

O'zlikni namoyish etish o'z aybimizni ommaga e'lon qilish bilan emas, xato-kamchiligimizni to'g'ri anglab yetib, uni begona ko'zlardan pana qilib, tezlik bilan tuzatishga kirishish, shu yo'lda amaliy faoliyatga o'tish bilan bo'ladi. Hozirda yurtdoshlarimizning virtual maydonlardagi ko'pchilik hatti-harakatlari, avvalo, aniq bir maqsadni ko'zlamasdan, shunchaki vaqt o'tkazishga qaratilayotgani hech kimga sir emas. Bu vaqtni, mablag'ni va e'tiborni zavol qilishdir. Virtual olamdagi boshqalarning hayotini tomoshabin sifatida kuzatish alal-oqibatda o'z hayotiga, o'z taqdiri va kelajagiga ham loqayd tomoshabin qiyofasiga solib qo'yadi. Bu esa kuni kelib insonni manqurtlikka olib borishi mumkin.

Yana ayrim virtual maydonlarda qiziqarli ma'lumotlar paydar-pay berib boriladi. Ular chindan ham qiziqarli. Lekin foydali emasligini ham e'tibordan soqit qilmaslik zarur. Masalan, uzoqqa tupirish bo'yicha dunyo birinchiligini qo'lga kiritgan bir nodon kimsa haqidagi xabar bizga, oilamizga va farzandlarimizga nima beradi? Undan ko'ra, o'z hayotimizda qilishimiz shart bo'lgan yuzlab muhim ishlarimiz bilan mashg'ul bo'lganimiz ming karra afzal emasmi?

Ba'zi bir mansabdorlarning qonunga xilof ayrim qiliqlarini tasvirga olib, internet orqali tarqatish bilan biron yaxshilikka erishib bo'lmaydi. Agar imkoni bo'lsa, jamoatchilik nazorati asosida o'sha amaldorga tanbeh berib qo'yish samara berishi

mumkin. Ammo internetga chiqib «nog‘ora qoqish»ga ayrimlarda allaqachon immunitet shakllanib bo‘lgan. Mansabdorning qonunni buzishi bir muammo bo‘lsa, uni yashirincha tasvirga tushirib internetga joylagan kimsaning ishi ham qonunga muvofiq emas. Qolaversa, kim bo‘lishidan qat’i nazar har bir insonning sha’ni va inson sifatidagi obro‘sini omma oldida poymol qilish huquqi hech kimga berilgan emas.

Bir kishi bolasini buyuk bir notiqning huzuriga olib borib: «O‘g‘lim ham xuddi sizday buyuk notiq bo‘lishi uchun nima qilishim kerak?» deb so‘rsa, «Qanday qilib zo‘r gapirishni o‘rganish unchalik muhim emas. Siz, yaxshisi, farzandingizga qachon va qanday o‘rinlarda jim turish kerakligini puxtalab o‘rgating. Gapirishni esa, o‘z-o‘zidan o‘rganib ketaveradi», degan ekan...

Yoshi ulug‘ nuroniy insonlar sal bechakki so‘z aytgan kishiga: «Og‘zim bor deb hamma narsani gapiraverasanmi», deb tanbeh berishadi. Demak, og‘iz degan bog‘ichsiz angishvona nimani gapirish, nimani gapirmas-likni ham yaxshi bilishi kerak ekan. Ota-onalarimizning bu tanbehi bizning asrlar oshib kelayotgan yuksak ma’naviyatimiz, oilaviy qadriyatlarimiz silsilasidagi bir oltin halqa vazifasini o‘taydi.

Mustaqillik bir qadar ma’naviy tushuncha, biroq u mavhum hodisa emas. Vatan mustaqilligi fuqaroga barcha sohalarda mustaqil faoliyat imkonini berdi. Bu o‘z navbatida fuqaroning huquqini kafolatlashi bilan birga majburiyatini ham belgilab beradi. Mustaqillikni o‘zboshimchalik deb tushunish bu – ma’naviy mahdudlikka olib boradi. Huquq va majburiyat egiz tushuncha. O‘z huquqiga ega inson o‘zgalar huquqini ham hurmat qilishi, ularga daxl qilmasligi shart. Keyingi yillarda inson huquqlarining kafolatini aks ettiruvchi bir qancha imkoniyatlar yaratildiki, bunday imkoniyatlar ummonida ba’zan nima qilayotganini bilmay qolganlar ham yo‘q emas.

Aslida internet resurslari insonga dastyor bo‘lishi, bilimni boyitish, o‘qib-izlanib o‘rganish, hayot va mutaxassisligi uchun eng muhim ma’lumotlar, yangiliklar bilan tanishib borish, xullas, og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilishi uchun zaruriy omilga aylanishi kerak. Aks holda, osmonga tupirsang, yuzingga tushadi, naqlidagiday bo‘lib qolish hech gap emas.

Tayanch iboralar: resurs, xavfsizlik, virtual, vaziyat, o‘yin, dasturiy ta’minot, xabar.

Nazorat savollari:

1. O‘yinlarining yoshlar tarbiyasiga qanday salbiy ta’siri bor?
2. Virtual olamda tarbiya masalalarining muhim jihatlari aytib bering?
3. Virtual maydonlardagi o‘yinlarning asl qiyofasi nimalarda namoyon bo‘ladi?

XII. BOB. MEDIA MAYDON VA INTERNET IMKONIYATLARI.

12.1. Internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish texnologiyasi.

Internetda barcha imkoniyatlarni tushunish uchun, siz uning yuzaga tarixida bir oz sarlavhasi kerak. "Internet" tushunchasi tarmog'iga ulangan kompyuterlar o'z ichiga oladi, axborot tizimi almashinuvi global oqimi, resurslarni hisoblash orqali amalga oshiriladi. Axborot giganti barpo etish bo'yicha boshlangan Ishga 1957 kuzatilishi mumkin. Bu paytda u dunyo bo'lib o'tadi qurol poygasi, va Amerika Qo'shma Shtatlari Mudofaa bo'lim biri axborotni uzatishni tezlashtirish uchun bir-biri bilan ma'lum ma'lumotni baham mumkin kompyuterlar bir qator iborat tizimi rivojlanmoqda harbiy bazasi boshqasiga. imkoniyatlari Internet vaqt bu davrda internet, biz bugun foydalanish kabi deyarli hech narsa bor, juda cheklangan.

CLOSE keyingi, hamma narsa katta sur'atlar bilan sodir bo'ladi. Shunday qilib, faqat 15 yil ichida, tarmoq butun dunyo bo'ylab birinchi harbiy va ilmiy maydonini birga olib, xalqaro nisbatlarda oshdi. Internet 1973 yilda sezilarli darajada oshdi. Bu vaqtda, "ilmiy" tarmog'iga telefon liniyasi uchun transatlantik kabel yordamida Norvegiya va Angliyada tashkil qo'shildi. Ushbu tadbir internet tug'ilgan xosdir. Qariyb qirq yil davomida uchib o'shandan beri, kompyuter tarmoqlari ajoyib nisbatlarda harakat qilgan. eng abituriyentlar uchun endi mavjud internet.

Ba'zi ma'noda sayt hosil qiladi. Dastur Internet brauzerlar deb ataladi savol sahifa ko'rish uchun ishlatiladi. Bugun onlayn Eshitish yoki so'z "Internet", degani, ko'p odamlar, ehtimol masala, veb-Bugun zamonaviy odamga taqdim etgan emas, balki fikr texnik tomoni haqida o'ylamaymiz. Tarmog'ida qolaman o'z vaqtida ko'p bag'ishlashga shaxsni olib sabablari tahlil qilish orqali, siz oddiy internet foydalanuvchilari uchun eng muhim imkoniyatlarni tahlil mumkin:

1. Ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, matn va video Bloglar, Tanishuv saytlar, Skype. Yuqoridagi barcha asosiy maqsadi - erkin muloqot uchun masofa shaklida bir to'siq olib tashlash uchun. Ko'ngilochar. O'yinlar, musiqa, filmlar, video, kitoblar, va yana yuqoriga olish holda, olinishi mumkin. O'z-o'zini ta'lim. Kitoblar, tutorials, ta'lim Video, kurslar va juda ham ko'p juda foydali tajriba muayyan maydoni zabt istaganlar uchun. Bunyodkorlik va qo'lda yasalgan. yangiliklar pishirish yoki trikotaj uchun rioya

asta-sekin tarmoq ochiq bo'shliqlar ustida topish qiyin emas. Sotib olish to'g'risida bitim. Internet-pul va onlayn do'konlar har qanday vaqtda yaxshi xarid qilish.

Bugungi kunda dunyo ahlining aksariyat qismi Internetdan foydalanmoqda. Inson va jamiyat bir joyda turmaydi, doim o'zgarib boradi, biz yashab turgan hozirgi vaqtni globallasuv davri deb nomlanishi odatiy holat bo'lib ulgurgan. Ma'lumotlar uzatish vositalarining rivojlanishi barcha davlatlar kiritilgan yagona axborot tizimini yaratilishiga xizmat qildi. Aynan Internet tufayli lokal axborot tarmoqlari yagona global tarmog'iga birlashadi.

Ushbu sohaning rivojlanishiga respublikamiz Rahbariyati tomonidan ham katta e'tibor qaratilayotganini ta'kidlab o'tish muhim. Jumladan, respublikada axborot-kommunikatsiyalar tizimi va texnologiyalarini rivojlantirish ishlarining ahvoli, bu sohadagi islohotlarni yanada jadallashtirish yuzasidan 2018 yil 9 yanvar kuni O'zbekiston Prezidenti huzurida majlis o'tkazildi. Ushbu yig'ilishda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi rahbarlari hisobot berdilar. Majlisda belgilangan vazifalarni to'liq va muddatida bajarish, jumladan Internet tezligini keskin oshirish va sifatini yaxshilash, mobil xizmat turlarini ko'paytirish, xalqaro etakchi telekommunikatsiya kompaniyalari bilan aloqalarni kuchaytirish, "Elektron hukumat" tizimini yanada rivojlantirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

O'zbekistonda Internetga ulash xizmatini ko'rsatish bo'yicha raqobatbardosh muhit mavjud emasligi hamda shimoliy, ya'ni Qozog'iston Rossiya internet-kanaliga bog'liq bo'lgan vaziyat yuzaga kelganligi sabab Internetga ulanish MDH davlatlarinikiga nisbatan ancha sekin va qimmat hisoblanadi. Ushbu muammoni O'zbekiston yangi tashqi kanallar ochish evaziga hal qilishni mo'jallamoqda. Internetga ulanish tezligining oshishi va barqarorligining o'sishiga Turkmaniston, Eron, Qirg'iziston va Xitoy davlatlari orqali yangi tashqi kanallar ochish orqali erishish ko'zda tutilmoqda. Shu yilning oxirigacha ushbu davlatlarning milliy operatorlari bilan kanallarni ijaraga olish va sotib olish to'g'risidagi kelishuvlar imzolanadi.

Bunda, shimoliy yo'nalishdagi kanaldan voz kechish to'g'risida hech kim fikr yuritayotgani yo'q, shunchaki u qatori, aholining ehtiyojlarini qoplaydigan yangi

qo‘shimcha kanallar paydo bo‘ladi. Aynan shu ishlarning amalga oshishi mamlakatimizda Internetning yuqori tezligini va uni ancha arzon bo‘lishini ta‘minlaydi.

Biroq, ushbu ishlar yaqin kelajakda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda. Ho‘sh hozirchi, bugungi kunda milliy Internet makonimizda ishlash darajasi qay ahvolda? Undagi resurslardan oqilona va unumli foydalana olyapmizi? Internetdan foydalanish madaniyati ongimizda nechog‘lik shakllanib ulgurgan? Internet deb atalmish bu “bilimlar ummonida” qanday ulkan imkoniyatlar mavjud ekanligidan o‘zimizning va bolalarimizning qanchalik xabarimiz bor?

Internetga bir buzg‘unchi va yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi hamda jinoyat olamiga yetaklovchi “balo”ga qaraganday qarab, ha deganda bolalarimizga Internetga kirishga taqiq qo‘yavmasdan, avval ota-onalar undagi foydali va zararli tomonlarni farqlashni, ajrata olishni o‘rganishimiz zarur va muhim. Ana undan so‘ng farzandlarimizga u yoki bu resurs yohud ijtimoiy tarmoq ularga ma‘naviy yoki moddiy zarar etkizishi mumkinligi, boshqalari esa ma‘naviyatini, bilim va ko‘nikmalarini oshirishga yordam berishi haqida tushuntirishimiz darkor. Buning ustiga Inetrnetda shunday saytlar borki, ularda biznes ochish yo‘llari va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab foydali resurslarga to‘lib-toshib yotibdi. Bir so‘z bilan aytganda, Internet pul topishning bepoyon imkoniyatlari manbasidir. Agar shularni hammasini yotig‘i bilan farzandlarimizga tushuntirib bera olsak, yoshligidan Internetning tegishli resurslaridan to‘g‘ri foydalangan holda o‘z kuchi bilan daromad topa olishi mumkinligini singdirib borsak, bolalarimizda vaqtini bekor o‘tkazmasdan, o‘z ota-onasiga tushayotgan og‘irligini kamaytirib borib, oila byudjetiga o‘zining ham ulushini qo‘shish istagi paydo bo‘ladi.

Ma‘lumot uchun eslatib o‘tamiz, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga Internet tarmog‘ida qulay, xavfsiz muhit yaratish, ta‘lim va bilim beruvchi resurslardan yagona nuqtadan foydalanishlarini tashkil qilish orqali sog‘liklari va rivojlanishlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi axborot hamda kiber-xurujlardan himoya qilish maqsadida, “O‘zbektelekom” AK tomonidan 2017-yilda maxsus tarif rejalarini, “xavfsiz Internet” turkumi va qo‘shimcha xizmatlar joriy qildi.

Endi kompaniya Internet foydalanuvchilari «ZiyoNET» tarif rejasining xizmatlariga ulanib, farzandlariga hozircha 3 mingga yaqin saytni o‘z ichiga olgan Yagona axborot

resurslaridan foydalanish imkoniyatini berishadi. Mazkur ro'yxatdan ilmiy-ta'limiy, ma'naviy-ma'rifiy va bolaning etuk va sog'lom bo'lib voyaga etishiga xizmat qiladigan boshqa milliy va xalqaro Internet sahifalari o'rin olgan. Bu orqali bolalarning Internetdagi xavflardan himoyalaniishi, turli buzg'unchi va g'oyaviy nobop saytlarga kirishi kafolatlanadi. Shuningdek, ota-onalar ro'yxatga o'zlari ma'qul topgan, bolalar uchun qiziqarli saytlarni kiritish bo'yicha taklif ham berishlari mumkin.

Quyida yoshlarda qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan Internet resurslarining ba'zi yo'nalishlari bilan tanishishimiz mumkin. Hozirda Internet makonida ko'p uchraydigan onlayn so'rovlar talabalar bo'sh vaqtida pul ishlashlari uchun kundan-kunga tanilib borilayotgan usul hisoblanadi. Turli tadqiqotlarni o'tkazayotgan kompaniyalar har doim har xil surovlarga javob berish va yangidan-yangi mahsulotlarni sinovdan o'tkazish uchun yangi a'zolari qabul qilib boradi. Internetda oldindan bajarayotgan ishingiz uchun pul olishga manfaatdormisiz? Qmee.com dan innovatsion g'oya sizni "Google", "Bing" yoki "Yahoo" qidirish resurslaridan foydalanganingiz uchun mukofotlaydi. Siz shunchaki o'z brauzeringizga oddiy qo'shimcha qurilmani o'rnatishingiz va qidiruv amalga oshirayotganingizda oddiy qidiruv qatorida bir nechta sponsorlanadigan natijalar ham bo'lishi mumkin. Qmee dagi har bir natija pullik mukofotga ega, agar siz unga qiziqib qolgan bo'lsangiz, tugmani bosib va mukofotni qo'lga kiritishingiz mumkin.

Ushbu variant sizdan dastlabki qo'yilmalarni talab etadi, biroq birozdan so'ng bir necha barobar o'zini oqlaydi. Sayt ishi yaxshi yo'lga qo'yilsa undan har oyda 10 ming AQSh dollar miqdorida foyda olish mumkin. Asosiy foydani reklama (kontekstli, bannerli, tizerli) olib keladi, bunda sherikli dasturlarda ishtirok etish yoki havolalarni sotish mumkin bo'ladi. Agar siz yanada ildamlab ketmoqchi bo'lsangiz va faqatgina saytni rivojlantirmay qolib, o'zingizning info-biznesingizni qurmoqchi bo'lsangiz, u holda foyda undanda ko'proq bo'ladi. Bu eng foydali variant hisoblanadi, shuning uchun Internetda pul ishlab topish haqiqatmi deb so'ramang, chunki saytlar egalarining baralla javobi "ha" bo'lib turibdi.

Xo'sh, axborot sayti va info-biznes orasida qanday farq bor? Dastlab foydali axboroti bo'lgan kontentli sayt ham axborot evaziga pul ishlaydigandek tuyuladi. Biroq

birinchi holatda pul tashqaridan (reklama, sherikli dasturlar) kirib keladi, infobiznesda esa, siz muayyan bir axborot mahsulotini sotasiz va uning uchun mijozlaringizdan pul olasiz. Quyidagilar axborot mahsulotlari bo‘lishi mumkin:

- ❖ Vebinarlar;
- ❖ Treninglar;
- ❖ Onlayn o‘quv kurslari;
- ❖ Elektron kitoblar.

Ushbu pul ishlash usulining xususiyati shundaki, siz mahsulotni bir marta yaratasiz, undan foydani esa doimiy ravishda olib turasiz. Shu bilan birga, parallel ravishda yangidan-yangi mahsulotlar yaratish, yangi yo‘nalishlarda rivojlanib, kattadan-katta daromadlar topish mumkin bo‘ladi. Bunday holatda daromad bir-necha martaga ko‘payadi. Agar siz veb-brauzeringizdan mohirona foydalana olsangiz, unda veb-saytlarni ko‘rib chiqish vaqtingizni to‘lovli va qiziqarli ishga aylantirish vaqti keldi. UserTesting.com kabi yangi platformalar xohlovchilarga barcha turdagi veb-saytlarni ko‘rib chiqishlari uchun pul to‘laydi. Har bir ko‘rib chiqish uchun 20 daqiqa vaqt sarflanadi 10 AQSh dollari hajmida pul to‘lanadi. Ro‘yxatdan o‘tib, ko‘rib chiqish testini to‘ldiring va “kirish” papkangizda ko‘rib chiqilishi zarur bo‘lgan veb-saytlar ro‘yxatini qabul qilib oling.

Bunday ishni frilans birjalarida ham topsa bo‘ladi, bu ish alohida ko‘nikmalarni talab qilmaydi. Odatda bu ish layk qo‘yish, repost qilish yoki guruhga qo‘shilish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bu ish uchun odatda minimal darajada haq to‘lanadi, biroq barchasi sizning akkauntingizga bog‘liq bo‘ladi. Do‘stlaringiz qancha ko‘p bo‘lib, profilingiz qanchalik faol bo‘lsa, buyurtmachilar shunchalik ko‘p pul to‘lashga tayyor bo‘ladilar. Qiymati kattaroq bo‘lgan ishlar turiga guruhlar bo‘yicha posting qilish, kataloglar bo‘yicha ma’lumotlarni taqsimlash kabilar kiradi. Bunday ishlarni Advego, Socialtools, Smmka va Forumok da topish mumkin. Ushbu tarmoqlarda faollik bilan ishlasangiz bir oyda 100 AQSh dollariga yaqin bo‘lgan mablag‘ ishlashingiz mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan imkoniyatlardan tashqari ham ishlab pul topadigan anchagina resurslar mavjud. Ko'rib chiqqanimizdek, Internet olami o'zida cheksiz imkoniyatlarni jamuljam qilgan. Undagi imkoniyatlardan foydalanish vaqtimizni unum bilan o'tkazishga, farzandlarimizni o'z oilasiga, jamiyatga foydasi tegadigan etuk ma'naviyatli inson qilib tarbiyalashga yordam beradi. O'zbek xalqining ham yoshlari hech kimdan kam bo'lmagan holda Internet imkoniyatlaridan to'la-to'kis foydalanib kelayotgani yurtimiz rivojiga albatta o'z hissasini qo'shishiga umid bag'ishlaydi.

12.2. Internetdan xavfsiz foydalanish yo'llari.

Internetning kashf etilishi insoniyat hayotida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Dunyo aholisining soni hozir yetti milliarddan oshgan bo'lsa, shundan uch milliarddan ziyodi internet tarmog'iga ulangan. 2014-yilgi statistikaga ko'ra, O'zbekistonda ham aholining 40 foizdan ortig'i internetdan foydalanadi va bu raqam yildan yilga o'sib bormoqda. Shunday ekan, internetning foyda va salbiy tomonlari haqida batafsilroq ma'lumot olishga ehtiyoj bor. Ko'pchilik internetdan yangiliklar o'qish, musiqa tinglash, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kabi, asosan, ko'ngilochar maqsadlarda foydalanadi. Ammo internet insonlarga taqdim etadigan qulaylik va foydalar faqat bulardan iborat emas.

Oddiy elektron pochta (email) xizmatini olib ko'raylik. Bir necha soniya ichida maktub yozib, uni komputer yoki telefoningizdagi bitta tugmani bosish orqali dunyoning istalgan joyiga bir soniyada jo'natishingiz mumkin. Internetdan oldin bu mumkinmidi? Albatta, yo'q. Buning uchun ilgari an'anaviy pochta yoki telegraf xizmatlaridan foydalanish lozim bo'lgan. Hozir esa bunga hojat yo'q. Yoki internet orqali savdo qilishni olib ko'ring. Hozir uyingizda o'tirib, internet orqali istagan narsangizni sotib olishingiz va uyingizgacha olib kelib berishlarini buyurtma qilishingiz mumkin. O'zbekistonda ham internet orqali savdo asta-sekin rivojlangib boryapti. Asaxiy.uz, Udobno.uz kabi saytlarni shu yo'lda boshlangan dastlabki qadamlar deb aytish mumkin.

Internet nafaqat siz bilan biz kabi oddiy foydalanuvchilar tomonidan, balki xususiy va davlat kompaniyalari tomonidan ham keng qo'llanilmoqda. Hozir deyarli

barcha yirik kompaniyalar o'z xodimlari va mijozlari bilan aloqalarni to'liq internet orqali olib boradi. Yangi mahsulotlarini internet orqali ommaga taqdim etadi, sotadi va boshqa turli xizmatlar ko'rsatadi. Internet hukumatlar ishlarini ham osonlashtirgan. Fuqarolarning deyarli barcha murojaatlari ko'p davlatlarda hozir elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Bu qog'ozbozlik, fuqarolarning idoraga borib rasmiylar bilan yuzma-yuz ko'rishishi, navbat kutib uzoq o'tirishi kabi noqulayliklarni kamaytiradi. O'zbekistonda ham xuddi shu maqsadda my.gov.uz loyihasining boshlanganini ijobiy va quvonarli hol, deb aytishimiz mumkin.

Bu ommaviy kommunikatsiya turi dastlab paydo bo'lganda, aksariyat ishlarning elektron shaklga o'tishi oqibatida ko'plab ish o'rinlari boy beriladi, degan xavotirlar bo'lgan. Chunki internetdan oldin bu ishlar qog'ozlar orqali yoki ofis-idoralarda ishchi-xodimlar qo'li bilan amalga oshirilardi. Ammo internetning iqtisodiyot uchun, kompaniyalar uchun keltirgan ulkan foydasi bu xavotirlarni yo'qqa chiqardi. Endigi asosiy xavotir va tahdid internetda shaxsiy va biznes ma'lumotlarini almashishning qanchalik xavfsiz ekani haqida bo'lmoqda. Xavotirlar shu darajada oshdiki, hatto hukumatlar internet tahdidlarining oldini olish uchun ko'proq e'tibor va resurslar ajratmoqda. Kiber xuruj va kiber urush degan atamalar paydo bo'ldi. Bugungi muloqotimizda biz shu keng mavzuning oddiy internet foydalanuvchilariga tegishli bo'lgan qismiga, ya'ni internetda shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash yo'llariga e'tibor qaratamiz.

Internetda foydalanuvchilar uchun eng katta tahdid ularning shaxsiy ma'lumotlari boshqalarning qo'lga tushishi yoki oshkor qilinishi xavfi hisoblanadi. Biz onlayn xizmatlardan foydalanganimizda, ijtimoiy tarmoqlar yoki elektron pochta orqali muloqot qilganimizda ko'plab shaxsiy ma'lumotlarimizni internetga kiritamiz. Bular shaxsiy suratlar, bank yoki moliya ma'lumotlari, sog'liqqa oid ma'lumotlar, do'stlarimiz bilan o'zaro maxfiy yozishmalarimiz yoki email va ayrim saytlarga kirish uchun ishlatiladigan login va parollar bo'lishi mumkin. Odatda, bu ma'lumotlarning xavfsiz saqlanishini onlayn xizmatni taqdim etuvchi saytlar ta'minlaydi, ammo shunday holatlar ham bo'ladiki, bu ma'lumotlaringiz istalmagan uchinchi bir tomon qo'lga o'tib qolishi va ular bu ma'lumotlardan g'arazli maqsadlarda foydalanishi mumkin.

Demak, faqat o'zimizgagina tegishli bo'lgan, boshqalarga bizning roziligimizsiz berilmaydigan barcha ma'lumotlar bizning shaxsiy mulkimiz hisoblanadi va ular ustidan shaxsiy daxlsizlik huquqiga egamiz. Shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi o'z aybingiz bilan yoki xakerlar kabi maxsus hujum uyushtiruvchi shaxs yoki shaxslar xatti-harakati natijasida sodir bo'lishi mumkin. Shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi sizga moddiy va ma'naviy zarar keltirishi mumkin. Masalan, siz ijtimoiy tarmoqdan foydalanish tartibini yaxshi tushunmasdan, faqat do'stinga yuboryapman, degan ishonch bilan ayrim shaxsiy surat yoki ma'lumotlarni hamma ko'radigan joyga joyladingiz. Yoki hech kimga ko'rinmaydi, deb o'ylab, ijtimoiy tarmoqlarda ayrim saytlarga qo'yilgan shubhali havolalar ustiga bosdingiz; bilmasdan uni o'z sahifangizda baham ko'rdingiz yoki ehtiyotsizlik bilan shubhali saytni ochganingiz uchun sizning roziligingizsiz bu sayt haqidagi ma'lumotlar hammaga ko'rinadigan sahifangizda paydo bo'lib qoldi. Shaxsiy hayotingizga taalluqli bo'lgan bunday ma'lumotlarning boshqalarga oshkor bo'lishi sizning obro'ingizga putur yetkazishi yoki siz haqingizda boshqalarda salbiy tasavvur hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu ma'naviy zarar hisoblanadi. Bundan tashqari, bu kabi ehtiyotsizlik natijasida sizning nomingiz bilan turli taqiqlangan saytlarga tashrif buyurishlari mumkin.

Agar elektron pochtagizga kelgan shubhali maktubdagi havolani bosib, uni ochsangiz va natijada shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlashni maqsad qilgan zararli dastur kompyuteringizga o'rnashib olsa, u kompyuteringiz va elektron pochtagizdagi barcha shaxsiy ma'lumotlarni ko'chirib, ushbu dastur ortida turgan shaxslarga jo'natishi mumkin. O'g'irlangan ma'lumotlar orasida bank va kredit karta ma'lumotlari bo'lishi mumkin va ulardan foydalangan holda kiberjinoyatchilar pulingizni o'marishi turgan gap.

Oddiy odamlarni nishonga oluvchi internet xurujlari ortida, asosan, moddiy boylik orttirishni maqsad qilgan jinoiy shaxs yoki guruhlar turadi. Ular odamlarning elektron pochталari, kompyuter yoki boshqa elektron qurilmalariga kirib olib, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlashadi va shu orqali ularning bank yoki kredit karta ma'lumotlarini topib, ulardan pul o'marishadi. Shaxsiy ma'lumotlar, surat va videolarni o'g'irlab, ularni tarqatib yuborish tahdidi bilan odamlarni shantaj qilib, pul talab qilishlari ham mumkin.

Hukumat idoralari ham noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarni topish uchun internetdan keng foydalanmoqda. Agar shubhali yoki bahsli sayt va onlayn resurslardan foydalansangiz va ulardan qanday xavfsiz foydalanish yo'llarini bilmasangiz, hech qanday jinoyat sodir qilmagan taqdiringizda ham, xavfsizlik idoralari e'tiboriga tushib qolishingiz mumkin va bu siz uchun istalmagan noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Yuqorida tilga olingan noxush holatlarning oldini olish uchun internetdan xavfsiz foydalanish yo'l-yo'riqlarini bilish kerak.

Virus va zararli dasturlar hujumidan saqlanish uchun, odatda, maxsus himoya dasturlaridan foydalaniladi. Ammo bu kabi tahdidlarga qarshi eng yaxshi himoya vositasi – internet gigienasiga rioya qilishdir. Ya'ni, internetdan to'g'ri foydalanish qoidalarini bilsangiz va shubhali manbalarni ishonchli saytlardan farqlay olsangiz hamda ularga duch kelganda nima qilish lozimligini bilsangiz, kiber xurujlar qurboni bo'lishingiz ehtimoli juda kam. Elektron pochta – internetning eng qulay, eng kerakli va barcha internet foydalanuvchilari ishlatadigan aloqa vositasi hisoblanadi. Internetning boshqa har qanday xizmatidan foydalanish uchun, masalan, ijtimoiy tarmoqqa a'zo bo'lish, onlayn savdoni amalga oshirish kabi faoliyatlar uchun, avvalo, elektron pochta manziliga ega bo'lishingiz kerak.

Spam – Elektron pochtagizga kelgan va siz olishni istamagan har qanday maktubni "spam" deyish mumkin. Odatda, turli yo'llar bilan odamlarning elektron pochta manzillarini yig'gan guruhlar ulkan emaillar jamlanmasiga ommaviy maktublar yuborishadi. Spam shaklida kelgan maktublar zararsiz bo'lishi va ulardagi ma'lumotlar faqat qaysidir mahsulotning oddiy reklamasi bo'lishi ham mumkin. Ammo siz bu kompaniya mahsuloti haqida reklama olishni istamagansiz va sizning roziligingizsiz email manzilingizni qayerdandir olishib, sizga bu ma'lumotlarni yuborishayotganlari bois, bunday maktublar "spam" hisoblanadi. Masalan, sizga qanaqadir farmatsevtika kompaniyasidan dorilar ro'yxati va ularning narxi ko'rsatilgan maktub keldi. Sizning bu kompaniyaga hech qanday aloqangiz yo'q yoki ularning mijozi emassiz. Demak, email mangizlingizni qayerdandir qo'lga kiritishgan va sizga reklama sifatida o'z mahsulotlarini reklama qilib xat jo'natishgan. Aslida bu xatda hech qanday zararsiz ma'lumot yo'q, lekin istalmagan axborot sifatida bunday xat ham "spam" hisoblanadi.

Ko'plab davlatlarda hatto odamlarning roziligisiz bunday maktublarni yuborish taqiqlangan. Lekin internetdek chegarasiz olamda odamlardan bunday qoidalarga rioya qilishini kutmaganingiz ma'qul. Unutmang, "spam" maktublarda shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlashni maqsad qilgan dasturlar joylangan bo'lishi ham mumkin. "Spam"dan himoyalaniş yo'llari:

Shaxsiy elektron pochta manzilingizni hech qachon hamma ko'radigan joylarga – ijtimoiy tarmoq, sayt va ommaviy forumlarga qo'ymang.

Internet xizmatlaridan foydalanishda faqat siz uchun kerakli va xavfsiz ekaniga ishonchingiz komil bo'lgan saytlargagina obuna bo'ling. Ya'ni internetda email manzilingizni kiritish so'ralgan har qanday joyga email manzilingizni kiritavermang. Chunki "spam" maktub jo'natish uchun email yig'adigan soxta sayt va xizmatlar ko'p.

"Spam" maktublardagi internet manzillari biriktirilgan havolalarni ochmang. Ular orqali kompyuteringizga ma'lumot og'irlovchi dasturlar o'rnashib olishi mumkin. Hatto "Obunani to'xtating" (Unsubscribe) deb yozilgan havolalarni ham bosmang. Ular sizni aldash uchun shunday so'zlarni yozib qo'yadi, ya'ni aslida siz zararli dastur joylashgan manzilning havolasiga kirayotgan bo'lishingiz mumkin.

Phishing – Bunday tahdid turi email orqali keladigan eng katta xavflardan biri bo'lib, odamlarning shaxsiy ma'lumotini o'g'irlashga qaratilgan bo'ladi. "Phishing" maktublar sizga tanish bo'lgan tashkilot yoki muassasa nomidan yuborilgandek tasavvur uyg'otadi. Masalan, siz biror bank yoki moliyaviy tashkilot bilan ishlayotgan bo'lsangiz, sizga shu bank nomidan maktub yozib, shaxsiy bank ma'lumotlaringizni so'rashlari yoki havola orqali saytlariga kirib qo'shimcha ma'lumot berish yoki olishni iltimos qilishlari mumkin. Agar maktubdagi havolaga bossangiz, kompyuteringizga ma'lumot o'g'irlovchi zararli dastur o'rnatilishi hech gap emas. Bunday maktublarning professional tarzda yozilishi, ularda haqiqiy tashkilotlarning logo rasmlari va jismoniy manzillari qo'yilgani sizni aldab qo'ymasligi kerak. "Phishing"dan himoyalaniş yo'llari:

"Phishing" sifatida ko'ringan shubhali maktublardagi havolalarni hech qachon bosmang.

Bunday maktublarga javob bermang va ular so'ragan ma'lumotlarni (masalan, bank va kredit karta ma'lumotlari, parol va hokazo) yubormang.

Maktubning tuzilish shaklini tekshiring: professional va imloviy xatolarsiz yozilganmi? Mazmuni va shakli siz bilan tashkilot yoki kompaniya uslubiga to'g'ri keladimi? Unutmang, imloviy xatolarsiz yozilgani ularning haqiqiy va ishonarli maktub ekaniga asos bo'la olmaydi.

Maktubning qanchalik haqiqiy ekaniga ishonch hosil qila olmasangiz, unga javob berish yoki undagi havolani ochib ko'rishdan oldin, shu maktubni yu'organ tashkilot yoki kompaniyaga telefon yoki boshqa yo'l bilan bog'lanib, bu maktubning haqiqatdan ham ulardan kelgan yoki kelmaganini tekshiring.

Maktub yuborilgan pochta manzili siz bilgan kompaniya saytining nomi va domeni bilan mosligini tekshiring. Masalan, www.saharschool.org saytiga tegishli haqiqiy elektron pochta info@saharschool.org yoki admin@saharschool.org kabi manzillardan keladi. Birinchi qismi istalgan so'z bo'lishi mumkin, ammo elektron pochta belgisidan (@) keyin keladigan qismiga diqqat qarating. "Phishing" maktublarda saharschol.org yoki saharschool.com kabi asl manzilga yaqin, ammo aynan o'zi bo'lmagan boshqa yasama saytlar asosida olingan elektron manzildan foydalanishlari mumkin. Saytlarning haqiqiylikini tekshirishda ham shunga rioya qilish mumkin.

Maktubda havola biror so'z ostiga yashiringan bo'lsa, uning qaysi manzilga olib borishini bilishni istasangiz, havolani bosmasdan turib sichqoncha belgisini havola yashiringan so'z ustiga olib boring. Shunda brauzer ostida chap tomonda havola joylashgan manzil ko'rinadi. Sayt manziliga qarab, uning haqiqiy yoki haqiqiy emasligini bilishingiz mumkin. Unutmang, saytning haqiqiy ekaniga to'liq ishonch hosil qilmaguningizcha, uni ochmang.

Spoofing – Siz taniydigan kimdandir kelgan, lekin aslida u odam jo'natmagan maktublar "spoofing" deyiladi. Xakerlar yoki zararli dasturlar tanishingizning elektron manzili ustidan nazorat o'rnatib, uning nomidan sizga zararli maktublar jo'natayotgan bo'lishi mumkin. Yoki aksincha, sizning elektron manzilingiz zararli dasturlar ixtiyoriga o'tib, sizning nomingizdan boshqalarga shunday maktublar ketishi ham mumkin. Bu nafaqat elektron pochta orqali, balki ijtimoiy tarmoqlardagi maktub yuborish yoki xabar chop etish xizmatlari orqali ham yuz berishi mumkin.

"Spoofing" dan himoyalaniish yo'llari:

Do'stingiz yoki tanishingiz yuborgan maktub shubhali ko'rinsa, unga javob bermang yoki undagi sayt manzilini ochmang.

Bu xatning qanchalik haqiqiyligini tekshirish uchun do'stingizga telefon yoki boshqa aloqa yo'llari orqali bog'lanib so'rang.

Agar elektron pochtagizdan siz bexabar boshqa odamlarga "spoofing" maktub borganini yoki borayotganini payqasangiz, zudlik bilan elektron pochtagiz parolini o'zgartiring va bu xat ketgan odamlarga qayta bog'lanib, maktubni siz yubormaganingiz haqida ogohlantirib qo'ying.

Elektron pochta xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha tavsiyalar:

Email manzilingizga kuchli parol o'rnating. Parol uchun sodda so'z yoki raqamlardan foydalanmang. "SplashData" firmasi ma'lumotiga ko'ra, o'tgan yili eng ko'p ishlatilgan parollar 12345, 12345678 va qwerty bo'lgan. Bunday parollarni buzish yoki qo'lga kiritish uchun esa xaker bo'lish shart emas. Iloji boricha, parolingizda bosh harflar, raqamlar va maxsus belgilar jamlanmasidan foydalaning. Masalan, "yaxshilik" degan oddiy so'z va harflardan iborat parolni "YaxshiliK1!" shaklida har xil belgilardan iborat murakkab parolga aylantirishingiz mumkin.

Elektron pochta parolidan boshqa sayt yoki onlayn xizmatlarda foydalanmang. Har bir sayt uchun alohida parol tanlashingizni tavsiya qilamiz. Yodda tutish uchun parollarni kompyuteringizda yoki boshqa onlayn va elektron qurilmalarda saqlamang. Ularni qog'ozga yozib oling va hech kim bilmaydigan joyda saqlang. Jamoat kompyuterlaridan foydalanganda har doim ishlatib bo'lgandan so'ng saytdan yoki elektron pochtdan chiqishni unutmang. Buning uchun "Chiqish", Log out" yoki "Vixod" tugmalarini bosishingiz kerak. Tizimdan chiqmasdan turib oynani (brauzerni) yopsangiz, undagi barcha ma'lumotlaringiz saqlab qolinadi va sahifani kimdir qayta ochganda sizning ma'lumotlaringiz chiqib keladi. Jamoat kompyuterlari deganda kutubxona, internet kafelaridagi yoki birovga tegishli bo'lgan kompyuterlarni tushunish mumkin.

Bir necha odamga bitta maktubni yuborishni istasangiz, e-mail manzillari hammaga ko'rinishi mumkinligini hisobga oling. Maktub olgan tomon bu maktub yuborilgan boshqa emaillarni ko'rmasligi istasangiz, pochta manzilllarini "Bcc" (Gmail

va Yahoo kabi ingliz tilidagi pochta xizmatlarida) yoki "Скрытая копия" (Mail.ru kabi rus tilidagi pochta xizmatlarida) qatoriga kiriting. Shunda bitta maktubni olgan bir necha odam bir-birining elektron pochta manzilini ko'rmaydi. Bu muhim, chunki maktub yuborilgan tomonlar email manzilining o'zi bilmagan boshqa odamlarga ko'rinishini istamasligi mumkin.

Bu bo'limda biz internet brauzerlari haqida so'z yuritamiz. Brauzer bu internetga kirish va veb-sahifalarni ko'rish uchun ishlatiladigan dasturdir. Eng mashhur brauzerlar qatorida Internet Explorer, Firefox, Google Chrome, Opera, Safari kabi dasturlarni sanash mumkin. Bu brauzerlarning hammasi bir xil vazifani bajarsa-da, ular bir-biridan internetga ulanish tartibi, qo'shimcha xizmatlari va ko'rinishi bilan farq qiladi. Quyida internet brauzerlari bilan ishlaganda xavfsizlik yuzasidan e'tibor berish lozim bo'lgan ayrim jihatlarni eslatib o'tamiz. Har bir brauzer u yerda amalga oshirgan ishlaringiz tarixini, tashrif buyurilgan sahifalar va qidirlgan kalit so'zlarni o'zida saqlab qoladi. Siz ochgan har bir sahifa internet provayderi va brauzer provayderiga ma'lum bo'ladi va ular serverlarda doimiy saqlanib qolishi mumkin. Demak, saytlarga qilayotgan tashriflaringiz hech qachon shaxsiy va maxfiy bo'lmaydi. Shuning uchun qanday saytlarga kirayotganingiz haqida mas'uliyat bilan ish tutishingiz kerak.

Kompyuteringizga boshqa odam kirganda, brauzeringiz tarixi ularga ko'rinmasligini istasangiz yoki jamoat kompyuterlarida internetdan foydalanganingizda brauzerlarning "Private" (Maxfiy) degan alohida oynasidan foydalanishingiz mumkin. Hozir barcha ommabop brauzerlarda bunday maxfiy oynalarni ochish imkoniyati mavjud. "Private" oynasida ochilgan barcha saytlar, parol va login ma'lumotlari oyna yopilgandan keyin o'chib ketadi. Unutmang, maxfiy oyna ma'lumotlaringizni internet provayderi yoki brauzer provayderidan yashira olmaydi. U faqat ma'lumotlaringiz brauzerda saqlanib qolmasligini kafolatlaydi, xolos.

Emaildan xavfsiz foydalanish bo'limida aytganimizdek, brauzerlar orqali ham viruslar, shaxsiy ma'lumotingizni o'g'irlashga qaratilgan "phishing" va zararli dasturlar joylashgan saytlar kabi tahdidlar bilan yuzlashasiz. Ularga qarshi himoyalanişda quyidagi maslahatlarga amal qiling. Avvalo, saytning xavfsiz yoki xavfli ekanini aniqlashda oddiy aql bilan yondashib ish tuting. Shubhali saytlarda, odatda, yolg'on

ma'lumotlar yoki to'g'ri bo'lishi ehtimoli juda kam bo'lgan gaplar (masalan, lotereya yutib olganingiz haqidagi xabar) bo'ladi. Bunday saytlarga tasodifan kirib qolsangiz, undagi hech bir havolani bosmasdan, saytni darhol yopishingiz kerak.

Agar vebsayt biror tashkilot yoki kompaniyaga tegishli ekani da'vo qilingan bo'lsa, uning nomi to'g'ri yozilganmi, farqli yoki imloviy xatolar bilan yozilmaganmi, shuni tekshiring. Qaysidir haqiqiy bir tashkilot nomini o'g'irlab, ular nomidan yaratilgan qalbaki saytlarda, odatda, haqiqiy kompaniya sayti nomidagi ayrim harflar o'zgartirilgan shaklda bo'ladi. Masalan, sahar.school.org sayti haqiqiy bo'lsa, uning soxta ko'rinishi www.saharschol.org yoki www.saharschool.com shaklida bo'lishi mumkin.

Agar sayt <http://> belgisi bilan boshlangan bo'lsa, saytning shubhali ekani ehtimoli yanada oshadi. Ishonchli va katta saytlarning deyarli barchasi hozir <https://> protokoli bilan ochiladi. [https](https://) belgisi saytning xavfsizlik sertifikatiga ega ekanini bildiradi. Biror saytga kirish uchun uning sizga ma'lum manzilini brauzerga yozib kiritganingizda, ENTER tugmasini bosishdan oldin, manzilni to'g'ri yozganingizga yana bir bor ishonch hosil qiling. Agar bir dona so'zni xato yozgan bo'lsangiz, haqiqiy saytga o'xshagan, lekin qalbaki bo'lgan boshqa bir saytga kirib qolishingiz mumkin.

Pul o'tkazish xizmatlari orqali pul yuborishni talab qiladigan saytlar, odatda, soxta bo'ladi. Masalan, sizga xorijdan ish topib berishni va'da qilgan va xizmat haqi uchun Moneygramdan pul yuborishingizni so'ragan saytdan ehtiyot bo'ling. Brauzeringizni muntazam yangilab turing. Uning yangi versiyasi chiqsa, uni saqlab olib, shu yangisini o'rnatib. Brauzer orqali internetdan kirib kelgan zararli dasturlar, odatda, kompyuter yoki boshqa elektron qurilmangizga o'rnatilib olib, uning xotirasidagi shaxsiy ma'lumotlarni qidirib topishga va ularni jinoiy egalariga jo'natishga urinadi. Buning oldini olish uchun qurilmalarni qanday himoyalash lozimligi haqida ham ayrim maslahatlarni beramiz. Kompyuter va noutbuklarni himoyalash yo'llari:

Kompyuter yoki noutbukingizdagi "Firewall" himoya dasturi doim yo'niq tursin. U internet va boshqa tarmoqlardan keladigan hujumlarni qaytarishda eng samarali qurol hisoblanadi. Odatda, Windows va Mac operatsion tizimlarida "Firewall" dasturi oldindan o'rnatilgan bo'ladi. Kompyuter/noutbukingizga antivirus dasturini o'rnatib. Windows 7 va undan yuqori versiyadagi operatsion tizimlarga antivirus dasturi

(Windows Defender) o'rnatilgan bo'ladi va ular, odatda, deyarli barcha internet tahdidlarini qaytarishga kifoya qiladi (Albatta, internetdan mas'uliyat bilan foydalanganingizda). Mac operatsion tizimida ishlovchi kompyuterlar ham internet tahdidlariga bardoshli ekani bilan taniqli va odatda, ularga ham qo'shimcha antivirus dasturini o'rnatishga hojat bo'lmaydi. Windowsning boshqa, eskiroq versiyalarini ishlatuvchi foydalanuvchilarga ayrim bepul antivirus dasturlarini tavsiya qilamiz:

1. Avast! Free Antivirus: <https://www.avast.com/>

2. AVG Antivirus: <http://www.avg.com/affiliate/ww-en/free-antivirus-download>

Internetdan bo'ladigan yangi tahdidlarga qarshi muhim himoya vositalariga ega bo'lish uchun operatsion tizimdagi yangilanishlarni (update) o'z vaqtida ko'chirib olib, tizimni yangilab boring. Shubhali narsalarni, dasturlarni aslo komputer/noutbukungizga ko'chirib olmang va ularni o'rnatmang. Ular ma'lumot o'g'irlovchi yoki komputeringizni buzuvchi zararli dasturlar yoki viruslar bo'lishi mumkin. Antivirus dasturlari o'rnatilgan taqdirda ham, ayrim viruslar o'tib ketishi mumkin.

Ishlatmayotgan paytingiz komputer yoki noutbukungizni o'chirib qo'yishga odatlaning. Birovlarning diski yoki USB-drive xotira fleshkalarini komputer/noutbukungizga ulashda ehtiyot bo'ling. Ular virus bilan zararlangan bo'lishi mumkin. Agar bitta komputerni birdan ortiq odam ishlatsa, har bir foydalanuvchi uchun alohida profil (account) oching. Komputerdagi ma'lumotlarni har doim saqlab (backup) qo'ying. Ularni alohida xotira disklarida yoki onlayn axborot saqlash saytlariga ko'chirib qo'yishingiz mumkin. Google Drive va Dropbox kabi ma'lumot saqlash xizmatini taqdim etuvchi saytlarda bepul 15-20 Gigabaytgacha joy olishingiz mumkin. Mobil qurilmalarni himoyalash yo'llari:

Yangi avlod vakillari borgan sari internetga, asosan, mobil qurilmalar orqali kirishga odatlanmoqda. Kompyuterlar orqali bajariladigan barcha ishlarni, masalan, savdo qilish, bank xizmatlaridan foydalanish, ijtimoy tarmoqlarga kirish kabi faoliyatlarning barchasini hozir maxsus dastur-illovalar yordamida telefon yoki planshet orqali amalga oshirish mumkin. Sunday ekan, ularni ham himoyalashga ehtiyoj borgan sari oshib bormoqda. Quyida mobil qurilmalarni qanday himoya qilish bo'yicha ayrim maslahatlarni beramiz. Telefon yoki planshetingiz ekranini doim parol bilan qulflashga

odatlaning. Parolingiz murakkab bo'lishiga diqqat qarating. Ishlatmayotgan paytingiz, qurilma ekrani avtomatik qulflanadigan bo'lsin.

Telefoningizni boshqalarga bermang. Undagi ma'lumotlarni kompyuterga yoki onlayn axborot saqlash saytlariga ko'chirib boring. Masalan, Apple mobil qurilmalarida iCloud xizmati orqali ma'lumotlaringizni onlayn serverlarga ko'chirib o'tkazish va ularni maxsus kodlar yordamida shifrlab qo'yish (encryption) mumkin. Andoid tizimidagi telefon egalari esa Google Drive yoki boshqa axborot saqlovchi xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Nozik va shaxsiy ma'lumotlar mavjud sms-xatlari yoki elektron maktublarni telefoningizda saqlamang. Ularni o'chirib tashlang. Bunday xat yuborganlarni bloklab qo'yishingiz ham mumkin.

Shubhali bo'lgan dastur-illovalarni ko'chirib olmang. Shubhali saytlarga kirmang.

Maxsus dastur yordamida telefoningizdan o'chib ketgan rasmlar, maktublar, telefon raqamlari kabi ma'lumotlarni maxsus dastur yordamida qayta tiklashingiz mumkin. Telegram, Whatsapp kabi dasturlardan yoki Facebook, Odnoklassniki kabi ijtimoiy tarmoqlardan ro'yxatdan o'tishda faqat o'z telefon raqamingizdan foydalaning. Chunki boshqa birovning raqamidan foydalansangiz, ular shu raqam orqali sizning parolingizni qo'lga kiritishi yoki siz bexabar bu dastur va tarmoqlardagi sizning profilingizga kirib, faoliyatingizni kuzatishi mumkin.

Telefon yo'qolganda nima qilish kerak? Agar telefon yoki boshqa mobil qurilmangiz yo'qolib qolsa, avvalo, qurilmangiz mana shunday holatlarda ko'rish lozim bo'lgan choralarga tayyor turishi kerak. Ya'ni, oldindan uni yo'qolib qolganda amalga oshirish lozim bo'lgan ishlarga tayyorlab qo'yishingiz kerak. Apple va Android telefonlari uchun bu borada alohida maslahatlar: Apple: "Telefonimni top" (Find my iPhone) xizmatini ishga tushiring. Bu xizmat orqali yo'qolgan telefonning qayerdaligini internet orqali topishingiz mumkin. Shuningdek, ekranini avtomatik qulflab, topib olgan odam sizga bog'lanishi uchun ekranda sizning tel. raqamingiz yoki email manzilingiz ko'rinadigan qilish mumkin. Bundan tashqari, internet orqali telefoningiz ichidagi barcha ma'lumotlarni butunlay o'chirib tashlashingiz ham mumkin.

iCloud xizmati orqali barcha ma'lumotlaringizni saqlab boring. Telefoningiz yo'qolgan va qayta topilmagan taqdirda, uning ichidagi barcha ma'lumotlarni iCloud

orqali boshqa telefoningizga ko'chirib olishingiz mumkin. Android: "Google"ning "Android Device Manager" xizmati yoki boshqa yo'qolgan telefonni topishga xizmat qiluvchi dasturlar yordamida yo'qolgan telefoningizni topishingiz, uni qulflab qo'yishingiz yoki undagi ma'lumotlarni o'chirib tashlashingiz mumkin.

Android qurilmangizdagi ma'lumotlarni ham vaqti-vaqti bilan boshqa joyga saqlab turishni unutmang. Uni kompyuteringizga yoki yordamchi dastur-illovalar yordamida onlayn axborot saqlash saytlariga ko'chirib o'tkazib qo'yishingiz mumkin. Androidning ichki sozlamalar (Settings) paneli orqali ham "Google"da ochilgan profilingiz bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni saqlab qo'yishingiz mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar bugun ko'pchilik uchun internetning asosiy qismiga aylanib ulgurdi. Ya'ni ko'plab foydalanuvchilar bugun internetga, asosan, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazish uchun kiradi: yangiliklarni ham, video va boshqa ko'ngilochar ma'lumotlarni ham shu tarmoqlardan oladi; do'stlari bilan gaplashadi, suhbat quradi va hokazo. Ommaviy ijtimoiy tarmoqlarga misol sifatida Facebook, Twitter, Odnoklassniki, V Kontakte va Muloqot kabi saytlarni keltirish mumkin. Internet foydalanuvchilarining shaxsiy daxlsizligiga eng katta tahdid hozir ana shu tarmoqlardan kelishi mumkin. Chunki eng ko'p shaxsiy ma'lumotlaringiz, suratlaringiz va hatto kredit karta va bank ma'lumotlaringizni shu saytlarga kiritgan bo'lishingiz mumkin. Demak, bu ma'lumotlar pand bermasligi uchun ijtimoiy tarmoqlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish kerak. Bu borada sizga bir necha maslahatlarimiz bor:

Ijtimoiy tarmoqlarga, imkoni boricha, shaxsiy ma'lumotlaringizni kamroq joylashtiring. Shuni unutmaslik kerakki, ijtimoiy tarmoqlar xavfsizlik choralarini qanchalik kuchaytirmasin, u yerga joylashtirilgan ma'lumotlaringiz hech qachon to'la xavfsiz bo'la olmaydi. Eng yomon holatda sayt xakerlar hujumiga uchrab, undagi yashirin suratlaringiz, yashirin yozishmalaringiz bir kunda butun dunyoga oshkor bo'lib ketishi hech gap emas.

Bu yerning ommaviy maydon ekanini unutmang. U yerga biror surat yoki gap yozib qoldirdingizmi, u endi internet serverlariga muhrlanib qoladi va bu gap-ma'lumotlarni sahifangizdan o'chirib yuborgan taqdiringizda ham, u server xotiralaridan

o'chmasligi mumkin. Shuning uchun har qanday gap-so'zni yozishdan oldin yetti o'lchab bir kesing.

Saytda ro'yxatdan o'tishdan oldin tarmoqdan foydalanish qoidalari bilan tanishib chiqing. Uzundan uzoq bu qoidalarni ko'pchilik o'qimaydi, ammo bunday saytlar, odatda, mas'uliyatni zimmalaridan soqit qilish uchun ko'p masalalarda to'liq mas'uliyatni foydalanuvchi zimmasiga yuklaydi. Masalan, tarmoqqa qo'yilgan har bir surat saytning mulkiga aylanadi, degan shart bo'lishi mumkin. Agar bu kabi shartlarga rozi bo'lmasangiz, saytga a'zo bo'lmang.

Saytning sozlamalar panelidan (Settings) xavfsizlik bo'yicha mavjud imkoniyatlarni o'rganib chiqing. Yozayotganlaringiz yoki sahifangiz kimlarga ko'rinadi, kimlar sizga xat yoza oladi kabi masalalarda shu paneldan o'zingizga mos holatni tanlab olishingiz mumkin.

Shubhali havolalarni ochmang. Ular tarmoqdagi profilingizga kirishni ko'zlovchi zararli dasturlar bo'lishi mumkin. Bu esa sizning nomingizdan do'stlaringizga istalmagan xat va havolalar ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Do'slaringiz bilan qiladigan maxfiy chatlaringiz ham, aslida, kuzatuvdan xoli emas. Sayt ma'muriyati yoki hukumat idoralari, xohlasa, bu ma'lumotlarni ochib ko'ra olishlari mumkin.

12.3. Internetning ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'ziga xos ta'siri.

Ma'lumki, hozirgi kunda jamiyatning asosiy boyligi va mulki — avvalgi davrlardagidek, moddiy buyum va quvvat emas, balki axborotdir. Shuning uchun jahon miqyosida kompyuter tarmoqlarini axborot bilan to'ldirish masalasi son jihatidan emas, balki taqdim etilayotgan axborotning sifati va yo'nalishi jihatidan jiddiy muammo bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston — telekommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiyalash, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, yangi raqamli texnika vositalarini o'rnatish, ularni optimallashtirish ishlari natijasida jahon axborot integratsiyalashuvi jarayoniga jadal sur'atda qo'shilishi ko'zga tashlanmoqda. Internet madaniyat uchun nimalarga qodir va madaniyat Internetga nima qo'sha oladi? Bu borada fikrlar turlicha va ba'zan kutilmagan javoblarni olish mumkin. Biroq barcha bir fikrni tasdiqlashi aniq: Internet

olamni boshqarmoqda, bunga shubha yo‘q, butun dunyoni anglashga va har qanday savolga javob topishga Internet yordam bera oladi.

Internet madaniyatga qanday ta‘sir ko‘rsatishi va buning ijobiy yoki salbiy tomonlari ko‘proqmi degan fikrlar Internet muhitidan ham tashqariga chiqib, sevimli mavzuga aylanib bormoqda. Agar Internetning madaniyat: san‘at, adabiyotga va adabiy muhitga ta‘siri to‘g‘risida gap borganida tarmoq nashrlarining salbiy hamda xavfli tomonlarini ta‘kidlash, bosma nashrning esa aksincha, yorqin tomonlarini birinchi o‘ringa qo‘yish foydalidir.

Ma‘lumki, butunjahon tarmog‘ining madaniyatga ta‘siri ikki omilga asoslanadi. Bulardan birinchi omil: • bosma ishlab chiqarish monopoliyasining barham topishi. Internetning ommaviylashib borishi bilan ishlab chiqaruvchi va matn hamda g‘oyalar iste‘molchilari o‘rtasidagi ushbu vositachiga bo‘lgan zarurat yo‘qoldi. O‘quvchi-muxlislarga, iste‘molchilarga mo‘ljallangan matnlarni tarqatish faoliyati va demak, matnlarni ishlab chiqish ham endilikda kitob nashri savdosiga bog‘liq bo‘lmaydi. Ikkinchi omil: • masofaning ahamiyati qolmasligi. Internet bizga parlament kongress, konferentsiya holatini yaratadi, ya‘ni Yer kurrasi turli burchaklaridagi barcha insonlar bir zalda yig‘ilgandek bo‘ladilar. Barchasi shu yerda va hozir sodir bo‘ladi, demak, faqatgina masofa emas, balki: • vaqt tushunchasi ham ahamiyatsiz bo‘ladi. Katta jurnallarda nashr qilish vaqti — oylarga cho‘zilsa, Internetda g‘oyalar va matnlar yuzaga kelganidanoq nashr etiladi. Shunga muvofiq, bosma narshlardagi munozaralar ko‘p oy va yillarga cho‘zilsa, Internetda bunga sanoqli kunlar ketishi mumkin. Butunjahon tarmog‘ining bunday ixtiyoriyligi intellektual hayotning jadalligini ko‘p marotaba oshirishga qodir.

Internetning fan va madaniyatga qo‘shadigan yangi hissasi ana shu ikki omilda namoyon bo‘ladi. Qolgan jihatlar esa yoki ularning natijasi, yoki Internet paydo bo‘lishidan avvalgi (gipertest, turli xil adabiy o‘yinlar loyi-halar va boshqalar) yangiliklarning rivoji hisoblanadi. Internet va axborotlar olami kun sayin bizni turli yangiliklardan voqif etmoqda. Internet yangi, hali hech kimga tanish bo‘lmagan ismlar, atama va terminlar birinchi bor paydo bo‘layotgan makonga aylanib bormoqda. Bu endigina o‘z yo‘nalishlarini va muxlislarini topayotgan yosh mualliflar maydoni, shu

bilan birga, bu ishlarni uddalay olmaganlar uchun osoyishta makondir. Barchaga ma'lumki, Internet "nashri" — bosma nashrdan farq qiladi. Bosma nashrlarda muallif fikri uchun ommaviylashish ta'minlanadi (oz bo'lsa ham) — kitob do'konlarida paydo bo'ladi, tanqidchilar, bibliograflar va boshqalar nazariga tushadi. Barcha o'quvchilar ommasi bo'lmasa ham, hech bo'lmaganda yangiliklarni doimiy kuzatuvchilar yoki vaqti-vaqti bilan kitob do'konlariga kirib turuvchilar kitob to'g'risida bilib oladilar.

Internetda nashr etishda ommaviylashish alohida masalaga aylanadi. Internet — faol izlashga mo'ljallangan muhitdir. Shu bilan birga, undan foydalanuvchilar Internet bo'yicha sayr qilishda ma'lum belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari zarur. So'nggi vaqtlarda Internet taraqqiyoti, uning madaniyat kelajagiga ta'siri haqidagi turli bahs — munozaralarda dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda. Axborot uzatish tizimi fan va madaniyat sohalariga jadallik bilan yangi o'zgarishlar olib kirmoqda. Bugun Internet o'zida kutubxona, matbuot, radio va televideniye imkoniyatlarini ham mujassam etmoqda. Shu jahatdan inson ongiga, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlod ta'lim-tarbiyasiga ta'siri ham kuchayib bormoqda.

Internet global tarmoq sifatida foydalanuvchilarga ko'pgina qulayliklarni yaratib bermoqda. Avvalo shu narsa muhimki, Internet orqali yangiliklar ommaga tez yetib boradi, unda joylashtirilgan xabarlar orqali jahon bo'ylab turli ma'lumotlarni tezkor egallab boramiz. Yana bir jihati shuki, tarmoq ijodkorlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, ijod namunalari ham o'zgartirmoqda. Bugun, Internetda nafaqat mahoratli mutaxassislar, balki bevosita ishqibozlar, ya'ni Internetdan foydalanuvchining o'zi ham ma'lumot va axborot yuborish hamda tayyorlash imkoniyatiga ega. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qulayliklardan tashqari, yana bir muhim jihat — Internet tizimining o'zida turli shakldagi ma'lumotlarni, ya'ni matn, grafika, ovoz va tasvirni mujassam etish imkoniyati mavjudligidir. Bu albatta, madaniyat va san'at ahli ijodiga muhim o'zgarishlar olib kirmoqda.

Turli elektron texnologiyalarining jadal rivojlanishi ijodiy faoliyatda ham namoyon bo'lib bormoqda. Masalan, rassomchilik, amaliy bezak va kino san'atida tasvir yaratish va balki matnli ma'lumotlardan ham bevosita foydalanilishda turlicha dasturlarni qo'llaydilar. Ma'lumki, videotasvir yoki fotosuratlarini taqdim etish ham

ko'pgina yangi usullar orqali beriladi. Ko'rib turganingizdek, ijodiy jarayon bir necha xil axborot uzatish usullarining uyg'unlashib ketishiga olib kelmoqda. Ma'lumki, inson qadimdan go'zallikka havas qilgan, uning oldida lol bo'lgan va mualliflarni e'zozlab kelgan. San'at va madaniyat asarlari insonga ma'naviy oziqa bag'ishlaydi. Shu sababli ham ularni noyob durdona sifatida ardoqlab keladi.

Ilmiy-texnika taraqqiy etib, komputer va axborot texnologiyalari rivojlansada san'atga bo'lgan qiziqish aslo so'nmaydi. Haqiqiy san'at va madaniyat durdonalari insonning qalbiga, ruhiy dunyosiga ta'sir etadi va allanechuk hissiyotlar uyg'otadi. Ular insonlarga muhabbat va nafrat, quvonch va qayg'u tuyg'ularini to'g'ri anglash va ularni e'zozlashni o'rgatadi. Hozirgi ilm-fan jadal rivojlangan bir davrda ko'pgina mualliflarimiz o'z ijodida yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda raqamli texnika vositalaridan samarali foydalangan holda asarlar yaratmoqdalar. Ular o'z mahoratlarini yangi taraqqiyot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirmoqdalar.

Afsuski, bunday uyg'unlik alohida ijodiy faoliyatga salbiy ta'sir etishi ham mumkin. Bu uyg'unlik professionallik va mahoratning o'rmini bosishi qiyin kechadi. O'z ijodida yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda raqamli texnika vositalaridan samarali foydalanayotgan har qanday ijodkor uchun bu vositalar ularning ijodini boyituvchi vosita bo'lmoqda. Shu bois, bugun madaniyat va san'at xodimi ham kompyuter, ham diktofon, ham kamera, ham fotoapparat kabi vositalardan foydalana bilishi darkor. Lekin bu degani universal shaxs bo'lish shart degan ma'noni anglatmaydi. Bu — professionallik va mahoratning boyitilishidir. Shu sababli ham umumta'lim maktablaridanoq va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, keyinroq oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarga buning uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Ular bevosita olgan bilimlarini amaliyotga va ishlab chiqarishga tatbiq etish, shu bilan birga, amaliyotni nazariya bilan birgalikda samarali olib borishga erishish yo'llarini ham o'rganadilar. Talabalarimiz o'z ijodlarida har qanday texnikani qo'llash va ulardan foydalanishni bilishlari zamon talabidir. Darhaqiqat, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, Internetning rivoji, fan, madaniyat va san'at sohasida keng qo'llanilishi va shuning natijasida ro'y berayotgan jadal rivojlanish

jarayoni zamonaviy ijodiy faoliyatlarga sezilarli o'zgarishlar olib kelayotganini ko'plab sodir bo'layotgan yangiliklar ham isbot etadi.

Internetning rivoji unda o'z sahifasiga ega bo'lganlarning muxlislarida qiziqarli axborotlarning qog'oz variantiga ham qiziqishlari ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, veb-muhitda elektron nusxasiga ega bo'lgan axborot vositalari bugun yangi muxlislarni yanada jalb etishga erishmoqda. Bundan tashqari, veb-muhitdagi faoliyat va Internetda axborotlarni doimiy yangilanib borishi bu sohada muvaffaqiyatli raqobat imkonini yaratmoqda.

Hozirgi davrda ijodkorlar oldida nafaqat moddiy borliq, balki virtual olamda ham ijoq qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Internet deb atalmish bu imkoniyat vositasi sahifalarini varaqlab, go'zallik naqadar cheksiz xilma-xillikka ega ekanligidan hayratga tushish mumkin. Zamonaviy madaniyat va san'atni keng targ'ib etuvchi vosita esa kompyuter texnologiyalaridir. Kompyuter texnologiyalari va Internet ijodkor uchun o'z asarlari bilan turli ko'rgazmalarda qatnashish, tomoshabin bilan jonli muloqot qilish imkoniyatini ham baxsh eta oladi. Global tarmoqda sayt orqali tezkor va hozirjavob axborot almashuvidek imkoniyatni taqdim etadi.

Tayanch iboralar: global, xavfsizlik, tarmoq, vaziyat, sayt, zamonaviy madaniyat, xabar, tezkor.

Nazorat savollari:

1. Internet qanday imkoniyatlari bor?
2. Internetdan samarali foydalanishning o'ziga xos afzalliklarini ayting?
3. Internetning inson ish faoliyatida qanday foydali tomonlari bor?
4. Hozirgi kunda axborot texnologiyalari taraqqiyoti qanday bosqichda?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B 464.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: 2021. O‘qituvchi. – B. 184
4. N.Muratova. Jurnalistika media va axborot savodxonligi. Jurnalistlar va media sohasidagi ta’lim beruvchilar uchun qo‘llanma. Baktria press. T.,2019.
5. Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015-94.b.
6. A.B. Федоров. Медиаобразования и медиаграмотность. Учебное пособие. М. 2018 г.
7. Suvi Tyuminen, Sirkku Kotilaynen, Anniina Lundvall., Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Extremum-press, 2017-142.b
8. Yahyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o‘quv qo‘llanma. Movarounnahr, 2016.-672 b.
9. Ахметова Л.С. Медиаобразования и медиаграмотност: теория, методология, практика. Учебное пособие. КазГУ. 2016 г.
10. Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. 2010.
11. Судич Ю.В., Проказин В.В. Рол социальных сетей в жизни молодежи. М. 2019.
12. Matibaev T. Matibaeva R. Jaholat xuruji. - Toshkent: Akademiya, 2013.
13. Madarrahimova F.R. Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida mediasavodxonlikni rivojlantirish. Dis ishi. Toshkent.2024.
15. Axmetova L.C. Mediaobrazovaniya i mediagramotnost: teoriya, metodologiya, praktika. Uchebnoe posobie. KazGU. 2016 g.
16. Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. 2010.
17. Burxanov X. M. Internet xavfsizligini ta’minlashda milliy segment faoliyatining sotsiologik jihatlari. Diss. Avtoreferat. T.: 2012.
18. Raximova Sh.A. Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati. Diss. Avtoreferat. T.: 2021.

19. Shermuxamedova A.U. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi tendensiyalari va xususiyatlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.
20. Судич Ю.В., Проказин В.В. Рол сотсиал сетей в жизн! молодежи. М. 2019.
21. Matibaev T. Matibaeva R. Jaholat xuruji. - Toshkent: Akademiya, 2013.
22. Tolipov A.A. Yoshlar orasida jiioyatchilikning oldiii olishning ijtimoiy mexanizmlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.
- 23.Баженова Ж.М. Принципы обучения школьников основам экранной грамотности/ Ж.М. Баженова // Специалист. 1993. № 5. -С. 68.
- 24.Баранов О.А. Медиаобразование в школе и вузе. Тверь: Изд-во Твер. гос. ун-та, 200. -С.87.

Axborot manbalari:

1. <http://www.edu.uz>-O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi sayti.
2. <http://www.uzedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligi sayti.
3. <http://www.gov.uz>- O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.
4. [Prezident.uz](http://www.prezident.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
5. www.press-service.uz. - Prezident matbuot xizmati.
6. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
7. www.ziyonet.uz - O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali.
8. www.uza.uz - O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘ZA)
9. www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.
10. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
11. www.scopus.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.
12. www.elibrary.ru - Rossiya ilmiy maqolalari indeksi.
13. www.pedagog.uz.

MUNDARIJA:

| | |
|--|----|
| KIRISH | 3 |
| I. BOB. MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI EVOLYUTSIYASI VA UNING JAMIYATDAGI AHAMIYATI. | |
| 1.1. Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasi evolyusiyasi va dialektikasi..... | 5 |
| 1.2. Muloqot va ma'lumot tushunchasining uzviyligi va o'ziga xosligi..... | 7 |
| 1.3. Aloqa va axborotning inson hayotidagi o'rni, mazmuni va ma'naviy ehtiyoji..... | 13 |
| 1.4. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati kommunikativ vosita va foydalanish usullari sifatida..... | 20 |
| II. BOB. AXBOROTNING JAMIYAT RIVOJIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. | |
| 2.1. Bosma shakldagi ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallarning o'ziga xos xususiyatlari..... | 31 |
| 2.2. Bosma shakldagi ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallarning o'ziga xos xususiyatlari..... | 41 |
| 2.3. Ta'lim jarayonida axborot savodxonligining o'rni va ahamiyati..... | 45 |
| 2.4. Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalar va ularning ahamiyati..... | 52 |
| III. BOB. DUNYO AHOLISINING AXBOROTGA BO'LGAN EHTIYOJINI QONDIRISH MASALALARI. | |
| 3.1. Dunyo aholisining axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish masalalari..... | 62 |
| 3.2. Ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan bloger va vaynerlarda kasbiy etiket qoidalarining ahamiyati..... | 69 |
| 3.3. Axborotdan daromad topish yo'llari va insonga ta'sir etuvchi salbiy tomonlari..... | 75 |
| IV. BOB. XORIJIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING MEDIA MAKONIDAGI O'RNI. | |
| 4.1. Xorijiy media axborot vositalari: The Times, The New Times, Bloomberg va Sabah, "Exa Moskvi", "TRT" va "Amerika ovozi teleradiokompaniyalarining qiyosiy tahlili..... | 79 |
| 4.2. Rossiya, AQSH va Yevropa teleradiokompaniyalari faoliyatini tahlil qilish..... | 82 |
| 4.3. Zamonaviy globallashtirish integratsiya, axborotlashtirish tarmog'idagi fitna va axloqiy hujumlar va ularning oqibatlari..... | 84 |

V. BOB. MEDIA MAYDON TUZILISHI VA UNING JAMIYAT RIVOJIGA TA`SIRI.

- 5.1. Axborotlashgan jamiyatda media maydon tushunchasining uzviyligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....91
- 5.2. Media maydonda shaxs tomonidan axborot yaratish va uning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati.....95
- 5.3. Axborotni daromad manbaiga aylantirishning o‘ziga xos jihatlari.....107
- 5.4. Axborotning inson ongiga ta'sir etish muammolari.....112

VI. BOB. IJTIMOY TARMOQLARDAGI AXBOROT XURUJLARI VA TAHDIDLAR.

- 6.1. Ijtimoiy tarmoqni axborot maydoniga aylantirish zaruriyati.....117
- 6.2. An'anaviy ommaviy axborot vositalari o'rnini ijtimoiy tarmoqlar egallashining salbiy va ijobiy jihatlari123
- 6.3. Ijtimoiy tarmoqlarning jozibadorligi va yoshlarning jalb etilishi.....126
- 6.4. Ijtimoiy tarmoqlarni ommalashtirishning o‘ziga xos jihatlari.....130

VII. BOB. MEDIA MAYDONDA AXBOROT TARQATISH MADANIYATI.

- 7.1. Axborot maydonida ahloq va shaxs tushunchasi.....136
- 7.2. Internet, virtual va vizual olamning shaxsga ta'siri.....143
- 7.3. Vizual va virtual olamning ommaviyligi va jozibadorligi. Ommaviy axborot vositalari: ommaviy madaniyat, o'yin-kulgi va reklama.....145

VIII. BOB. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN AXBOROT: PSIXOLOGIK, DINIY VA MADANIY TAHDIDLAR.

- 8.1. Axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi va tasnifi.....154
- 8.2. Diniy tahdidlar va ularning kelib chiqish sabablari.....161
- 8.3. Ma'naviy tahdid tushunchasi: yondashuvlar va talqinlar. Milliy nizo turlari va tahdidlar.....168

IX. BOB. AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING G‘OYAVIY-NAZARIY ASOSLARI.

- 9.1. Axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari.....175
- 9.2. Internetda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari.....185
- 9.3. Axborot xavfsizligini ta'minlash nazariy asoslarning o‘ziga xos jihatlari..189

X. BOB. O‘ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING MA’NAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI.

- 10.1. Axborot xavfsizligini ta'minlash markazining vazifalari.....197
- 10.2. Talabalarda mediasavodxonlikni shakllantirishda zaruriy axborotlar.....211

| | |
|---|------------|
| 10.3. Tashkilotlarda axborot xizmati faoliyatining axborot texnologiyalari chambarchas bog‘liqligi..... | 213 |
| XI. BOB. VIRTUAL O‘YINLARNING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI. | |
| 11.1. O‘yinlarining yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri..... | 217 |
| 11.2. Virtual olamda tarbiya masalalarining muhim jihatlari..... | 223 |
| 11.3. Virtual maydonlardagi o‘yinlarning asl qiyofasi..... | 227 |
| XII. BOB. MEDIA MAYDON VA INTERNET IMKONIYATLARI. | |
| 12.1. Internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish texnologiyasi..... | 233 |
| 12.2. Internetdan xavfsiz foydalanish yo‘llari..... | 238 |
| 12.3. Internetning ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o‘ziga xos ta’siri..... | 250 |
| Foydalanilgan adabiyotlar..... | 255 |